

Abul Husayn Quduriy

# TASXILI ZARURIY

(Quduriy masalalari)

*Abdurahmon ibni Abdulloh Marg'iloniy tarjimasi*

## **BISMILLAHIR ROHMONIR ROHIM.**

Alahamdu lilahillazi xadano lixaza. Vama kuniaa linaxtadiya lavlaa an hadanalloh. Vassalotu vassalomu ala sayyidil xolqi Muhammad ibni Abdulloh (sallolohu alayhi vasallam) Ammo ba'du.

Muhtaram aziz dindor birodarlar. Dindorlarga qachon diniy erkinlik bo'ladi deb Allohga iltijo va yaxshi umidlar bilan umrini o'tkazgan aka-uka, opa-singillar. Allohga cheksiz shukrlar bo'lsinki ana shunday kunlarga ham yetib keldik. Mustaqillik shabodasi esib orzular ushalmoqda. Inshoolloh yana ham yorug'lik kunlari oldinda. Lekin dinga bo'lgan 70 yildan ortiq tazyiq dindorlar madorini quritgan. Ularning ma'naviy ozuqasi bo'lgan diniy ma'rifatdan mahrum qilgan. Shuning uchun dinni qayta tiklashda, dindorlarimiz ongini oshirishda ilmlik kishilarimiz juda katta ishlar qilishlari kerak bo'ladi. Demak, xali juda ko'p ishlar qilishimiz kerak. Shuni nazarda tutib men ham ojizona qalam tebratib xalqimizga dinni yetkazish yo'lida Allohdan madad tilab bir xizmatga bel bog'ladim. Agarki bu ishga menda qobiliyat bo'lmasada Xoji Abduqodir Marg'iloniyni iltimoslariga ko'ra sa'y qildim.

Har qanday mushkulni oson etuvchi haq subxonaqu va ta'olodan madadni umid qilib bu ishga kirishdim. Vallohul muvaffiku. Xazrati imom A'zam Abu Xanifa No'mon binni Sobit al Qufiy Raxmatullohi alayh mazxablaridagi olimlarii zubdasi Abul Xusain Axmad binni Muhammad binni Ahmad binni Ja'far binni Xamdon Albag'dodiyiyil Quduriy raxmatullohi alayhning «Muxtasarul Quduriy» kitoblari fihi Xanifiyada tengsiz bir kitobdir. Bu kitobni shuhrati uni ta'riflashdan bizni ojiz qiladi. Bu kitob asrlar osha bizga yetib kelar ekan, har vaqt ulug'lar e'tiborida bo'ldi. Shu sabab bir necha o'nlab sharxlar bitildi. Jumladan: Najmiddin Muxtor binni Maxmud Azzohiddiy 658 xijriyda vafot topdilar.

Yana Abu Bakr binni Aliy Alxaddodiy Alyamaniy 800-xijriy yilida vafot etdilar. Va yana boshqalar sharx qilganlar. Va bu kitob Hindistonda urdu tiliga tarjima qilindi. Va bu kitobni «Tanqix uzaruriy» deb nomlangan nusxasi Shayx Nizomuddin Kayronoviy tomonidan kengaytirilgan bo'lib, Pokiston va Hindistonda necha bor qayta nashr etildi. Bu kitob ayniqsa keyingn yillarda Saudiya Arabistonida yashovchi ulug' alloma shayxul jalil Muhamad Masud Shaliymul suamish Usmonny Almakkiy va Pokiston allomalaridan Muhammad Oshiq Ilohiy barno, Abdulxafiz Almuzoxiriy Almakkiy kabi allomalar katta e'tibor berdilar.

Bu kitobni xosu omga mufid bo'lishini nazarda tutib Abduxafiz Almuzoxir Almakkiy ishoralari bilan Muhammad Oshiq Ilohiy Albarna kitobni savol javob tarzida qayta nashrga tayyorladilar. Darhaqiqat, islom ahli uchun ajoyib bir asar vujudga keldi. Men kamina diyorumiz musulmonlari yoshu-qari barchaga nafi tegsin, deb ushbu kitobni o'z ona tilimiz turkiy - o'zbek tiliga tarjima qilishni xohladim. Hozirda joriy bo'lgan kiril

alfbosida yozish ma'qul ko'rildi. Chunki naf'i barchaga barobar bo'ladi. Bu kitobni aslidan Alloh islom ahliga qanday manfaat bergan bo'lsa ushbu tarjimadan ham shunday foyda yetkazishni umid qilib bu ishga kirishdim. Ahli islom uchun eng zarur fan fiqh, ilmidir. Shuning uchun ham rasululloh alayhissalom aytadilar «man yuridillohu bixi xayron yufaqqihu fiddini» Kimga Alloh yaxshilikni xohlasa u odamni fiqh ilmiga dono qiladi. Nafaanallohu min xazal kitobi va iyakum bimannixi va karomixi omin.

*10 Muharram 1415 xijriy Abdurahmon ibni Abdulloh Marg'iloniy.*

## TAHORAT KITOBII

**Savol:** Nima uchun fuqaholar kitoblarini tahorat masalalari bilan boshlaydilar?

**Javob:** Chunki tahorat namoz ravo bo'lishini shartlaridandur. Namoz islomdagi besh ruknni ikkinchisidir. Bas tahorat hukmlarini avval keltiradilar. So'ngra namoz hukmlarini.

**Savol:** Shariatda va lug'atda tahoratni ma'nosi nima?

**Javob:** Tahorat lug'atda poklikdir. Shariatda esa kichik va katta be tahoratlikni ketkazish, iflos narsalarni kiyimidan, badanidan va namoz o'qiydurgon joyidan ketkazishdir.

**Savol:** Katta betahoratlik nima?

**Javob:** Har vaqtiki erkak yoki ayolga barcha badanini yuvmoqlik farz bo'lsa u katta betahoratlikdir. Agar yuvsa u betahoratlik ketdi, buni g'usl deb ataladi, ya'ni bu junublikdir.

**Savol:** Kichik betahoratlik nima?

**Javob:** Har vaqtiki erkak yoki ayolga ba'zi a'zosinn yuvish va ba'zi a'zosiga mash tortish kerak bo'lsa namoz o'qimoqlik uchun u kichik betahoratlikdir. Agar shu betahoratlikni a'zolaridan ketkazilsa shu bilan tahorat hosil bo'ladi. Buni vuzu deb ataladi va bu kishini tahoratlik deb ataladi.

**Savol:** Tahoratda yuviladigan va mash tortiladigan a'zolar qaysilar?

**Javob:**

1. Insonning yuzi ya'ni soch chiqqan yerdan boshlab jag'ini ostigacha va o'ng qulog'idan chap qulog'igacha.

2. Ikki qo'lini panjalarinni uchidan chig'anog'igacha.

3. Ikki oyog'i panjalaridan to ikki oshig'i bilan qo'shib, mana shu uchta a'zo tahoratda yuviladi, hammasi yuvilmaguncha tahorat bo'lmaydi. Bir tukni o'rniga suv yetmasa u kishi tahoratlik bo'lmaydi.

4. Mash tortiladigan a'zo u boshdir. Hammasiga mash tortish sunnat va to'rtdan biriga mash tortish farzdir.

**Savol:** Ikki chig'anoq va ikki oshik yuvishga kiradimi?

**Javob:** Ha ularni tahoratda yuvmoqlik farzdir.

**Savol:** Tahoratda uch a'zoni yuvish va boshga mash qilish farz ekanligini qaerdan bildingiz?

**Javob:** Buni Alloh ta'olo o'z kitobida bayon qilgan. Aytdi ey imon keltirgan zotlar agar namoz uchun o'rinlaringizdan tursangiz bas yuvinglar yuzlaringizni va ikki qo'llaringizni chig'anoqlaringiz bilan, va boshlaringizni to'rtidan biriga mash tortinglar va ikki oyoqlaringizni oshiqlaringiz bilan qo'shib yuvinglar.

**Savol:** Boshni to'rtidan biriga mash tortishga dalil nima?

**Javob:** Bunga dalil Mug'ira binni Shu'ba raziyallohu anxuni xadislaridir. Aytdilar albatta payg'ambarimiz tahorat qildilar bas peshonalari ustiga mash qildilar.

## TAHORATNING SUNNATLARI

**Savol:** Tahoratning sunnatlari nimalardir?

**Javob:**

1. Niyatdir. Kichik betahoratlikni ketkazishni niyat qiladi. Yoki betahoratlikda mumkin bo'lmagan ishni mumkin bo'lishini niyat qiladi.
2. Ikki qo'lini oshig'igacha uch marta yuvadi ayniqsa uyqudan turgan kishi.
3. Tahoratni boshlashda «Bismillohir rohmanir rohim» bilan boshlaydi.
4. Misvok ishlatmoq.
5. Uch marta og'zini g'arg'ara qilmoq.
6. Uch marta burnini suv olib qoqmoq.
7. Boshni hammasiga mash tortmoq.
8. Ikki qulog'iga mash tortmoq.
9. Qo'l va oyoq panjalarini orasini ishqamoq.
10. Soqolini orasiga panjalari bilan xilol qilmok.
11. Har bir a'zoni uch martadan yuvmoq.
12. Tahoratni Qur'oni karimda buyurilganidek tartibda qilmoq. Avval yuzini keyin ikki qo'lini chig'anoqlari bilan, keyin boshiga mash tortmoq, keyin ikki oyog'ini oshiqlari bilan yuvmoq.
13. Tahoratni o'ng tomondan boshlamoq, ya'ni avval o'ng ko'lni keyin chap qo'lni shunga o'xshash avval o'ng oyoqni so'ng chap oyoqni yuvmoq.
14. A'zolarni yuvishda to'xtamay tahoratni oxiriga yetkazmoq.
15. Bo'yniga mash tortmoq.

## TAHORATNI KETKAZUVCHI NARSALAR

**Savol:** Erkak yoki ayol tahoratlik bo'lsa uning tahorati qachon buziladi?

**Javob:** Uning tahorati quyidagilarni biri bilan buziladi. Va ularni tahoratni buzuvchi narsalar deb ataladi.

1. Insonni orqasidan g'oit kelmog'i.
2. Orqasidan aniq yel kelmog'i ovoz yoki hid bilan.
3. Oldi peshovdan siydik, mazi, yoki vadiy kelmog'i.
4. Qon yo peshovdan siydik, mazi, yoki vadiy kelmog'i. Qon yo yiring yoki zardob qaerdan chiqmasin, atrofiga tarqasa.
5. Qay' ya'ni qusuq og'zini to'ldirib kelsa.
6. Yonboshlab uxlamog'.
7. Biror narsaga suyanib uxlasa va narsani olib tashlansa, uxlaguvchi yiqilgudek suyangan bo'lsa.
8. Tutqanoq tutsa.
9. Jinni bo'lsa.
10. Balog'atga yetgan odam ovozini chinqarib namozda kulsa.

Mana shu ishlardan birortasi bo'lsa yangi tahorat olmaguncha namoz mumkin emas.

## **G'USL VA UNI VOJIB QILGUVCHI NARSALAR**

**Savol:** Katta betahoratlik qachon va nimalar bilan vojib bo'ladi?

**Javob:** Biz quyida aytadigan narsalar bilan vojib bo'ladi.

1. Erkak yoki ayoldan mani chiqib extilom bo'lmog'i bilan.
2. Erkak kishini avratidan usta kesgan yeri xotin kishining oldi yoki orqasiga yoki erkak kishi orqasiga kirsa, mani kelsa yoki kelmasa ham g'usl vojib bo'ladi. Ulamolar buni bir biriga ikki avratni yo'liqmog'i deb ataydilar.
3. Maniyni kelmoqligi tezlik va lazzat bilan erkak yoki ayoldan agar shu uchta ishdan biri hosil bo'lsa erkak yoki ayol junub bo'ldi deyiladi.
4. Hayz qonini to'xtamoqligi.
5. Nifos qonini to'xtamoqligi.

Mana shu ishlarni xar qaysisi g'uslni vojib qiladi. Shu darajadagi bir tukni o'rnini qoldirmasdan albatta yuvish kerak bo'ladi.

**Savol:** Maziy yoki vadiy kelsa g'usl vojib bo'ladimi?

**Javob:** G'usl vojib bo'lmaydi, balki yuqorida aytganimizdek ular tahoratni buzguvchi narsalardir.

## **G'USLNING FARZLARI**

**Savol:** G'uslning farzlari nimalardan iborat?

**Javob:** G'uslda farzlar

1. Og'zini xalqumgacha yaxshilab chayqamoqlik.
2. Burnini rosa to'risigacha suv olib yuvmoqlik.
3. Hamma badanni bir marta yuvmoq

**Savol:** Sunnatga muvofiq qanday g'usl qilinadi?

**Javob:** G'uslning sunnati avval ikki qo'lini yuvmoqlik, keyin oldi va orqa ovratlarni yuvmoqlik va biror joyida najosat bo'lsa uni ketkazmoqlik, so'ng tahorat qilmoqlik, so'ng boshidan suv quymoqlik. So'ng butun badaniga uch marta suv quymoqlik so'ngra suv yetishi qiyin bo'lgan quloq ichlari, qo'ltiq osti va kindik kabi joylarga astoydil suv yetkazmoqlik. Foyida: Agar g'usl qilinadigan joy qattiq suv to'xtamaydigan toshga o'xshash joy bo'lsa g'usldagi tahoratdan keyin oyog'ni yuvadi. Agar suv to'xtaydigan joy bo'lsa oyog'ini yuvishni g'uslni oxiriga to'xtatib u yerdan uzoqlashib so'ng yuvadi.

**Savol:** Shu g'usl qilish kayfiyati barchaga barobarmi?

**Javob:** Bu har bir g'usl qilguvchiga barobardir, xoh farz uchun xoh sunnat uchun g'usl qilinsin.

**Savol:** Ayollar uchun g'uslda sochini ho'llashga ruxsat bormi? Yoki o'rilgan sochini yozmoqlik zarurmi?

**Javob:** Ayollar o'rilgan sochlarini yozmoqliklari shart emas va uni tamomila yuvish ham zarur emas. Balki sochini tagiga suv yetkazmoqligi zarur. Bu g'usl vojib bo'lgan paytda sochi o'rilgan bo'lgan ayollargadir. Ammo sochi yozig'lik bo'lsa hammasini, shUnga o'xshash erkaklarni sochlari ko'p bo'lsa g'usl vaqtida hammasini yuvish lozimdir.

## BETAHORAT VA JUNUB KISHILAR HUKMI

**Savol:** Betahorat va junub kishilarni hukmi nima?

**Javob:** Qachonki erkak yoki ayolga g'usl vojib bo'lsa ular uchun namoz o'qish, masjidga kirish, qur'on o'qish, musxafni ushlab (magar g'ilof bilan bo'lsa) tavof qilish halol emas. Bu ikkalasiga Allohni zikr qilish mumkin. Ammo betahorat kishi tahorat qilmaguncha namoz o'qishi, baytullohga tavofga kirishi qur'on ushlashi mumkin emas. Qur'on tilovat qilishi zikr aytishi, masjidga kirishi mumkin. G'iloflik qur'onni ushlashi mumkin.

## SUVLARNING HUKMI

**Savol:** Nima narsalar bilan betahoratlik ketadi.

**Javob:** Har bir nopoklikdan tozalanish mumkin bo'ladi, Osmondan tushgan, vodiylarda oqqan, anhorda oqqan, buloqlardan chiqqan, quduqlardagi va dengiz suvlari bilan agarchi sho'r bo'lsa ham. Va tahorat qilmoqlik durust bo'ladi, bir suvlar bilanki Unga pok narsa aralashgan bo'lsa. Masalan: sel suvi Unga tuproq aralashgan va bir suviki unga sovun yoki za'faron aralashgan.

**Savol:** Suvlardan tahorat qilib bo'lmaydigani ham bormi?

**Javob:** Mevalardan, daraxtlardan siqib olingan suvlarda, pok narsa aralashib uni suvlik tabiatidan chiqarib qo'ygan suyuqliklarda, masalan, ichimliklar sirka, sho'rva va boshqa narsalarda tahorat va g'usl durust emas.

**Savol:** Nima deysiz bir suvni haqidaki u suv bilan tahorat yoki g'usl qilindi, yoki tahoratlik kishi yana tahorat qildi savob niyatida va shu suvlar badandan oqib bir idishga to'plandi?

**Javob:** Bu suv bilan tahorat ham g'usl ham qilib bo'lmaydi.

**Savol:** Bildik albatta ishlatilgan suv bilan poklanib bo'lmas ekan. Istaymizki bilishni u suv tozami yoki yo'qmi?

**Javob:** U suv bilan faqat betahoratlikni ketkazilgan bo'lsa u suv tozadir. (Haqiqiy najosatni ketkazishga ishlatilmagan bo'lsa) o'zi toza qilguvchi emasdir, ya'ni ikkinchi bor tahoratga yaramaydi. Agar g'usl yoki tahorat vaqtida shu suvdan idishga tomsa yoki kiyimga sachrasa yo boshqa bir idishga tegsa u narsalarni nopok qilmaydi.

## SUVLARNI IFLOSLANISHI VA UNI POKLAMOO

**Savol:** Suvga biror narsa tushishi bilan u iflos bo'ladimi?

**Javob:** Alloh ta'olo suvni toza va tozalaguvchi qilib yaratgan. Lekin unga oz yoki ko'p najosat tushsa u ifloslanadi. Chunki payg'ambarimiz alayhissalom suvni ifloslanishlan saqlashga buyurdilar. Aytadilarki, sizlarni birortangiz to'xtab turgan suvga xargiz siymanglar. Keyin unda yuviniladi va yana payg'ambarimiz aytdilar. Qachon birortalaring uyqusidan uyg'onsa qo'lini idishga botirmasin to uch marta yuvmaguncha, chunki u bilmaydi uyqusida qo'li qaerda turdi. Qachonki suvga najosat tushsa unda tahorat va g'usl mumkin emas.

**Savol:** Ko'p suvga najosat tushsa bu suvda tahorat qilish borasida Fukaholar nima deydilar?

**Javob:** Ko'p suv shunday. U katta hovuz bo'lib bir tomonidan turib suvni qimirlatilsa narigi tomoni qimirlamaydi. Shunday xovuzni bir tomoniga najosat tushsa ikkinchi tomonida tahorat qilish mumkin. Chunki ko'rinishda bu tomonidagi najosat narigi tomoniga yetib bormaydi. Ikki tomonni orasi uzoq bo'lgani uchun.

**Savol:** Oqib turgan suvga najas tushsa hukmi nima bo'ladi?

**Javob:** Suvda najas asari ko'rilmasa tahorat va g'usl qilmoqlik durust. Chunki suv oqib turishi bilan najas to'xtab turmaydi.

**Savol:** Suvda hayvonni o'lishi uni buzadimi?

**Javob:** So'yganda qoni oqadigan xoh parranda xoh to'rt oyoqli hayvon suvda o'lsa albatta uni buzadi. Suvda yashovchi hayvonlarni suvda o'lishi uni buzmaydi. Baliq, suv baqasi va qisqichbaqaga o'xshash, oqadigan qoni yo'q narsalarni o'lishi suvni buzmaganiдек. Pashsha, chivin, ari va chayonga o'xshash.

## **QUDUQLARGA NAJAS TUSHGANDA UNI POK QILMOQLIK**

**Savol:** Quduqlarni suvi pok leb aytdingiz, Unga najas tushishi mumkin uni qanday toza qilinadi?

**Javob:**

1. Qachon quduq najas tushsa, yoki unda odam o'lsa, yo it, yo qo'y o'lsa, yoki kattalikda shularga teng keladigan narsa o'lsa, quduqning barcha suvi tortib olinadi va u butunlay pok bo'ladi.
2. Agar unda kaptar, tovuq yoki mushuk yo shunga o'xshash narsa o'lsa 40 chelak suv olinadi bu vojibdur, 50 chelak suv olib tashlansa yaxshiroq.
3. Agar sichqon, chumchuq yo shunga o'xshash narsa o'lsa 20 chelak suv olinishi vojib, 30 chelak olinmoqligi yaxshiroq.
4. Ana shu aytilgan hukm u o'lgan narsa shishmagan yoki yorilmagan bo'lsa, ammo shishgan yoki yorilgan bo'lsa u hayvonni katta yoki kichikligidan qat'iy nazar quduqni hamma suvi tortib olinadi.

**Savol:** Suvni olishda qanday chelakni e'tibor qilinadi?

**Javob:** Quduqlarda ishlatiladigan chelakni o'rtachasini e'tibor qilinadi.

**Savol:** Goho chelak katta bo'ladi, unda qanday hisob qilinadi?

**Javob:** Unda chelakni kattaligiga qaraladi, o'rtacha chelakdan 10 chelakka teng kelsa 2 yoki 3 chelak olmoqlik kifoya qiladi, sichqonga o'xshash o'lganda. Shunga o'xshash 40 chelakni hisob qilinadi kaptarga o'xshash narsa o'lsa. Foyida: Quduq suvini hammasini tortib olinadi demoklikdan maqsad quduqni tagida yarim chelak to'lmay qolishidir.

**Savol:** Goho quduqlar suvi to'xtamay chiqadigan buloq kabi bo'lib chelaklab olish bilan suvi to'xtamaydi. Qancha olinsa shunday ko'paya beradi. Bu quduqni qanday poklash mumkin?

**Javob:** Quduqdagi suvni miqdoricha suv olib tashlashsa kifoya. Bunda suv hisobini biladigan ikkita adolatli er kishini so'zini qabul qilinadi. Xazrati Imom A'zamni shogirdlari imomi Muhammaddan rivoyat qilinadi, shunday quduqlardan 200 dan 300 chelakkacha suv olib tashlashni Foyida: Agar quduqni suvini hammasini olib uni pokligiga hukm qilinsa, yoki suvni ba'zi qismini olib tashlab quduq pok deb hukm qilinsa, shu bilan o'sha chelak, arqon, suv olgan kishilarni qo'llari, quduqni devorlari va tuprog'i hammasi pok bo'ladi. Ulardan birortasini yuvish hojat emas.

Foyida: Quduqdagi najosatni olib tashlashgandan so'ng suvni olinsa quduq pok bo'ladi. Ammo quduqda najas turib hamma suvini olinsa ham quduq pok bo'lmaydi.

**Savol:** Goho quduqdan o'lik sichqon topiladi. Uni qachon tushgani bilinmaydi. Vaholanki namozxonlar tahorat olishgan, kiyimlarini yuvishgan, idishlarini chayqashgan va boshqa ishlar bo'lgan. Ana shunda nima qilish lozim?

**Javob:** Agar o'sha sichqon shishmagan va yorilmagan bo'lsa bir kecha-kunduzdan bu yog'idagi namozlarni qaytib o'qiladi va shu vaqt ichida yuvilgan kiyimlar va idishlar qayta yuviladi. Agar shishgan yoki yorilgan bo'lsa uch kecha va kunduzlik ishlarni qaytariladi. Bu imom A'zam rahmatullohi alayhni fatvolaridir. Ammo imom Abu Yusuf bilan imom Muhammad qovllarida biror narsa qaytarilmaydi hatto tushgan vaqti aniqlanmaguncha. Bu osonroqdir. Ammo imom A'zamni gaplari ehtiyotliroqdir.

## OG'ZIDAN ORTGAN SUVLAR MASALALARI

**Savol:** Odamni va boshqa hayvonlarni og'zidan ortgan suvni hukmi qanday?

**Javob:** Har bir insonni og'zidan ortgan suv pokdir. U xoh erkak, xoh ayol, xoh junub, xoh hayzlik, musulmon yoki kofir bo'lsin. Shunga o'xshash xar bir go'shti yeyiladigan hayvonni og'zidan ortgan suv pokdir. It, to'ng'iz va barcha yirtqich hayvonlarni og'zidan ortgan sarqiti haromdir. Mushuk va bo'sh yurgan tovuq, burgut, lochin kabi yirtqich qushlarni og'zidan ortgan narsa makruhdur. Uyda yashovchi ilon, sichqonni og'zidan ortgan narsalar ham makruhdur.

**Savol:** Makruh bo'lgan sarqitlarni hukmi nimadir?

**Javob:** Agar boshqa suv bo'lsa uni ishlatmoqlik makruhdur. Masalan bir kishini oldida toza suv bor undan mushuk ichdi va boshqa suv bor undan inson ichdi, haligi kishi tahorat qilmoqlikni xohladi. Albatta u kishi odamdan qolgan suvda tahorat olmoqligi afzaldir, mushukdan qolgan suvda tahorat qilgandan ko'ra.

**Savol:** Agar mushukdan ortgan suvdan boshqa suv bo'lmasa tahorat qiladimi yoki tayamum qiladimi?

**Javob:** O'sha suvda tahorat qiladi. Tayamum qilmaydi. Chunki u toza suvdir. Agar chandiyki boshqa suv bo'lganda uni ishlatish makruh bo'lsa ham.

**Savol:** Suvlardan shakligi ham bormi?

**Javob:** Ha, dalillar ixtiloflik bo'lgani uchun eshak va xachirni ogzidan ortgan suv shaklikdur.

**Savol:** Eshak yoki xachirdan ortgan suvdan boshqa suv bo'lmasachi?

**Javob:** Shakdan chiqmoqlik uchun o'sha suvda tahorat ham qiladi va ehtiyotdan tayamum ham qiladi.

**Savol:** Avval tahoratmi yoki tayamum?



**Javob:** Xohlaganidan boshlaydi.

Foyida: Odamni og'zidan ortgan narsa pok bo'ladi. Aroq ichmagan bo'lsa, tishlari qonamagan bo'lsa, yo og'iz to'ldirib qusmagan bo'lsa. Agar shu ishlar bo'lgan bo'lsa og'zidan ortgan narsa xaromdir. Hatto og'zini uch marta yuvmaguncha yoki tufurugini bir necha bor yutmaguncha. Tishlarida va labida najas qolmaguncha. Shunga o'xshash mushukni og'zidan ortgan narsa xaromdir agar u sichqonni yeb darhol og'zini idishdagi suvga suqsa. Ammo u sichqonni yeb biroz turib og'zini so'lagi bilan yuvsa va najosat asari ketsa og'zini poklikka hukm qilinadi. Og'zidan ortgan narsa makruh bo'lsa ham.

## TAYAMMUM

**Savol:** Tayammum shariatda va lug'atda nima?

**Javob:** Tayammum lug'atda qasd qilmoq va xohlamoq. Shariatda tuproq va boshqa yer jinsidan bo'lgan narsani betahoratlikni ketkazish uchun xos yo'l bilan ishlatmoqlikdir. Bunga asos Allohni gapi, (Agar tahorat uchun suv topaolmasalaring pokiza tuproq bilan tayammum qilinglar. Yuzlaringizga va ikki qo'llaringizga mash tortinglar).

**Savol:** Betahorat kishi uchun qachon tayammum qilish durust bo'ladi?

**Javob:** Agar suv topaolmasa, o'zi musofir bo'lsa yo shahardan tashqari bo'lsa suvning uzoqligi bir mil bo'lsa bu kishi tayammum qiladi.

**Savol:** Suv mavjud bo'lsa lekin u kasal bo'lsa tayammum durustmi?

**Javob:** Agar kasal suvni ishlatishdan kasalini og'irlashidan qo'rqsa yoki junub kishi sovuq suv bilan g'usl qilsa sovuq uni o'ldiradigan bo'lsa, suvni isitadigan narsa topaolmasa tayammum qiladi.

**Savol:** Tayammumni qanday qilinadi?

**Javob:** Avval betahoratlikni ketkazishni niyat qiladi. Yoki namoz o'qishga pok bo'lishni niyat qiladi. So'ng ikki qo'lini yerga uradi va ikki qo'li bilan yuziga mash tortadi. Biror tukni o'rni qolmagundek. So'ng ikkinchi marta qo'lini yerga uradi. Bas chap qo'li bilan o'ng qo'lga mash tortadi, panjalari uchidan to chig'anog'larini qo'shib so'ng xuddi shunday o'ng qo'li bilan chap qo'lga mash tortadi.

**Savol:** Shunday tayammum betahorat kishi uchunmi yoki junub kishi uchunmi?

**Javob:** Yuqorida biz aytgan tayammum surati har ikkisiga barobardir. Junub bilan tahoratsiz kishini tayammumda farq yo'q.

**Savol:** Nima bilan tayammum qilinadi?

**Javob:** Toza tuproq va har narsa yer jinsidan bo'lsa qum, bo'r, oxak, surma, tosh kabi agar chandiyki tosh silliq bo'lib ustida chang bo'lmasa ham tayammum qilish mumkni. Shularni hammasida shart pokiza bo'lmoqligi. Bu imom A'zam va imomi Muhammad

nazdilarida. Alloh har ikkilarini rahmat qilsin. Imomi Abu Yusuf aytdilar. Alloh rahmat qilsin u kishini. Tuproq bilan qumdan boshqa narsaga tayammum durust emas. Ikkalasi ham pok bo'lishi shart.

**Savol:** Vaqtiki bir tomni buzsa yoki shamol changni qo'zg'asa yuz va qo'llariga chang yetsa tayammum qilgan bo'ladimi?

**Javob:** Bu bilan tayammum qilgan bo'lmaydi va talab qilingan poklik hosil bo'lmaydi. Chunki tayammumda niyat farzdir. Ammo suvga shumg'isa va g'usl niyat qilmasa g'uslga kifoya qiladi, shunga o'xshash tahoratda yuviladigan a'zolarini hammasiga yomg'ir yog'ib ho'l qilsa suv ustidan oqsa boshiga qo'lini siypasa tahoratga kifoya qiladi tahoratga niyat qilmasa ham. Chunki tahorat bilan g'uslda niyat farz emas, balki sunnatdir.

**Savol:** Tayammumdan so'ng nafl namoz o'qisa bo'ladimi?

**Javob:** Tayammumdan so'ng xohlagancha farz va nafl namoz o'qish joizdir. Tahorat va g'usl qilgan odam qiladigan hamma ishni kilishi mumkin. Chunki tahorat va g'usl ni qilishdagi poklik bilan tayammumdagi poklikni farqi yo'q. Bas tayammum qiluvchiga joizdir musxafni ushlab, masjidga kirish, qur'on o'kish baytullohni tavof qilish.

**Savol:** Sog'lom muqim kishiga ba'zi holda tayammum qilish joizmi?

**Javob:** Sog'lom muqim kishiga suv mavjud bo'lib uni ishlatni imkoni bo'lsa ham agar tahoratga mashg'ul bo'lsa janoza namozidan qolish ehtimoli bo'lsa tayammum qiladi.

**Savol:** Shu ish xayit namozida voqe' bo'lsa nima qiladi?

**Javob:** Shunga o'xshash betahorat kishi tahoratga mashg'ul bo'lsa xayit namozidan qolish ehtimoli bo'lsa tayammum qilib imom bilan iyd namozini ado qiladi.

**Savol:** Bir kishi juma namoziga keldi, tahorati yo'q tahorat qilsa jumadan qoladi, tayammum qiladimi?

**Javob:** U odam tahorat qiladi agar ulgursa jumani o'qiydi, ulgurmasa to'rt rakaat peshin o'qiydi.

**Savol:** Agar tahorat qilsa namozni vaqti chiqib ketadi, namoz qazo bo'ladi, kun chiqish oldida uyqudan uyg'ongan kishiga o'xshaydi, tayammum bilan namoz o'qisa bo'ladimi?

**Javob:** Tayammum durust emas, tahorat qiladi, agar junub bo'lsa g'usl qiladi, oftob chiqib bir nayza bo'yi ko'tarilgandan so'ng namozni o'qiydi. Chunki vaqtni tangligi tayammum qilishga uzr emas.

**Savol:** Suv yo'q, lekin suvga yetish umidi bor, namozni oxirgi vaqtiga surish vojib bo'ladimi?

**Javob:** Oxirgi vaqtiga surish vojib emas, balki ta'xir qilish mustaxabdur. Suv topsa tahorat qiladi bo'lmasa tayammum bilan o'qiydi.

**Savol:** Musofir yukni ichida suv borligini unutdi, uni o'zi yoki biror kishi yukiga joylagan edi, tayammum bilan namoz o'qidi, keyin suvi esiga tushdi. U odam namozni tahorat qilib boshqa o'qiydimi?

**Javob:** Bunday suratda imom A'zam va imomi Muhammad nazarlarila qaytib o'qimaydi. Ammo imomi Abu Yusuf o'qiydi debdilar.

**Savol:** Bir kishi safarda o'zi bilan suv yo'q, suv axtarishi vojibmi?

**Javob:** Yaqin joyda suv borligiga gumoni g'olib bo'lmasa axtarish vojib emas. Suv borligini gumon qilsa axtarmaguncha tayammum durust emas.

**Savol:** Do'stida suv bo'lsa tahorat uchun so'raydimi?

**Javob:** Suvni so'raydi. Agar pulga yoki bepul bersa olib tahorat qiladi. Agar bermasa tayammum bilan namoz o'qiydi.

**Savol:** Tayammumni nimalar sindiradi?

**Javob:** Tahoratni sindiradigan har narsa tayammumni ham sindiradi, agar tahoratni o'rniga tayammum qilgan bo'lsa, ammo junubni tayammumini g'uslga yetarli suvga qodir bo'lishi buzadi. Va har ikki suratda suvni topishi va ishlatishga qodir bo'lishi tayammumni buzadi.

## IKKI MASHIGA VA YARANI USTIGA BOYLANGAN NARSAGA MASH TORTISH

**Savol:** Tahoratda ikki oyoqni yuvishga badal bormi?

**Javob:** Oyoqlarni yuvish o'rniga ikki mashiga mash tortishlik juda ko'p sahih xadislarda sobit bo'ldi.

**Savol:** Mash tortishlikni joizligiga shart bormi?

**Javob:** Mashni tortishni joizligiga shart tahorat bilan kiymoqlikdir.

**Savol:** Mashga muddat bormi?

**Javob:** Ikki oyoqqa mashini tahorat bilan kiygan bo'lsa keyin tahoratni sindirsa joiz bo'ladi muqimga bir kecha va kunduzgacha mash tortmoqligi, musofirga esa uch kecha va kunduzgacha. Qachon tahorat qilsa mashini ustidan mash tortadi safarda va xazarda.

**Savol:** Bir kecha va kunduz yoki uch kecha va kunduzni hisobi mashi kiyilgan vaqtdanmi yoki tahorat singan vaqtdanmi?

**Javob:** Bu muddatni e'tibor qilinadi tahorat singan vaqtdan boshlab, Masalan zavoldan so'ng tahorat qildi va mashini kiydi va kun botish oldida tahoratni sindirdi. Bu odamga

mash tortmoqlik joiz bo'ladi ertagi kun, kun botguncha agar muqim bo'lsa. Musofirni shunga qiyos qiling.

**Savol:** G'usl vojib bo'lgan kishiga mashiga mash tortish durustmi?

**Javob:** Bunday odamga mashiga mash tortish mumkin emas. Balki boshqa a'zolari kabi oyog'ini yuvish farzdur.

**Savol:** Agar mashida teshiklar bo'lsa mash tortish joizmi?

**Javob:** Agar teshik katta bo'lsa oyoq panjalarini uchta kichigi ko'rinadigan bo'lsa mash tortib bo'lmaydi. Undan kichik bo'lsa durust.

**Savol:** Ana shunday teshik bitta mashidan olinadimi yoki ikkala mashidanmi?

**Javob:** Bitta mashidan teshiklari jamlanadi, ikkitaniki emas. Ya'ni teshik uchta panja ikki mashida bo'lsa mash tortish joiz. Agar shu miqdor bitta mashida bo'lsa mash tortish joiz emas.

**Savol:** Mashiga qanday mash tortiladi?

**Javob:** Ikki qo'lini panjalarini suvlab, so'ng hamma panjalarini oyog'ini ustiga qo'yib panjalarini poycha tomonga qarab tortadi, qo'lini uchta panjalari miqdorida xo'l chiziqlar paydo bo'lishi shart har ikkala mashida.

**Savol:** Bu mashni nima narsa buzadi?

**Javob:** Tahoratni buzgan narsalar mashni buzadi, va mashini yechmoqlik ham buzadi, vaqtni o'tishligi ham buzadi.

**Savol:** Mashni muddati tugasa yoki masni ochilsa yoki har ikki ish borobar voqe bo'lsa, tahoratni sindiradigan biror ish bo'lmasa nima qiladi?

**Javob:** Bu ikki suratda faqat oyog'larini yuvadi namozini o'qiydi, boshqa a'zolarini qaytib yuvmaydi.

**Savol:** Aytardingiz albatta muqim bir kecha kunduz, musofir uch kecha kunduzgacha mash tortadi. Nima deysiz bir odamni haqida musofir edi shahriga kelib qoldi, muqim musofir bo'ldi?

**Javob:** U odam safarda mash tortgan bo'lsa va shahriga kelsa bir kecha kunduz yoki ko'prok vaqt, Unga lozimdir mashini yechmoqligi, agar bir kecha kunduz o'tmagan bo'lsa, bir kecha kunduzgacha. Muqim kishi mash tortgandan so'ng xanuz bir kecha kunduz o'tmasdan safarga chiqsa u uch kecha kunduz mash tortadi.

**Savol:** Nima deysiz bir odamni haqida, mashini ustidan kigiz etik kiygan bo'lsa mash tortadimi?

**Javob:** Tahoratlik vaqtida kiygan bo'lsa mash tortishi mumkin.

**Savol:** Choriqqa mash tortsa bo'ladimi?

**Javob:** Choriqni ustiga mash tortsa durust emas, magar beti va tagiga charm qo'yilgan bo'lsa yoki kovush kabi ostiga poshna qo'yilgan bo'lsa imom A'zamda durust. Ammo imomi Abu Yusuf bilan imomi Muhammad aytdilar choriqqa mash durust yupqa bo'lmasligi va qattiq bo'lishi sharti bilan.

**Savol:** Mashidan boshqa narsaga mash tortishga nima deysiz?

**Javob:** Biror jarohat yoki singan a'zoni davolash uchun boylangan bint yoki lattani ustiga mash tortish mumkin, singan qo'l bilan yoki oyoq iligiga o'xshash.

**Savol:** Singan a'zo yoki jarohatni ustiga o'ralgan latta ustidan mash tortishga tahorat bilan boylangan bo'lishi shartmi?

**Javob:** Unday bo'lishi shart emas. Tahoratsiz boylab keyin, tahorat qilmoqchi bo'lsa mash tortish joiz.

**Savol:** Singan a'zoni ustiga yopishtirilgan bo'r (gips) tushib ketsa jarohat tuzalgan bo'lsa mash boqiy turadimi?

**Javob:** Bu suratda latta va gipsni mashi buziladi. Agar latta yoki gips tushib ketishdan ilgari tahorat qilgan bo'lsa keyin hojat qolmagani uchun yechib tashlab yuborsa, tahoratni buzadigan biror ish bo'lmagan bo'lsa lattani o'rnini yuvadi va namoz o'qiydi.

**Savol:** Salla do'ppi, kulox va qalpoq ustiga mash joizmi?

**Javob:** Bu narsalar ustiga mash joiz emas.

## HAYZ NIFOS VA ISTIHOZA

**Savol:** Hayz nima?

**Javob:** Alloh taolo Odam farzandlarida ayollar bachadonidan qon kelmog'ini yozgan. Har oyda ommal ayollarni bachadonidan shu qon keladi. Buni hayz deb ataladi. Buni aksini poklik deyilganidek.

**Savol:** Shariati g'arroda bularni hukmlari bormi?

**Javob:** Fiqh kitoblarda hukmlar bayon qilindi.

**Savol:** Ayollar hayz ko'rsa ularga qaysi hukm tegishlidir?

**Javob:** Beshta hukm tegishlidir.

1. Hayzdagi ayolga farz yoki nafl namoz yoki ro'za mumkin emas.
2. Masjid yoki baytullohga kirish man etiladi.

3. Qur'on o'qish mumkin emas.
4. G'ilofsiz qur'onni ushlab mumkin emas.
5. Eri bilan yaqinlik mumkin emas.

**Savol:** Hayzdan forig' bo'lgan xotin favt bo'lgan namoz va ro'zasini qazo qiladimi?

**Javob:** Namozlarni qazosi aslo o'qilmaydi u kechirilgan. Ammo ramazon oyidagi ro'zasini qazosini tutadi.

**Savol:** Hayzni oz yoki ko'p muddati bormi?

**Javob:** Hayzni ozi uch kecha va kunduzdir. Ko'pi o'n kecha kunduz.

**Savol:** Hayz qonini maxsus rangi bormi?

**Javob:** Har bir suyuqlikni uni hayzlik ayol ko'rar edi, qizillik, sarig'lik, ko'klik, hayz kunlarida u hayzdir, to oqlik ko'ringuncha.

**Savol:** Qachonki hayz qoni to'xtasa va oqlikni ko'rsa qachon vati qilmoqlik durust bo'ladi?

**Javob:** Hayz qoni uch kundan oz muddatda to'xtasa vati qilmoqlik durust bo'lmaydi xatto g'usl qilmaguncha yoki bir namozni o'qishni vaqti to'la o'tmaguncha. Ammo o'n kun muddatda to'xtasa g'usl qilmasdan ilgari yaqinlik qilsa bo'ladi.

**Savol:** Hayz muddati ichida poklik oralab qolsa, u poklikmi yoki hayzdanmi?

**Javob:** Hayz muddati ichida oralagan poklik hayzdan hisob qilinadi, unga hayz hukmlari yurgiziladi.

**Savol:** Poklikni ham oz yo ko'p muddati bormi?

**Javob:** Poklikni eng oz muddati o'n besh kundir. (Buning ma'nosi hayz qoni o'n kunda to'xtasa oradan o'n besh kun o'tmasdan yana qon ko'rsa bu hayz emas), chunki poklikni muddati hanuz tamom bo'lgani yo'q. Poklikni ko'pgina muddati yo'q. (Agar uni pokligi bir necha yilga cho'zilsa, hayz ko'rmasa abadiy pok bo'ladi hayz ko'rguncha)

**Savol:** Nifos nimadir?

**Javob:** Nifos qoni bola tug'ilgandan so'ng ayollar bachadonidan keladigan qondir.

**Savol:** Uning muddati qancha?

**Javob:** Ko'pi qirq kun oziga muddat yo'q.

**Savol:** Nifosdagi ayollarga nima hukmlar bor?

**Javob:** Uning hukmi hayzni hukmidir, namoz o'qish, ro'za tutish, qur'on o'qish,

masjidga kirish tavofi baytulloh qilish, g'ilofsiz musxafni ushlab man etiladi. Hayz hukmida aytganimizdek ro'zani qazosini tutadi namozni qazosini o'qimaydi.

**Savol:** Egizak bola tug'ilsa nifosni qaysi boladan hisob qilinadi?

**Javob:** Imom A'zam va imomi Abu Yusuf birinchi boladan hisob qilinadi. Imomi Muhammad va imom Zufar ikkinchi boladan hisob dedilar roxima humulloh.

**Savol:** Ayollarni qornini yorib bolani olinsa ayol nifoslikka aylanadimi?

**Javob:** Qon odatdagi yo'ldan kelsa nifos hisob qilinadi va nifos hukmlari yurgiziladi. Agar bachadondan qon kelmasa boshqa jarohatlar kabi jaroxat hisob qilinadi.

**Savol:** Bola odatdagicha tug'ilsa, qon kelmasa shu bola sababli nifosga kiradimi?

**Javob:** Ha u ayol nifoslikka aylanadi va g'usl vojib bo'ladi. To'xtamasdan namoz va ro'zani ado qiladi.

**Savol:** Ayollar chala tuqqanda nifosga kiradimi?

**Javob:** Agar bolani ba'zi a'zolari bilingan bo'lsa nifosga hisob qilinadi. Masalan: qo'li oyog'i yoki panjasi yo sochlari. Agar a'zolari bilinmagan bo'lsa ba'zi a'zodan oqqan qonga o'xshaydi. U qon uch kecha kunduz davom etsa, undan muqaddam to'la poklik bo'lgan bo'lsa u hayz qonidir va illo bekorchi qon (istihoz qonidir).

**Savol:** Nifos kunlarida qon kelmay oralab qolgan poklik nima?

**Javob:** Qirq kun nifos muddati ichida bo'lgan poklik nifosdir.

**Savol:** Istixoza nimadir?

**Javob:** U bir necha turli bo'ladi.

1. Qon kelsa va uch kun muddatdan oz vaqtda to'xtasa istihozadir (bekorchi qon).
2. Odatdan ortib ketsa va o'n kundan ham ortib ketsa hammasi istihozadir (Odatdan tashqarigisi).
3. Birinchi marta qon ko'rsa, davom etib o'n kundan ham ortib ketsa, o'n kuni hayzdan hisob qilinadi ortig'i istihozadir. Agar shu qon birinchi hayz ko'rguvchidan yillar davom etsa ham u xotinni hayzi har oydan o'n kun hayzdur va boqiy istihozadir.
4. Xomilador ayolni ko'rgan qoni istihozadir.
5. Xomilador ayol tug'ish oldida xanuz bola tug'ilmay turib ko'rgan qoni istihozadir.
6. Ayol uchun nifos ko'rishda odati bo'lsa, qon qirq kundan oshib ketsa odatda ortgani hammasi istihozadir.
7. Birinchi marta bola tug'sa qon davom etib qirq kundan oshib ketsa qirq kundan oshig'i istihozadir.
8. Bola chala tug'ilsa, uni biror a'zosi bilinmasa uni hayz deb ham bo'lmasa u istihozadir.

**Savol:** Istihozani hukmi nimadur?

**Javob:** U poklik kabidir, qur'on o'qishda, masjidga kirishda, farz va nafl ro'za tutishda, er xotinlikda. Lekin qoni doim oqib tursa uzrliklar hukmidadir. Har bir namoz uchun tahorat qiladi xohlaganicha farz va nafl o'qiydi, namoz vaqtini chiqishi uni tahoratini buzadi. Har vaqtiki tahorat, namoz o'qishi baytullohni tavof qilishi va qur'onni ushlashi mumkin.

## UZRLIKLAR HUKMI

**Savol:** Burnidan doim qon oqib turgan kishi, yarasi bitmay qon oqib turgan, doim siydik tomib turgan yoki xamisha yel chiqib turgan kishilar nima qiladi?

**Javob:** Shularni hammasi har bir namoz uchun yangi tahorat qiladilar va shu tahorat bilan xohlaganicha farz va nafl o'qiydilar. Ularni tahoratlari vaqt chiqquncha sinmaydi, bu doimiy kasalliklari bilan. Vaqt chiqsa tahoratlari buziladi.

**Savol:** Shu tahoratlik vaqtlarida o'zini doimiy kasalligidan boshqa betahoratlik paydo bo'lsa u odamni tahorati shu narsa bilan sinadimi?

**Javob:** Ha sinadi. Ham chunoniyki bir odamni burnidai doim qon oqar edi, tahoratdan so'ng siydi shu bilan uning tahorati sindi. Vaqt oxirgacha tahoratsiz bo'ldi. Fahmlang.

## NAJOSATLAR VA ULARNI POKLAMOQLIK

**Savol:** Aniq najaslar va ularning navlari nimalardur?

**Javob:** Najosatlar ikki xil bo'ladi. Og'ir va yengil. Bas og'ir najosatlar, har bir narsa inson badanidan chiqsa va u chiqishi bilan tahorat qilish yoki g'usl qilish vojib, axlat, siydik, mani, mazi, vadiy, yiring, zardob og'zini to'ldirib qusish, hayz, nifos, istihoz, yosh o'g'il bola, qiz bolani siydigi xoh ovqat yesin yoki yemasin, aroq, so'yilganda chiqqan qon, xarom o'lgan hayvonni go'shti, yog'i va terisi va har bir go'shti yeyilmaydigan hayvonni siydigi, molni tezagi, itni axlati, o'rdak, tovuqni tezagi va g'ozni tezagi, har bir yirtqich hayvonni tezagi, to'ng'izni barcha a'zolari og'ir najosotdir. Va ammo yengil najosatlar, har bir go'shti yeyiladigan hayvonni siydigi, otni siydigi, yirtqich parrandalarni tezagi.

**Savol:** Og'ir va yengil najoslarni farqi nima bilan bilinadi?

**Javob:** Namoz o'qishlikni joizligida farq zohir bo'ladi. Namoz o'quvchini to'niga yo badaniga og'ir najosat bir tanga miqdorida tegsa yoki ozroq namoz o'qish durust lekin makruh. Agar yengil najos tegsa bir to'nni to'rtdan biridan oziga namoz o'qish mumkin. Agar najosat g'aliza tanga miqdoridan oshsa yoki najosati xafifa to'nni to'rtdan biriga tegsa namoz joiz emas.

**Savol:** Agar najos kiyim yoki badanga tegsa uni tozalash yo'li qanday?



**Javob:** Najosat ko'zga ko'rinadigan bo'lsa, kiyim yoki badanni undan tozalash yo'li pokiza suv yoki boshqa toza suyuqliklar bilan najosni zotini ketkazishlikdir. Sirka va gulobga o'xshash. Agar najas ko'zga ko'rinmaydigan bo'lsa, siydik va harom suvlarga o'xshash, uni ko'ngil taskin topguncha yuvish bilan pok qilinadi.

**Savol:** Agar ko'zga ko'rinadigan najasni zoti ketkazilsa, ammo asari boqiy qolsa nima bo'ladi.

**Javob:** Najosatni o'zini ketkazilsa hidi yoki rangi boqiy qolsa uni ketkazish suv bilan qiyin bo'lsa zarari yo'q.

**Savol:** Najosatni poklashni bundan boshqa yo'li ham bormi?

**Javob:** Bunda fuqaholar aytgan batafsil masalalar bor. Ulardan ayrimlarini sizga yetkazamiz.

1. Najas mashiga tegsa u jussalik bo'lib qurigan bo'lsa, yerga ishqalasa va najas ketsa namoz mumkin.
2. Kiyimga maniy tegsa xo'l bo'lsa yuvmaguncha toza bo'lmaydi, magar qurigan bo'lib siydik aralashmagan bo'lsa uni uqalab chertish bilan pok bo'ladi.
3. Oyna yoki qilichga najas tegsa uni artish bilan pok bo'ladi.
4. Yerga najas tegsa va qurib asari ketsa o'sha joyda namoz o'qish mumkin, lekin shu yerga tayammum joiz emas. Agar yerni yuvilsa va najas ketsa tayammum joiz.
5. Agar xom terini oshlansa u pok bo'ldi uni ustida namoz o'qish joiz. Xuddi shunday o'sha teridan ishlangan idishda suv olib tahorat qilish mumkin. To'ng'izni terisi abadiy pok bo'lmaydi. Insonni terisini hurmat yuzasidan ishlatib bo'lmaydi.

## ISTINJO

**Savol:** Istinjoni hukmi nima?

**Javob:** U sunnatdir, tosh, kesak va har bir ularni o'rnida o'tuvchi narsalar bilan joizdir. Avrat joyni artiladi toza bo'lguncha. Toq ishlatmoqlik afzaldir. Agar najas atrofiga tarqasa, kesak tosh bilan artish kifoya qilmaydi. Suv ishlatmoqlik vojib bo'ladi.

**Savol:** Nima narsalar bilan istinjo durust bo'lmaydi?

**Javob:** O'ng qo'l bilan, suyak, tezak, ovqat va hurmatli narsalar bilan istinjo mumkin emas.

**Savol:** Nima deysiz hojat uchun o'tirganda sahro yoki yopiq binolarda qiblaga qarab yoki orqasini qiblaga qilib o'tirish to'g'risida?

**Javob:** Qiblaga qarab yoki orqasini qilib o'tirish makruhdur, xoh sahroda bo'lsin yoki binoda.

**Savol:** Qanday joylarga siyish yoki g'oit qilish man etiladi?

**Javob:** Suvga, suv olib ichiladigan yerlarga, mevalik daraxtlar ostiga, odamlar soyasidan foydalanadigan joylarga, odamlarni yo'llariga, shamol esadigan tarafga qarab siyish, yerdagi kovaklarga va tik turib siyish man etiladi. Yuqoridagi joylarga g'oit qilish ham man etiladi.

## NAMOZ KITOBI

**Savol:** Islomda namozni hukmi nimadir?

**Javob:** "Ashxadu alla ilaha illoh va ashxadu anna Muhammadur rosululoh" deb guvohlik berilgandan so'ng eng ulug' rukndir. Bu Islomni ustuni Qur'oni Karimda Alloh ta'olo uni o'qishga buyurdi necha marta takror takror. Har bir balog'atga yetgan erkagu ayol aqli bo'lsa unga farzdir.

Kim uni farzligiga inkor qilsa Islom millatidan chiqadi.

**Savol:** Bolalarni namozga qachon buyuriladi?

**Javob:** Aytdilar payg'ambar alayhissalom: Buyuringlar bolalaringizni namozga ular yetti yoshga kirganda, ular o'n yoshga kirganda o'qimasa uringlar, bolalar o'n yoshga kirganda o'rinlarini boshqa-boshqa qilinglar. Bir rivoyatda yosh bolaga namozni o'rgatinglar yetti yoshda, o'n yoshida namoz uchun uringlar. Otalarga vojib shuki bolalarni namozga qayta-qayta buyurmoqliklaridir. Alloh ta'olo aytdi: Buyuring ahlu ayolingizni namozga va doim sabrda bo'ling.

## NAMOZ VAQTLARI, AVVALI, OXIRI VA MUSTAHAB VAQTLARI

**Savol:** Bir kecha kunduzda necha mahal namoz farzdir?

**Javob:** Bir kecha kunduzda besh vaqtda besh mahal namoz o'qimoqlik farzdir. Har bir vaqt uchun boshlanish va oxiri bordir.

**Savol:** Besh vaqt namoz vaqtlarini avval va oxiri qaysilardir?

**Javob:**

1. Birinchi peshin namozini vaqti, boshlanishi kun qiyomdan og'gandan boshlab, har bir narsani soyasi o'ziga ikki barobar bo'lguncha qiyomdagi soyasi aslidan tashqari. Bu imomi A'zam rahmatullohi alayh nazdilarida, imomi Abu Yusuf va imom Muhammad rahimaxumollohu nazdilarida esa soyasi aslidan tashqari har bir narsani soyasi bir barobar bo'lguncha.
2. Ikkinchi asir namozini vaqti yuqoridagi xilof bilan peshinni vaqti chiqqandan boshlab kun botguncha.
3. Uchinchi shom namozini vaqti avvali kun botgandan boshlab, oxiri shafaq g'oib bo'lguncha.
4. To'rtinchi Xufton nomozini vaqti, avvalgi vaqti shafaq g'oyib bo'lgandan boshlab oxiri tong otguncha.
5. Beshinchi Bomdod nomozini vaqti, avvalgi ikkinchi tong otgandan boshlab oftob chiqquncha.

**Savol:** Shafaq nimadir?

**Javob:** Kun botgandan so'ng g'arb tomonga qarang. Ufqda quyosh ortidan qizillik ko'rasiz u qizillikni osmonda turishi qirq daqiqadan ortiqroq davom etadi. Ana shu qizillik asta sekin kamayib boradi, agar u qizillik ketsa uni ketidan ufqda oqlik ergashadi. Ana shu qizillik va undan keyingi oqlik mutloq shafaq deb aytiladi. Abu Hanifa rahmatullohi alayh aytdilar: shafaq u oqlikdir. Agar oqlik ketsa shomni vaqti chiqdi va xuftonni vaqti kirdi. U kishining ikki shogirdlari imom Abu Yusuf va imom Muhammad aytdilar shafaq u qizillikdir. Vaqtiki qizillik g'oyb bo'lsa shomni vaqti chiqdi va xuftonni vaqti kirdi.

**Savol:** Ikkinchi tong nima?

**Javob:** Qachon kechani ketishi yaqinlashsa sharqiy ufqda yorug'lik ko'rasiz, uzunligi ustunga o'xshash ana shu birinchi tong, yolg'on tong, uzun tongdir keyin qorong'ulik paydo bo'ladi, undan so'ng ufqda ravshan yorug'lik atrofga tarqovchi nur paydo bo'ladi, u asta sekin kattalashib boradi. Ana shu yorug'lik ikkinchi tongdir. U subhi sodiqdir. Uni olamni yorituvchi olamga tarqaluvchi yorug'lik deyiladi.

**Savol:** Har qaysi besh vaqt namozni farzlarini rakatlarini aytib bering?

**Javob:** Peshin, asr va xuftonni farzlari to'rt va shom uch va bomdod ikki raakatdir.

**Savol:** Shu aytilgan namozlardan boshqa ham namoz bormi?

**Javob:** Aytilgandan boshqa shariatda tayin qilinga namozlar bor, lekin ular farz emas. Ulardan biri vitr, u vojibdir. Farz va vojibdan tashqari sunnatlar ularni fazilati hadis sharifda vorid bo'lgandir. Inshoolloh ularni zikr qilamiz.

**Savol:** Vitr namozini vaqti qaysi?

**Javob:** Vitrni vaqti xuddi xuftonni vaqtidir. Magar vitrni xuftonni farzidan ilgari o'qib bo'lmaydi, o'rtada tartib vojib bo'lgani uchun. Vitrni oxirgi vaqti ikkinchi tong otguncha.

**Savol:** Namozlarni vaqtlarida ba'zidan ba'zisini afzalliklari bormi?

**Javob:** Uni kengaytirib aytamiz u quyidagicha:

1. Bomdod namozini mustahab vaqti sharq tomonni yaxshi yorishishidadir. U shunday, sunnatga muvofiq qiroat bilan o'qishi va tugatishi va namozni tugatganda Imomni tahorati nuqsonlik bo'lsa yana sunnatga muvofiq qaytarib namozni tahorat bilan tugatsa kun chiqib qolmagudek bo'lsa.
2. Peshin namozini yozda biroz salqin tushirib va qishda esa tezroq o'qimoq mustahabdur.
3. Asr namozini yozda va qishda quyosh tag'yir topmagundek ya'ni oftobga qaraganimizda ko'zni olmagudek holatga yetkazmaslik.
4. Shomni yozu-qishda tezroq o'qimoqlik mustahab.
5. Xuftonni kechani uchdan biriga olib borib o'qish yaxshi. Bu umumiy ahvolda va ommaviy kunlarda, ammo havo berk bo'lsa, asr bilan xuftonni tezroq o'qimoqlik va ikkalasidan boshqa namozlarni kechroq o'qimoqlik mustahabdur.
6. Kechasida uyg'onishga ishonchi bo'lgan kishilar vitrni kechani oxiriga olib borib

o'qishlari yaxshi. Ammo ikkinchi tongdan ilgari uyg'onishga ishonchi bo'lmagan odamlar uyqudan ilgari vitrni o'qiydilar.

## MAKRUH VAOTLAR

**Savol:** Kecha va kunduz namoz o'qiguvchi kishiki namoz o'qishdan man etilgan vaqt bormi?

**Javob:** Uch vaqtda namoz o'qish man etiladi.

1. Quyosh chiqishi oldida.
2. Quyosh botishi oldida.
3. Kun qiyomga kelgan vaqtda, shu vaqtlarda namoz farz sunnat va naflar o'qilmaydi. Janoza va sajdai tilovat ham mumkin emas.

**Savol:** Mana shu vaqtda umumiy hukmdan chiqarilgan biror namoz bormi?

**Javob:** Ha bu vaqtda bir namozni ado qilish joizdir makruh bo'lsa ham. Bir odam shu kunni asr namozini o'qimagan bo'lsa, makruh vaqt deb tark kilmaydi. Kech qolgani uchun Allohga istig'for aytadi. Bundan boshqa qaysi namoz bo'lmasin ushbu vaqtda ado qilib bo'lmaydi.

**Savol:** Shundan boshqa vaqtlarda ham namoz o'qish makruh bo'lgan vaqt bormi?

**Javob:** Ikki vaqtda nafl namoz o'qish makruh.

1. Namozni bomdoddan so'ng kun nayza bo'yi ko'tarilguncha.
2. Asr namozidan so'ng kun botguncha.

**Savol:** Ka'bai musharrafni tavof qilsa bomdod namozidan yoki asr namozidan so'ng tavofni ikki rakat naflni o'qiydimi?

**Javob:** Ikki vaqtda o'qimaydi balki kunni chiqib ko'tarilishini kutadi. Va kunni botishini kutadi asrdan so'ng.

**Savol:** Bomdoddan so'ng yoki asrdan so'ng qazo namozini o'qimoqchi bo'lsa joizmi?

**Javob:** Ha joiz ammo asrdan keyin bo'lsa quyosh sarg'aymasdan namozni tugatadi.

**Savol:** Agar shu ikki vaqtda janoza yoki sajdai tilovatni qilmoqchi bo'lsa mumkinmi?

**Javob:** Ha bu joizdir.

**Savol:** Tongdan so'ng bomdodni o'qiguncha nafl o'qilsa bo'ladimi?

**Javob:** Bomdodni sunnatidan boshqa nafl makruhdur.

**Savol:** Kun botgandan so'ng shomni o'qishdan avval naflga nima deysiz?

**Javob:** Kun botgandan so'ng nafl o'qimaydi, balki shomni tezroq o'qiydi.

## AZON VA IQOMAT

**Savol:** Shariat g'arroda azonni hukmi nima?

**Javob:** Azon besh vaqt namoz uchun sunnati muakkadadur va jumaga, boshqa namozlarga emas. Ikki hayit namoziga, sunnatlarga va naflarga istisqo va kusufga sunnat emas.

**Savol:** Azon so'zlari nimalardur?

**Javob:** Azon so'zlarini o'qiyimiz eshiting.

Allohu akbar, Allohu akbar,  
Allohu akbar, Allohu akbar,  
Ashhadu alla ilaha illalloh,  
Ashhadu alla ilaha illalloh,  
Ashhadu anna Muhammadar rosululloh,  
Ashhadu anna Muhammadar rosululloh,  
Hayya 'alas-solah, Hayya 'alas-solah,  
Hayya 'alal falah, Hayya 'alal falah,  
Allohu akbar, Allohu akbar  
La ilaha illalloh.

**Savol:** Biror vaqt namozni azonda biror qo'shimcha qilinadimi?

**Javob:** Bomdod namozini azonida "Hayya 'alal falah" dan so'ng ikki marta «Assolatu xoyrum min an-navm»ni aytiladi.

**Savol:** Azonda tarji' (past baland) aytish bormi?

**Javob:** Xanafiylar mazhabida azonda tarji' yo'q.

**Savol:** Iqomat so'zlarini va mahalini bayon qiling?

**Javob:** Odamlar jamoat namoziga tursalar, muazzin azon so'zlarini qaytaradi va xayya a'alal falahdan so'ng «Qod qomatis solah»ni ikki marta aytadi. Masjidda hozirlar eshitadilar mana shu iqomatdur.

**Savol:** Azon bilan iqomat o'rtasida aytishda farq bormi?

**Javob:** Azonni shoshilmay aytadi, iqomatni tezroq aytadi.

**Savol:** Azonda qiblaga qarash nima?

**Javob:** Har ikkalasini qiblaga qarab aytiladi. Bu payg'ambarimiz alayhissolomdan shu kungacha qolgan asardur.

**Savol:** Azonda ba'zi so'zni aytganda yuzini aylantiradimi?

**Javob:** Muazzin uchun mustahabdur xayya a'lassolah deganda yuzini o'ngga, xayya a'lallah deganda chapga burmoqligi.

**Savol:** Azonda panjani qulog'i ichiga kirgizmoqlik nimadir?

**Javob:** U azonda sunnatdir Payg'ambarimiz buyurdilar Bilol raziyallohu anxuga va aytdilar bu ovozingni ko'taradiganroqdur.

**Savol:** Qazo bo'lgan namozlarda azon va iqomatni hukmi nima?

**Javob:** Favt bo'lgan namozlar uchun azon va iqomat aytiladi. Agar bu bir necha namoz favt bo'lgan bo'lsa va ularni bir vaqtda o'qimoqchi bo'lsa birinchisiga azon va iqomat aytiladi, qolganlariga xohlasa azon aytadi yoki iqomatni o'zi kifoya.

**Savol:** Tahoratsiz odam azon va iqomat aytadimi?

**Javob:** Loyiq shuki azon va iqomatni tahorat bilan aytsin, agar betahorat azon aytsa joiz, lekin betahorat iqomat makruh, shunga o'xshash azonni junublikda aytmoq makruh

**Savol:** Azonni yoki iqomatni junublikda aytsa nima bo'ladi?

**Javob:** Azonni qaytib aytiladi, iqomatni qaytib aytilmaydi.

**Savol:** Yosh bolani azonni joizmi kifoya qiladimi?

**Javob:** Yosh bolani azoni joiz aqli bo'lsa, yaxshi yomonni ajratsa uni azoni qaytib aytilmaydi.

**Savol:** Namoz vaqti kirmasdan aytilgan azonni hukmi nima bo'ladi.

**Javob:** bu joiz emas, agar shunday bo'lsa qaytib aytiladi. Magar imom Abu Yusuf hazratlari bomdod namozni vaqti kirmay aytilsa joiz debdurlar.

## **NAMOZNING SHARTLARI**

**Savol:** Namozga lozim bo'lgan zarur shartlari nimalardan iborat?

**Javob:** Namoz o'quvchiga lozimdir.

1. Ikki betahoratlikdan pok bo'lmog'i namozni avvalidan oxirigacha.
2. Jasadi najaslardan pok bo'lmog'i.
3. Namoz o'qiydurg'on joyi pok bo'lmog'i.
4. Pokiza kiyim kiyimoqligi u bilan avratni yopmoqligi, avrati ochiq bo'lsa namoz durust emas, iflos kiyim bilan namoz mumkin bo'lmagandek.
5. Har qaysi namozni vaqt kirmoqligi, vaqtdan ilgari namoz durust emas.
6. Qiblaga qaramoqligi.
7. Namozga kirmoqligi niyat bilan, takbirk tahrira bilan niyatni orasini uzmasdan. Qaysi

namozni o'qiyotganligini qalbiga joylab va shu bilan iqtido qilguchiga lozim imomga iqtido qilganini qasd qilmoqligi.

**Savol:** Bir odam toza kiyim topmasa, poklash uchun bo'lsa nima qiladi?

**Javob:** Shu nopok kiyim bilan o'qiydi, mana shu namozi durust uni keyin qaytarib o'qimaydi.

**Savol:** Bir odam avratini yopguday narsa topmadi u qanday namoz o'qiydi?

**Javob:** Agar tik turib Ruku va sajda qilib o'qisa joiz lekin afzali o'tirib, Ruku va sajdani imo-ishora qilib ado etsin. Har suratda odamlarni ko'zidan berkinib o'qiydi.

**Savol:** Namoz durust bo'lishi uchun erkaklar qaysi joylarini berkitmokliklari zarur?

**Javob:** Erkaklarni avrati kindigini ostidan tizzasini ostigacha, tizza avratdir kindik avrat emas.

**Savol:** Ayollarni avrati qaysidir?

**Javob:** Ayol kishi agar ozod bo'lsa namoz uchun barcha badani avratdir, magar yuzi ikki kafti va ikki qadami (bu namoz joiz bo'lish uchun yuzini ochmoqlik durust emas mahram bo'lmagan kishi oldida). Erkaklardan avrat bo'lgan joy cho'rilardan ham avratdir va ziyoda qilinadi, beli va qorni undan boshqa yeri avrat emas.

**Savol:** Qiblaga qarashga qodir bo'lmagan kishi qo'rqqanligidan biror narsadan nima qiladi?

**Javob:** Qaysi tarafga imkoni bo'lsa o'sha tarafga o'qiydi.

**Savol:** Namoz o'quvchiga qibla noma'lum bo'lsa, so'rash uchun biladigan kishi ham bo'lmasa nima qiladi?

**Javob:** Bilishga harakat qiladi agar bilmasa bir tomonni qasd qilib shu tomon qibla deb namozni ado qiladi.

**Savol:** Bir tomonni qibla deb qasd qilib o'qisa so'ng qibla boshqa tomon ekanligi ma'lum bo'lsa qaytib o'qiydimi?

**Javob:** Yo'q qaytib o'qimaydi.

**Savol:** Namoz o'qib turgan holda qiblani xato qilganini bilsa nima qiladi?

**Javob:** Namoz o'qib turgan holda aniqlangan qibla tarafiga aylanib oladi.  
Foyda: Namoz o'qiguvchi masjidul xaramda bo'lsa, xuddi ka'baga qarab turmoqligi shart. Ammo masjidul xaramdan g'oib bo'lgan kishini qiblasini ka'ba tarafdur. Agarchi Makkada bo'lsa ham.

## NAMOZNING FARZLARI

**Savol:** Namozning farzlari qaysilar?

**Javob:** Farzlari oltitadur:

1. Takbiri taxriyma.
2. Qiyom
3. Qiroat bir oyat bo'lsa ham
4. Ruku
5. Sajda
6. Attatixiyot miqdoricha oxirgi o'tirish.

**Savol:** Farzlarni hukmi nima?

**Javob:** Har bir farzni ado qilish lozim. Qasddan yoki bilmay biror farzni qoldirsa namozi bekor. Uni qaytib o'qishi lozim. Tarki farzlar sajdai saxv bilan tuzalmaydi.

## NAMOZNING VOJIBLARI

**Savol:** Namozning vojiblarini bayon qiling?

**Javob:** Ular quyidagicha:

1. Qiroat qilmoqlik sura fotihani.
2. Zammi sura yoki uch oyat o'qimoq.
3. Fotiha surasini zammi suradan avval o'qimoq.
4. Farz namozda avvalgi ikki rakatga qiroatni tayin qilmoq.
5. Ruknlarda xotirjam turmoq.
6. Qa'dai ulo.
7. Ikki qa'dada tashahhud o'qimoq.
8. Namozni tamom qilishda salomni aytmoq.
9. Vitrda qunut o'qimoq.
10. Ikki xayit namozida qo'shimcha takbirlar aytmoq.
11. Imom bomdodda, jumada, ikki xayit namozida, tarovix va vitrda ramazonda xufton bilan shomni ikki rakatida qiroatni jahriy qilmoq.
12. Imom peshin, asr, shomni, xuftonni keyingi rakatlarida qiroatni ichida o'qimoq.

**Savol:** Vojiblarni hukmi nima?

**Javob:** Qaysi vojibni qasddan tark qilsa u qaytib o'qimoq vojib bo'ladi. Qaysi bir vojibni esida yo'q tark qilsa sajdai saxv bilan tuzaladi.

## NAMOZNI SUNNATLARI

**Savol:** Namozni sunnatlari nima?

**Javob:** Quyidagilarni yodda tuting.

1. Takbiri taxrima uchun ikki qo'lni ko'tarmoq ikki quloq barobariga erkaklar, ikki ko'krak



- barobariga ayollar, keyin erkaklar o'ng qo'lini chap qo'lini ustiga boylab kindik ostiga qo'ymoqlilari.
2. Sano o'qimoqlik.
  3. A'uzu aytmoq.
  4. Bismillah aytmoq.
  5. Omin demoq.
  6. "Sami'-allohu liman hamidah" demoq.
  7. "Rabbano lakal hamd" demoq.
  8. Ruku da, sajdada tasbih aytmoq.
  10. Ruku da panjalarini ochib tizzasini mahkam ushlamoq.
  11. Chap oyog'ini yozmoqligi va unga o'tirib o'ng oyog'ini tik tutmoq, ikki qa'dada va ikki sajda o'rtasida.
  12. Attaxiyotuda panjasi birla ishora qilmoq.
  13. O'tirganda ikki qo'lini ikki soniga qo'ymoq.
  - 14 Farz namozlarida 3—4 rakatlarda qiroat qilmoq, ammo farzdan boshqa namozlarda hamma rakatlarda qiroat vojibdur.
  15. Imom takbir, tasmi' va salomni oshkora aytmoqligi.
  16. Keyingi tashaxxudda payg'ambarimizga salovat aytmoqlik.
  17. Namoz oxirida qur'on va hadisga muvofiq duo qilmoq.
  18. Salom berganda o'ng va chapgga qaramoq.
  19. Har ikki salomda imom yonidagi kishilarni, farishtalarni, soliq jinlarni niyat qilmoqligi.
  20. Imomni orqasida turib iqtido qilgan odam har ikki salomda Imomni niyat qilmoqligi.
  21. Muqtadiy ma'mumlarni, farishtalarni solix jinlarni har ikki salomda niyat qilmog'i.
  22. Tanho o'qiguvchi kishi har ikki salomda faqat farishtarni niyat qilmog'i sunnatdir.

## NAMOZNING ODOBLARI

**Savol:** Namozning odoblari nima?

**Javob:** Ular quyidagilardan iborat.

1. Takbir aytganda erkak kishi ikki qo'lini yengidan chiqarmog'i.
2. Qiyomda turganda sajdagohga qarab turmog'i, rukuda oyog'ini uchiga qarab turmog'i, sajda qilganda burniga, o'tirganda ko'kragiga, salom berganda yelkasiga qarab turadi.
3. Mumkin qadar yo'talni qaytaradi.
4. Esnaganda og'zini berkitadi.

## NAMOZNI QANDAY ADO QILMOQLIK, TAHRIMADAN SALOMGACHA

**Savol:** Namozni avvalidan oxirigacha bayon qilib bering?

**Javob:** Qachon namozni boshlashni xohlasa tik turgan holda cho'zmasdan takbir aytadi, ikki qo'lini qulog'igacha ko'tarib, o'ng qo'lini chap qo'lini ustiga bog'lab kindigini ostiga qo'yadi, keyin sano o'qiydi, aytadi: "Subxonakallohummava bixamdika vatabaro kasmuka va taolo jadduka vala iloxa g'ayruk", keyin a'uzu keyin bismillah aytadi va har uchalasini ichida aytadi. Iqtido qilgan kishi a'uzu bismillah aytmaydi. Chunki u qiroat qilmaydi. Alhamdu o'qiydi va oxirida omin deydi ichida. Agarchi jaxriya namoz bo'lsa

ham, so'ng bir sura yoki uch oyat o'qiydi. Xohlagan yeridan. Qiroatdan forig' bo'lsa Ruku uchun engashib takbir aytadi, qo'llarini ko'tarmasdan, panjalarini orasini ochib tizzasini ushlaydi. Oyoqlarini tik qiladi. Belini yozadi to'g'ri qilib ojizona. Boshini past yoki ko'tarmaydi va Ruku da uch marta "subxona robbiyal azim" deydi va bu eng ozidir, keyin Ruku dan boshini ko'taradi "samiallohu liman hamidax" degan holda va tanho o'qiguvchi bo'lsa "robbana lakal hamd" ni ham aytadi. Ammo imom tasmi'ga, muqtdiy taxmidga iktifo qiladi, tik turadi, keyin takbir aytadi sajdaga yiqilish uchun, bas sajda qildi ikki tizzasini keyin ikki qo'lini, keyin yuzini ikki kaftini orasiga qo'yib, qo'l panjalarini jamlab qiblaga qaragan holda. Burni va peshonasi bilan sajda qiladi. Ikki chig'anog'ini yoniga chiqarib. Qorni bilan sonini orasini ochib, oyoqlarini atrofini qiblaga qaratib va tasbih aytadi uch marta "subxona rabbiyal a'la" deb, bu eng ozidir, keyin boshini ko'taradi takbir aytgan holda xotirjam o'tiradi, qo'llarini sonlariga yozgan holda, takbir aytadi va ikkinchi bor sajda qiladi. Xotirjam uch marta tasbih aytadi, keyin turmoqlik uchun takbir aytadi qo'llari bilan yerga tayanmagan holda va o'tirmasdan, avval boshini keyin ikki qo'lini keyin ikki tizzasini ko'tarib ikkinchi rakatga turadi, ikkinchi rakat ham birinchiga o'xshash magar bunda qo'lini ko'tarmaydi, sano taavvuz aytmaydi. Qachonki ikkinchi rakatni ikki sajdasiidan forig' bo'lsa, chap oyog'ini yozadi va uni ustiga o'tiradi, o'ng oyog'ini panjalarini qiblaga qaratib tik qiladi, o'ng qo'lini o'ng sonini ustiga chap qo'lini chap soninn ustiga qo'yadi, panjalarini sonlarini ustiga yozgan holda, ibn Mas'ud roziyallohu anhu tashaxxudlarini o'qiydi: "Attatiyatu lillahi vassalovatu vattoyibat assalomu alayka ayuxannabiyyu va raxmatullohi va barakatuxu assalomu alayna va ala ibodillahissolixin ashxadu anla ilaxa illallohu va ashxadu anna Muhammaddan abduhu va rosulux" Va shaxodatda o'ng ko'rsatgich barmog'i bilan ishora qiladi, o'rta bilan bob barmog'ini xalqa qiladi sinchloq bilan yonidagi panjani yumadi va ko'rsatkich barmoqni ko'taradi. Agar ikki rakatni ado qilmoqni niyat qilgan bo'lsa payg'ambar alayhisalomga salovot aytadi tashaxuddan so'ng qur'on yoki xadisga muvofiq duo qiladi. Odamlarni gaplariga o'xshamasligi kerak keyin ikki marta salom beradi, aytadi. "Assalomu alaykum va raxmatulloh" deb o'ng tomonga va chap tomonga hatto yuzini oqligi orqadan ko'ringuncha yelkasiga qaraydi. Salomida niyat qiladi o'ng va chap tomonidagilarni, imomni, farishtalarni yuqorida aytganimizdek. Agar taxrimada to'rt rakat o'qimoqlikni niyat qilgan bo'lsa tashaxuddan forig' bo'lgandan so'ng uchinchi rakatga turadi, qo'llarini ko'tarmaydi sano a'uzu aytmaydi, uchinchi rakatni ikki sajdasiidan forig' bo'lgandan so'ng to'rtinchi rakatga turadi. Keyingi ikki rakatni avvalgi ikki rakatdek qiyom Ruku , qiroat va sajda bilan tamom qiladi. To'rtinchi rakatni ikki sajdasiidan so'ng avvalgidek o'tiradi, tashaxxud o'qiydi, payg'ambarimizga salovot aytadi, keyin duo, keyin ikki tomonga salom beradi. Agar taxrimada uch rakatga niyat qilgan bo'lsa, uchinchi rakatni ikki sajdasiidan so'ng o'tiradi, tashaxxud o'qiydi va rosulullohga salovot yuboradi, duo salom qiladi.

**Savol:** Sallasini peshiga yoki kiyimini bir chetiga sajda qilsa hukmi nima?

**Javob:** Agar sallani peshi peshonada bo'lsa sajda joiz, lekin makruh, agar uzr bilan bo'lsa makruh emas.

## ERKAK VA AYOLNI NAMOZLARIDAGI FARQ

**Savol:** Bu bayon qilganingiz namoz, erkaklar namozini sifatimi yoki ayollarnikimi?

**Javob:** Bu erkak va ayollarni umumiy namozlaridur magar ayollar erkaklarga bir necha o'rinlarda xilof qiladilar, ular quyidagilardur.

1. Takbir aytganda qo'llarini yengidan chiqarmaydi.
2. Takbir aytganda qo'llarini ko'kragi barobar ko'taradi.
3. Ayol kishi qo'llarini ko'kragiga qo'yadi.
4. Ruku da panjalarini ochmaydi, panjalarini jamlab tizzasiga qo'yadi.
5. Ruku da ozroq egiladi, engashganligini bildirgudek.
6. Ruku da chig'anoqlarini yonboshiga yopishtirib turadi.
7. Sajdada qornini soniga yopishtirib turadi.
8. O'tirishda dumbasi bilan o'tiradi, o'ng tomonidan ikki oyog'ini chiqarib chap iligini ustiga, o'ng iligini qo'yib yerga o'tiradi.
9. Sajdada bilaklarini yerga tegizib turadi.
10. Jahriy namozlarda ovozini chiqarmaydi.

## **BU FASLDA QIROAT MASALALARI**

**Savol:** Imom, tanho o'qiguvchi va muqtadiy qanday qiroat qiladi?

**Javob:** Quyidagi masalalarni yodingizda tuting:

1. Hamma namozlarda qiroat farzdur.
2. Surai fotihani o'qish vojib.
3. Shunga o'xshash zammi sura yoki uch oyat surai fotihadan so'ng vojibdur. Mutlaq qiroat vojibligi shu ikkisini ichida.
4. To'rt rikatli namoz farzlarda 3 - 4 rikat bundan tashqari, chunki ularda surai fotiha o'qish sunnatdir, na farz na vojib.
5. Farzlarda avvalgi ikki rikatga qiroat tayin qilmoqlik vojib.
6. Surai fotihani zammi suradan avval o'qish vojib.
7. Farz namozlarni 3 - 4 rikatlarida surai fotiha o'qish o'qimaslikda ixtiyori xohlasa o'qiydi xohlamasa tasbex aytadi, agar shu 3 - 4 rikatlarda surai fotihaga zammi sura qilib qo'ysa sajdai sahv lozim bo'lmaydi.
8. Hech qaysi namozda muqtadiy qiroat qilmaydi.
9. Imomga vojibdur bomdodni farzida, jumada, ikki xayit namozida, shom, xuftonni avvalgi ikki rikatida qiroatni jahriy qilmog'i.
10. Imom va tanho o'qiguvchiga peshinni, asrni hamma rikatlarida shomni uchinchi va xuftonni 3 - 4 rikatlarida qiroatni maxfiy qilishi vojib.
11. Jahriy namozlarda tanho o'qiguvchiga ixtiyoriydir, xohlasa oshkora, xohlasa ichida o'qiydi.
12. Peshinga uzun suralarni, asr bilan huftonga o'rtacha sura o'qiydi.
13. Sunnatdir imomga va tanho o'qiguvchiga bomdod va shomga qisqa suralarni o'qishi. Bu muqimgadir ammo musofir imkoniyatiga qarab o'qiydi, Surai hujrotdan, burujgacha uzun, burujdan lam yakungacha o'rta va lam yakundan oxirigacha qisqa suralardur.

**Savol:** Jahriy qiroatda imom yoki munforid a'uzu bismillahni jahriy qiladimi?

**Javob:** Jahriy qilmaydi.

**Savol:** Surai fotihani oxirida imom yoki tanho o'qiguvchi ominni oshkora aytadimi?

**Javob:** Yo'q, ichida aytadi.

**Savol:** Biror namozda Surani tayin qilinadimi?

**Javob:** Biror Surani tayin qilinmaydi, balki biror Surani tayin qilmoqlik makruh. Bir Surani namozga tayinlab boshqasini o'qimaslik.

**Savol:** Biror namozga biror Surani tayin qilinmasa. Hadisda biror namozga biror Surani o'qisa savob bo'ladi va ajr beriladi degan xabar bormi?

**Javob:** Ba'zi Surani namozga o'qishlikda savob bor ulardan ba'zilarini quyida aytamiz.

1. «Alif lam mim tanzil» surasini juma kuni bomdod namozini birinchi rakatiga va «xal ata alal inson» surasini ikkinchi rakatiga o'qimoqlik sunnatdir.
2. Surai «Jumani» juma namozini birinchi rakatiga va «iza jaakal munafiqkun » surasini ikkinchi rakatiga o'qimoqlik sunnatdir.
3. «Sabbi xisma robbikal a'lo» juma namozini birinchi rakatiga va surai «xalataka xadisul g'oshiyax» surasini ikkinchi rakatga o'qish sunnatdir. Mana shu ikki surani ikki xayit namoziga o'qish ham sunnatdir.

## VITR NAMOZI

**Savol:** Vitr qanday o'qiladi va u necha rakat?

**Javob:** Vitr uch rakatdir xuftondan so'ng o'qiladi undan avval joiz emas, qachon o'qishni xohlasa takbir aytadi, sano taavvuz bismillah aytadi, surai fotiha va zammi sura qiladi, keyin Ruku , sajda qiladi, ikkinchi rakatga turadi va ado qiladi, o'tiradi va tashaxxud o'qiydi, uchinchi rakatga turganda surai fotiha va zammi sura qiladi, qiroatdan forig' bo'lgach ikki qo'lini qulog'iga ko'tarib takbir aytadi keyin duoi qunut o'qiydi, qunutdan so'ng takbir aytib Ruku ga boradi va namozni oxiriga yetkazadi.

**Savol:** Vitrni barcha rakatlarida surai fotiha va zammi sura o'qiladimi?

**Javob:** Ha barcha rakatlarda o'qiydi.

**Savol:** Vitr uchun sunnatga muvofiq qiroat bormi?

**Javob:** Fotihadan so'ng birinchi rakatga surai «a'lo», ikkinchi rakatga surai «kofirun», uchinchi rakatga surai «ixlos» o'qimoq sunnatdir va ba'zi rivoyatda birinchi rakatga surai «ixlos», ikkinchi rakatga surai «Falaq», uchinchi rakatga surai «Nos» o'qish ham sunnat.

**Savol:** Kunutni oshkora o'qiydimi yoki maxfiymi?

**Javob:** Imom bo'lsin, iqtido qilguvchi yoki tanho o'qiguvchi albatta ichida o'qiydi.

**Savol:** Vitrni jamoat bilan ham o'qiladimi?

**Javob:** Ramazon kechalarida tarovixdan so'ng jamoat bilan vitr o'qiladi.

**Savol:** Jamoat bilan o'qilganda jahriy o'qiladimi?

**Javob:** Imom har uchala rakatda jahriy qiroat qiladi.

**Savol:** Vitrdan boshqa namozda ham qunut o'qiladimi?

**Javob:** Vitrdan boshqada qunut o'qilmaydi. Magar qunut o'qiladi. Musulmonlarga bir kulfat yetganda, rukuvdan so'ng imom qunut o'qiydi, musulmonlarni foydalariga dushmanlarni zarariga duo qiladi.

## SUNNATLAR VA NAFLLAR

**Savol:** Farzlardan avval va keyin qancha rakat sunnatlar bor.

**Javob:** O'n ikki rakat sunnati muakkada bor. Onamiz hazrati Oyisha Alloh rozi bo'lsin, rivoyat qiladilar. Albatta payg'ambar alayhissallom aytadilar: har kim o'n ikki rakat sunnat namozini doim o'qisa, Alloh jannatda unga bir uy bino qiladi. To'rt rakat peshindan avval, ikki rakat peshindan so'ng, shomdan keyin ikki rakat, xuftondan so'ng ikki va bomdoddan ilgari ikki rakat. Shurayx Oyisha onamizdan rivoyat qiladilar. Alloh u kishidan rozi bo'lsin. Payg'ambarimiz qachon xuftondan so'ng meni oldimga kirsalar albatta to'rt rakat yoki olti rakat o'qirdilar.

**Savol:** Shu sunnatlar ba'zisi ba'zidan ta'kidlirokmi?

**Javob:** Bomdodni ikki rakati ta'kidliroqdir, so'ng peshindan avvalgi to'rt rakat, Oyisha onamiz, rivoyat qiladilar. Payg'ambarimiz nafl namozlarni birortasiga bomdodni sunnatichalik astoydil emas edilar. Yana Oyisha onamiz rivoyat qiladilar. Peshindan avvalgi to'rt rakatni xargiz tark qilmadilar va bomdoddan avvalgi ikki rakat sunnatni.

**Savol:** Jumadan avval va keyin sunnat bormi?

**Javob:** Jumadan avval to'rt rakat va keyin to'rt rakat sunnat mashruvdir. Bu imomi A'zam nazdlarida, ammo imom Abu Yusuf aytadilar, jumadan so'ng sunnat olti rakat.

**Savol:** Asrdan ilgari ham sunnat bormi?

**Javob:** Ha, hadis sharifda kelgan. Aytdilar payg'ambarimiz: Alloh rahm qilsin bir kishiniki asrdan avval to'rt rakat namoz o'qisa. Hazrat Ali Alloh rozi bo'sin u kishidan rivoyat qildilar albatta payg'ambarimiz asrdan ilgari ikki rakat nafl o'qir edilar.

**Savol:** Xuftondan ilgari sunnat bormi?

**Javob:** Ulamolar xuftondan ilgari to'rt rakatni yaxshi ko'rganlar.

**Savol:** Bu sunnatlarni hukmi nima?

**Javob:** Asr va xuftondan avvalgi sunnatlar muakkada emas.

**Savol:** Sunnatlarda sunnatga muvofiq qiroat bormi?

**Javob:** Ha imom Termiziy Abdulloh ibni Mas'udda rivoyat qiladilar. Alloh rozi bo'lsin u kishidan, u kishi aytadilar: men payg'ambarimizdan eshitganimni sanay olmayman, o'qirdilar ikki rakat shomdan keyingi sunnatda va bomdodda avvalgi ikki rakatda «qulya ayyuxal kofirun va qulxuvallahu ahad»ni. Va imom Muslim Abu Xurayra hazratlaridan rivoyat qildilar albatta payg'ambar alayhissalom o'qirdilar. Bomdodni ikki rakat sunnatiga «Kulya ayyuxal kafirun» va «qulhuvallahu ahad» suralarini. Yana imom, Muslim rivoyat qildilar ibni Abbos roziyallohu anxumodan aytdilar. Payg'ambarimiz bomdodnn ikki rakat sunnatiga «Qulu amanna billahi vama unzila ilayna» oyatini va surai oli Imrondagi «Taolov ila kalimatin savain baynana va baynakum» oyatini o'qidilar.

**Savol:** Shariatda yuqorida aytilgan farz, vitr va sunnatlardan boshqa namozlar ham bormi?

**Javob:** Ha bulardan boshqa ham namozlar bor, ular: Nafl namozlar kecha va kunduzda o'z xohishi bilan xohlaganicha ixtiyoriy o'qishi mumkin, bunda katta fazilat bor, yuqorida aytilgan makruh vaqtlardan saqlanadi.

**Savol:** Bu aytganlaringiz nafl namozlar hamma vaqt va hamma axvolda, ba'zi masxus vaqtlarda o'qilgan nafl namoz uchun biror fazl rivoyat qilinganmi?

**Javob:** Kechani oxirida o'qilgan nafl namoziga fazilat bor u namozni taxajjud deb ataladi, va choshgoh vaqtidagi namoz, ramazon kechalaridagi xususan «laylatul qadr» kechasidagi namoz, tahoratdan keyingi nafl, masjidga kirganda o'tirmay turib o'qilgan nafl, bir ishdan xafa bo'lganda namoz o'qish, tavba namozi, hojat tushgandagi namoz, istixora namozlari shariydur.

**Savol:** Bir salom bilan necha rakatgacha nafl o'qish mumkin?

**Javob:** Kunduzi bir salom bilan ikki rakat, xohlasa to'rt rakat o'qiydi, bundan ortig'i makruh. Imom Abu Yusuf bilan imom Muhammad aytdilar: kechasida bir salom bilan ikki rakatdan ziyoda nafl joiz emas.

**Savol:** Bir odam naflni boshladi keyin buzdi, nima deysiz?

**Javob:** Buzgan namozini qazosini o'qiydi, chunki boshlash bilan nafl vojib bo'ladi.

**Savol:** To'rt rakat nafl niyat qildi, ikki rakatda o'tirdi keyingi ikki rakatni buzdi, necha rakat qazo qiladi?

**Javob:** Ikki rakat qazo qiladi, chunki avvalgi ikki rakat tamom bo'ldi.

**Savol:** Qiyomga qodir kishi o'tirib nafl o'qidi joizmi?

**Javob:** Bu joiz, lekin savobi yarim beriladi.

**Savol:** Biror ot yoki tuyani ustida nafl o'qish mumkinmi?

**Javob:** Biror hayvonni ustida nafl joiz qaysi tarafga qarab ketsa ham, shart shuki shahardan tashqarida bo'lsa.

## QAZO NAMOZLAR

**Savol:** Biror namozni favt qilsa qachon o'qiydi?

**Javob:** Esiga kelganda o'qiydi, lekin man etilgan vaqtlarda o'qimaydi.

**Savol:** Bir kishi bir necha namozni favt qildi u qanday o'qiydi.

**Javob:** Qazoni o'qishda tartib bilan o'qiydi, aslida tartib vojib bo'lgandek bu vojibdur sohibi tartib bo'lgan kishilarga.

**Savol:** Sohib tartib ma'nosi nima?

**Javob:** Olti vaqtdan kam namozni favt qilgan bo'lsa bu odam sohib tartibdur fuqaholar urflarida. Vojib bo'ladi sohib tartibga tartib bilan ado qilmoqlikni o'z vaqtidagi namozlarni va qazo bo'lgan namozlarni vaqtli namozni qazodan ilgari o'qimaydi. Agar aksincha qilsa, namozlarni qayta o'qiydi. Bunga misol aytamiz: Biror odam sohib tartib qazoni o'qishda asrni peshindan avval o'qidi. Bu odamga vojib bo'ldi peshinni o'qib asrni qayta o'qiydi. Bu qazolar o'rtasidagi tartib. Ammo qazo bo'lgan namoz bilan vaqtidagi namoz tartibi: Bas uni misoli bir sohib tartib kishi qazo qilgan bir namozini esladi. Peshin vaqtida va peshinni o'qidi, qazodan ilgari. Unga vojib avval qazoni o'qib keyin peshinni qaytib o'qiydi.

**Savol:** Vitr bilan farz o'rtasida tartib vojibmi.

**Javob:** Ha, u vojib, xuftondan avval vitrni o'qigan bo'lsa vitrni qaytarib o'qimoqligi vojib farzdan so'ng. Vitr namozida uxlab qolgan bo'lsa, hatto tong otdi avval vitrni o'qib so'ng bomdodni ado qiladi. Agar aksi bo'lsa bomdodni qaytib o'qish vojib.

**Savol:** Ba'zi hollarda tartib soqit bo'ladimi?

**Javob:** Uch ishdan biri bilan tartib soqit bo'ladi.

1. Qazolar olti vaqtga aylanishi bilan vitrdan boshqa.
2. Qazo bo'lgan namozni unutish bilan.
3. Vaqt torligi bilan.

Agar qazo oltitaga yetsa, qaysi namozni avval o'qisa joiz. Shunga o'xshash o'z vaqtidagi namozni o'qish mumkin. Qazosi esida bo'lsa ham. Qazo namozini unutib o'z vaqtidagi namozni o'qisa, keyin qazoni eslasa avvalgi namozi joiz qaytib o'qish vojib emas. Kun chiqishiga yaqin uyg'onsa biladiki u xuftonni o'qigani yo'q bomdodni avval o'qib kun

chiqib ko'tarilgandan so'ng xuftonni o'qiydi. Bomdodni qaytib o'qish vojib bo'lmaydi. Vaqt tangligi uchun tartib soqit bo'ldi.

## **NAMOZNI BUZUVCHI NARSALAR**

**Savol:** Namozni buzuvchi fe'llar va so'zlar nimalar?

**Javob:** Namozni buzadigan ishlar:

1. Yemoqlik, ichmoqlik, esida yo'q bo'lsa ham.
2. Ko'p ish qilishlik.
3. Qasddan tahoratni buzish.
4. To'xtovsiz uch yoki uchdan ortiq qadam tashlash.
5. Ko'kragini qibladan o'girish.
6. Tutqanoq tutish.
7. Jinni bo'lish.
8. Junub bo'lish.
9. Ayol kishi bilan, bir namozda o'rtada to'siqsiz birga turishlik.
10. Bir ruknni avratini bekitmasdan ado etish yoki najosat bilan ado etish.
11. O'zi eshitgudek kulmoqlik.

Ammo so'zlardan nomozni buzadigani:

1. Bir kalima so'zlamoq qasddanmi, esida yo'qmi, adashibmi baribir.
2. Biror kishiga salom bermoqlik.
3. Birovni salomiga javob bermoqlik.
4. Uf tortmoqlik.
5. Ingramoq.
6. Ox tortmoq.
7. Biror narsadan achinib ovozini chiqarib yig'lamoq, jannat yoki do'zaxni o'ylab yig'lasa buzilmaydi.
8. Tush ko'rgan odamga yarxamukalloh demoqlik.
9. Namozdagi odam, Allohni sherigi bormi? deb so'ragan kishiga la ilaxa illoh deb javob bermoqligi.
10. Biror yomon xabarga namozda turib inna lilahi va inna ilayhi rojiun demoqligi.
11. Yaxshi xabar eshitganda alhamdulillah demoqligi.
12. Taajjubni bildirmoqligi, subxonalloh yoki la ilaxa illoh deyish bilan.
13. Har bir so'zki u bilan javob yoki xitobni qasd qilsa. Masalan birovga qarab ya yaxya huzil kitoba biquvvah desa.
14. O'z imomidan boshqaga luqma berishligi.
15. Qiroatda yoki takbirlarda ma'noni buzgudek xato o'qimoqligi. Masalan birda hamzani cho'zishga o'xshagan.

## **O'N IKKITA XILOFLIK MASALALAR**

1. Tayammumlik kishi namozda turib suvni ko'rsa va ishlatishga qodir bo'lsa.
2. Masx tortgan edi masxni muddati tutadi.



3. Yoki masxisi salga yechilib ketdi.
4. Yoki odam bir oyatni o'rganib oldi.
5. Yoki yalang'och odam kiyimga ega bo'ldi.
6. Imo bilan o'qiyotgan odam Ruku va sajdaga qodir bo'ldi.
7. Bir vaqt namozni qazo qilgani esiga tushdi o'zi soxib tartib edi.
8. Yoki qori Imomni tahorati ketdi va o'rniga omiyni imom qildi.
9. Yoki bomdod namozida quyosh chiqib qoldi.
10. Juma namozida asrni vaqti kirib qoldi.
11. Yoki yaraga masx tortgan edi tuzalib tushib ketdi.
12. Istixoza qoni bilan namoz o'qiyotgan edi u to'xtab qoldi.

Shularning barchasini namozi buzildi imom A'zam raxmatullohi alayh qovlarida, agar chandiyki shu ishlar qa'dayi oxirda, attaxiyot miqdoriga o'tirgandan so'ng voqe' bo'lsa ham namoz bekor bo'ladi, Imom Abu Yusuf bilan imom Muhammad aytdilar attaxiyot miqdoricha oxirgi qa'dada o'tirgan bo'lsa shu ishlardan biri voqe' bo'lsa namozi durust.

## NAMOZNING MAKRUHLARI

**Savol:** Namozda qilishdan qaytarilgan makruh ishlarni aytib bering?

**Javob:** Namozxon uchun makruhdur:

1. Kiyimi yoki a'zosi bilan o'ynab, hazl faxmlab, beparvo bo'lish.
2. Mayda toshlarni jildirmoqligi, agar sajda qilishga imkoni bo'lmasa bir martaga ruxsat.
3. Panjalarini qisirlatmoq yoki panjalarini bir-biriga kirishtirmoq.
4. Qo'llarini ko'kragi ustiga qo'ymoq.
5. Kiyimini osiltirmoq yoki yig'ishtirmoq.
6. Sochlarini erkak kishi turmaklamoq.
7. Bo'ynini burib o'ng chapga qaramoq.
8. It o'tirish qilib o'tirmoq.
9. Sajdada bilagini yerga yozib turmoq.
10. Chordona qurib o'tirmoq.
11. Qo'li bilan salomga javob qaytarmoq.
12. Peshona va burnini tuproqdan tozalamoq.
13. Qiroatga halal bergudek biror narsani og'zida olib turmoq.
14. Ko'ngildagi xotirjamlikni buzadigan har ishni qilmoq.

## JAMOAT VA IMOMAT BAYONI

**Savol:** Shariati mutaxxarodagi jamoat savobi o'rnini aytib bering?

**Javob:** Jamoat erkaklar uchun sunnati muakkadadur va savobi ulug'dir. Bataxqiq aytdilar Payg'ambar alayhissalom «Jamoat bilan o'qilgan namoz tanho o'qilgan namozga nisbatan yigirma yetti daraja savobi ortiq», imom Buxoriy va Muslim ibni Umar roziyallohu anhumadan rivoyat qiladilar, hazrati Abu Dardo roziyallohu anxudan aytdilar, Aytdilar Rosululloh sallallohu alayhi va sallam. Bir qishloq yoki saroyda uchta odam bor

bo'lib jamoat bilan namoz o'qilmasa, albatta u yerda shayton g'olib bo'ladi. O'zingizga jamoatni lozim biling. Albatta bo'ri chetda qolganini yeydi. Imom Abu Dovud, Ahmad va Nasa'i rivoyat qildilar. Abu Hurayra roziyallohu anxudan aytdilar payg'ambar alayhissalom: Bir zotiga qasamki meni nafsim u zotni qo'lida: Albatta qasd qildim buyurib o'tni qo'ymoqlikka, keyin namozga azon aytmoqlikka buyursam keyin bir kishini odamlarga imomlikka buyursam, keyin qishloqni aylanib chiqsam, namozga chiqmaganlarni uyiga o't qo'yib yuborsam.

**Savol:** Imomlikka kim xaqlirok?

**Javob:** Odamlarning eng sunnatga olimi yani shariat masalalarini yaxshi bilgani, ayniqsa namoz masalalarni yaxshi bilgani imomlikka haqlidir. Bu hazrat: Abu Xanifa raxmatullohi alayhni gaplari. Imom Abu Yusuf raxmatullohi alayh aytdilar, imomlikka xaqliroq qiroati yaxshirog'i, qiroatda barobar bo'lsalar, narxezkorlari, agar bunda ham barobar bo'lsalar oliy nasablari.

**Savol:** Odamlar orasida imomligi makruh kishilar ham bormi?

**Javob:** Qulni, sahroyini, fosiqni va ko'rni(agar u tahoratda extiyot qilolmasa) imomligi makruh. Xaromi kishilarni ham. Shu bilan birga agar ular imomlikka o'tsalar namozlari joiz.

**Savol:** Ayollar jamoat masjidlariga hozir bo'lsalar joizmi?

**Javob:** Ular uchun , jamoatga xozir bulish makruh, ular uchun uylari yaxshiroq, agar keksa ayollar yasanmasdam. Shom, xufton, bomdodga hozir bo'lsalar joiz. Imom A'zam nazdilarida. Imom Abu Yusuf va imom Muhammad aytdilar keksa ayollar hamma jamoatga kelishi mumkin?

**Savol:** Ayollarni jamoat bo'lib namoz o'qishiga nima deysiz?

**Javob:** Ular uchun jamoat makruh, agar jamoat bo'lsalar imomlari o'rtada turadi. Yalang'och kishilar jamoat bo'lganda imom o'rtada turgandek.

**Savol:** Imom bilan faqat bir kishi bo'lsa qaerda turadi.

**Javob:** Imom uni o'ng tarafiga turg'izadi, agar undan ko'paysalar imom oldinda turadi.

**Savol:** Agar imomga bir dona ayol tanho iqtido qildi, qaerda turadi.

**Javob:** Imomni orqasida turadi.

**Savol:** Agar jamoatda erkaklar, ayollar bolalar bo'lsa qanday saf tortiladi.

**Javob:** Erkaklar avvalgi safda keyin bolalar, keyin xunasalar keyin ayollar saf tortadilar.

**Savol:** Iqtido masalalarini aytib bering?

**Javob:** Bu quyidagicha bo'ladi.

1. Farz o'quvchi odam farz o'qiguvchiga iqtidosi durust bo'ladi, agar bir xil farz bo'lsa, agar biri peshin, ikkinchisi asr, yoki biri bugungi peshinni, ikkinchisi kechagi peshinni o'qiyotgan bo'lsa iqtido durust emas.

2. Tayammumlik kishi tahoratlik kishilarga imom bo'lishi mumkin.

3. Masx tortgan kishi yuvgan kishilarga ham imom bo'lishi joiz.

4. UZR bilan o'tirib o'qiyotgan imomga tik turib o'qiyotgan odamlarni iqtidosi durust.

5. Ruku va sajdaga qodir kishilar imo bilan o'qiyotgan kishiga iqtidosi durust emas.

6. Nafl o'qiguvchi farz o'qiguvchiga iqtido qiladi.

7. Aksi mumkin emas.

8. Uzrluk kishiga uzrsiz kishi iqtido qilmaydi. Masalan siydigi tomib turgan odam yoki bod chiqib turgan kishi yoki jarohatdan doim najas kelib turgan kishiga sog'lom kishi iqtido qilmaydi.

9. Xayzdan pok ayol istixozasi bor ayolga iqtido qilmaydi.

10. Qori ya'ni qur'ondan bir oyatni o'qishni bilgan kishi bir oyatni o'qishni bilmaganga iqtido qilmaydi.

11. Liboslik kishi yalang'och odamga iqtido qilmaydi.

**Savol:** Bir odam imomga iqtido qildi keyin bilsa imom tahoratsiz ekan nima qiladi?

**Javob:** Namozni qaytib o'qiydi.

## **FARZNI JAMOAT BILAN TOPMOQLIK**

**Savol:** Peshindan bir rakatni o'qidi yoki xuftondan o'zi tanho va sajdada qildi, keyin jamoatga iqomat aytiladi, bu odam nima qiladi?

**Javob:** Bir rakat qo'shadi keyin salom beradi va imom bilan jamoatga kiradi.

**Savol:** Agar u odam sajdada qilmagan bo'lsa?

**Javob:** Namozni buzadi va imomga iqtido qiladi.

**Savol:** Peshin yoki xuftondan uch rakat o'qigan bo'lsa uchinchi rakatga sajdada qilgan bo'lsa keyin jamoat bo'lib iqomat aytilsa hukmi nima?

**Javob:** Namozni oxiriga yetkazadi va imomga nafl deb iqtido qiladi.

**Savol:** Uchinchi rakatga sajdada qilmagan bo'lsachi?

**Javob:** Namozni buzadi va imomga iqtido qiladi.

**Savol:** Qanday buzadi?

**Javob:** U ixtiyorlik, xohlasa o'tiradi bir tomonga salom beradi, agar xohlasa tik turganicha Imomni namoziga kirishni niyat qilib takbir aytadi ikki ish hosil bo'ladi, o'zi o'qiyotgan namozni buzish va Imomni namoziga kirish.

**Savol:** Asr namozini hukmi qoldi to'rt rakatli farzlardan aytib bering?

**Javob:** Asr namozini o'zi tanho bir rakat yoki uch rakat o'qigan bo'lsa, keyin yuqorida aytilgandek jamoatga iqomat aytilsa namozni buzish yoki oxiriga yetkazish peshinni va huftonda magar Imomni namoziga qo'shilmaydi, to'rt rakatni ado qilgandan keyin Asrdan so'ng nafl mumkin bo'lmagani uchun.

**Savol:** Agar bir rakat yoki ikki rakat bomdoddan o'qigan bo'lsa yoki shomdan keyin iqomat aytilib qolsa nima qiladi?

**Javob:** Shom yoki bomdoddan bir rakat o'qigan bo'lsa so'ng jamoatga iqomat aytilsa sajda qilgan bo'lsin, yoki yo'q namozini buzadi, ikkinchi rakatga sajda qilmagan bo'lsa ham buzadi va Imomni namoziga qo'shiladi, shu uch sur'atda ham ammo ikkinchi rakatga sajda qilgan bo'lsa namozini buzmay tamom qiladi.

**Savol:** Namozini tugatgandan so'ng imomga iqtido qiladimi?

**Javob:** Bu suratda imomga iqtido qilmaydi.

**Savol:** Bir odam peshin yoki jumadan ilgari sunnatni boshladi, iqomat yoki xutba boshlandi nima qiladi?

**Javob:** Ikki rakatdan so'ng salom beradi keyin iqtido qiladi peshin bo'lsa, juma bo'lsa xutbani eshitadi.

**Savol:** Agar naflni boshlasa, farzga iqomat aytilsa nima qiladi?

**Javob:** Ikki rakatda tamom qiladi, oshirmaydi.

**Savol:** Bir kishi bomdodni farzida Imomni topdi hali sunnatni o'qigani yo'q nima qiladi?

**Javob:** Agar bir rakatdan qolishi mumkin bo'lsa u bomdodni sunnatini avval o'qiydi keyin iqtido qiladi, agar har ikki rakatdan qoladigan bo'lsa sunnatini o'qimay imomga iqtido qiladi.

**Savol:** Namoz bomdodni favt qildi, kun chiqqandan so'ng ado kilmoqchi farzini o'zini o'qiydimi, yoki sunnati bilan o'qiydimi?

**Javob:** Agar peshindan avval o'qisa sunnati bilan o'qiydi, shu kunni peshindan keyin qolsa farzni o'zini o'qiydi.

**Savol:** Bomdodni farzini o'qidi imomga iqtido qilib yoki vaqtni torligidan sunnatni qachon o'qiydi?

**Javob:** Imom A'zam va imom Abu Yusuf Alloh har ikkisini rahmat qilsun bular aytdilar kun chiqqishidan avval ham keyin ham o'qimaydi. Ammo imom Muhammad aytdilar quyosh chiqqandan so'ng o'qigan yaxshiroq.

**Savol:** Peshinni olti rakat sunnati favt bo'lsa qachon o'qiydi.

**Javob:** Peshinni farzidan so'ng o'qiydi vaqtida, ammo vaqtdan so'ng o'qimaydi.

**Savol:** Farzdan so'ng o'qimoqchi bo'lsa avval to'rt rakat o'qiydimi. Yoki ikki rakat o'qiydimi?

**Javob:** Avval ikki rakatni so'ng to'rt rakatni o'qiydi.

**Savol:** Jumani avvalgi sunnati tark bo'ldi jumadan so'ng o'qiydimi?

**Javob:** Jumadan so'ng o'qiydi u peshinni to'rt rakat sunnatiga o'xshash.

## **NAMOZDA BETAHORATLIK YETISHI**

**Savol:** Namoz o'qib turganda betahoratlik yetsa nima qiladi?

**Javob:** Namozdan chiqadi va tahorat qiladi va qolgan joyidan davom ettiradi. Boshidan o'qigan afzal.

**Savol:** Agar imomga shu ish bo'lsa nima qiladi?

**Javob:** Agar imom bo'lsa iqtido qilganlarni birini o'rniga qo'yadi, u odam kishilar bilan namozni oxiriga yetkazadi.

**Savol:** Agar o'rniga qo'yilgan odam masbuq bo'lsa nima bo'ladi?

**Javob:** Namozni qolganini odamlarga o'qib beradi so'ng o'rniga mudrikni tortadi ya'ni namozni avvaldan imom bilan birga bo'lgan kishini va mudrik salom berib namozni tugatadi.

**Savol:** Agar betahoratlik qa'dai oxirida tashaxxuddan keyin yetsa nima bo'ladi?

**Javob:** Namozdan chiqib tahorat qilib keyin salom beradi.

**Savol:** Betahoratlikdan so'ng gapirsa nima bo'ladi?

**Javob:** Namozni buziladi, davom etishi mumkin emas bilib yo bilmay yoki adashib gapirsa ham.

**Savol:** Shu betahoratlik yetgan kishi tahorat olish uchun yurishga to'g'ri kelsa yoki qibladan burilib qolsa namozni buziladimi?

**Javob:** Namozni buzilmaydi bu kechirilgan. Uch qadam yoki undan ortiq yursa ham.

**Savol:** Namozda turib junub bo'lsa tahoratdan so'ng davom etadimi?

**Javob:** Namozda uxlab qolsa va ixtilom bo'lsa yo jinni bo'lsa yo tutqanog'i tutsa yo biror kishi eshitgudek kulsa namozni buziladi. Uni davom ettirish mumkin emas. Birinchi

masalada g'usldan so'ng namozini boshqa o'qiydi, keyingi uch masalada tahoratdan so'ng boshqa o'qiydi.

## **SAJDAI SAXV**

**Savol:** Namozda xato qilsa nima qiladi?

**Javob:** Namozda adashsa biror ishni ortdirib qo'ysa masalan Rukuni takror qilsa yo bir rakat ziyoda qilsa biror vojibni kamaytirsasurani fotihani o'qimasa yoki zammi sura qilmasa, yo birinchi qa'dani qilmasa, yo attaxiyotni o'qimasa, yoki vitrda qunutni tark qilsa, yo xayit namozida takbirlarni qoldirsas, jaxriyda imom xufya yoki xufyadan jaxriy qiroat qilsa, namozni oxirida attaxiyotdan so'ng bir tomoniga salom beradi va ikki sajda qilib qaytadan attaxiyot o'qib salom beradi.

**Savol:** Imomni adashishi bilan qovmga ham sajda saxv lozim bo'ladimi?

**Javob:** Imom adashishi bilan barchaga sajda saxv lozim bo'ladi.

**Savol:** Imom sajda qilmasa qavm nima qiladi?

**Javob:** Imom sajda qilmasa qavm ham sajda qilmaydi.

**Savol:** Muqtadiy saxv qilsa sajda saxv lozim bo'ladimi?

**Javob:** Hech kimga sajda saxv lozim bo'lmaydi.

**Savol:** Uch rakatli yoki to'rt rakatli namozda qa'dai ulo qilmadi keyin esiga tushdi qanday qiladi?

**Javob:** Qaraydi agar xoli o'tirishga yaqin bo'lsa o'tiradi, attaxiyot o'qiydi va namozini tugallaydi Unga sajda saxv lozim bo'lmaydi, agar qiyomga yaqin bo'lsa o'tirmaydi, namozini davom ettiradi va sajda saxv bilan namozini tugallaydi.

**Savol:** Qa'dai oxirida saxv qilsa nima qiladi?

**Javob:** Agar to'rt rakatli namozda oxirgi qa'dada adashib beshinchi rakatga tursa, modomiki beshinchiga sajda qilmagan bo'lsa qaytib o'tiradi beshinchini tark qiladi va sajda saxv bilan tugallaydi.

**Savol:** Beshinchi rakatga sajda qilgan bo'lsachi?

**Javob:** Namozni bekor bo'ldi, chunki tarki farz qiladi ya'ni qa'dai oxir qilmadi. Namozni naflga aylandi, oltinchi rakatni qo'shib qo'yadi. Foyida: Ikki rakatli yoki uch rakatli namozda qa'dai oxirida shu ish bo'lsa uni o'zingiz qiyos qiling.

**Savol:** To'rtinchi rakatda o'tirib tashaxxud o'qidi va o'rnidan turdi ikkinchi rakat gumon qilib, nima qiladi?

**Javob:** Beshinchiga sajda qilmagan bo'lsa qaytib o'tiradi saj dai sah v qiladi namozi durust.

**Savol:** Beshinchi rakatga sajda qilgan bo'lsachi?

**Javob:** Yana bir rakat qo'shadi saj dai sax v qiladi to'rt rakat farz ado bo'ldi, ikki rakat nafl bo'ladi.

**Savol:** Namozda shakka tushdi, uch rakat o'qidimi yo to'rt rakat, nima qiladi?

**Javob:** Agar bu ikkilanish hayotda birinchi bo'lsa qaytib o'qiydi, agar ko'p voqe' bo'lsa gumonini g'olib tomoniga qaraydi, gumoni uch rakatga bo'lsa uch, gumoni to'rt bo'lsa to'rtga hukm qiladi va namozini oxiri deb gumon qilgan joyda o'tiradi, agar gumoni bir tarafga g'olib bo'lmasa ozini oladi. Har ikki xolda saj di sax v qiladi.

## TILOVAT SAJDASI

**Savol:** Quron o'qigan kishilarni ko'ramiz, tilovat vaqtida bitga sajda qiladilar bu saj dani haqiqati nima?

**Javob:** Buni saj dai tilovat deyiladi. Oyati saj dani o'qigan yoki eshitgan odamga vojib bo'ladi, eshitishni qasd qilsin yo qilmasin.

**Savol:** Oyati sajda bor suralarni sanab bering?

**Javob:**

1. Surai «A'rof»,
2. Surai «Ra'd».
3. Surai «Naxl»,
4. Surai «Isro».
5. Surai «Maryam».
6. Surai «Xaj»
7. Surai «Furqon»
8. Surai «Naml»
9. Surai «Alif lam sajda».
10. Surai «Sod»
11. Surai «Xamim assajda».
12. Surai «Najm».
13. Surai «Inshuqoq»
14. Surai «Alaq»

Oyati saj dalar qorilarga tanishdir. Musxafda alomatlar yozilgandur.

**Savol:** Imom oyati saj dani o'qisa qavmlarga sajda vojib bo'ladimi?

**Javob:** Imom oyati saj dani oshkora yoki ichidan o'qib sajda qilsa qavm ham qo'shilib sajda qiladi.

**Savol:** Iqtido qilgan kishi oyati sajdani o'qisa o'ziga va imomga sajda vojib bo'ladimi?

**Javob:** Hech kimga sajda vojib bo'lmaydi.

**Savol:** Namozdagi kishilar, namozda bo'lmagan odamdan oyat sajdani eshitsalar sajda vojib bo'ladimi?

**Javob:** Ularga sajda vojib bo'ladi, lekin namozdan keyin sajda qiladilar.

**Savol:** Agar shu sajdani namozda qilsalar o'rin o'tadimi?

**Javob:** Yo'q o'tmaydi.

**Savol:** Oyat sajdani namozdan tashqarida o'qidi. Namozga kirguncha sajda qilmadi, namozda yana u oyatni o'qidi va sajdani namozda qildi joizmi?

**Javob:** Agar tilovat bir joyda bo'lsa o'rniga o'tadi.

**Savol:** Nima deysiz bir kishi oyati sajdani namozdan tashqarida o'qidi va sajda qildi. So'ng namozda yana o'qidi shu oyatga avvalgi sajda kifoyami?

**Javob:** Birinchi sajda kifoya qilmaydi. Namozdagi uchun boshqa sajda qiladi.

**Savol:** Bir oyati sajdani bir necha bor takror qildi bir sajda kifoya qiladimi?

**Javob:** bir oyatni bir joyda tilovat qilsa bitta sajda kifoya, agar bir necha joyga jilib o'qisa, joyni adadicha sajda vojib bo'ladi. Agar bir necha oyati sajdani suralaridan o'qisa bir joyda bo'lsa ham oyatlar adadiga sajda vojib bo'ladi.

**Savol:** Sjdai tilovat qanday qilinadi?

**Javob:** Qo'lni ko'tarmay takbir aytadi va bir sajda qiladi, yana takbir aytib boshini sajlardan ko'taradi tashaxxud va salomsiz.

## **KASALNI NAMOZI**

**Savol:** Tik turishga ojiz bo'lgan kasal nima qiladi?

**Javob:** Tik turishga uzrlik bo'lgan kasal o'tirib o'qiydi va ruku sajda qiladi.

**Savol:** Ruku va sajda qilolmasachi?

**Javob:** Ruku va sajdaga imo qiladi, sajdani rukudan pastroq qiladi, sajda qilish uchun biror narsani ko'tarmaydi.

**Savol:** O'tirishga yaramasachi?



**Javob:** Oyoqlarini qiblaga qilib osmonga qarab otada boshini ostiga biror narsa qo'yib ko'tariladi va yuzini qiblaga bo'ladi. Mana shunday qilib chalqancha ruku va sajdani imo bilan o'qiydi.

**Savol:** Yonboshlab yotsachi?

**Javob:** Yuzini qiblaga qilib yonboshlab imo bilan ruku va sajda qilsa bo'ladi.

**Savol:** Boshi bilan imoga qodir bo'lsa, ko'zlari, qoshi yoki qalbi bilan imo qilib o'qiydimi?

**Javob:** Yo'q faqat boshi bilan imo qiladi, agar Unga qodir bo'lmasa namozni taxir qilinadi.

**Savol:** Kasal tik tura oladi, rukuv va sajdaga qodir emas qanday namoz o'qiydi?

**Javob:** U vaqtda tik turishi lozim emas, o'tirib imo bilan o'qisa ham joiz.

**Savol:** Sog'lom odam namozni ba'zisini tik turib o'qidi, keyin kasallik paydo bo'ldi namozini qanday tugallaydi?

**Javob:** O'tirib ruku va sajdaga bilan tugallaydi, ruku va sajdaga qodir bo'lmasa imo bilan tugallaydi, o'tirishga ham qodir bo'lmasa chalqancha yotib imo bilan bilan tugallaydi.

**Savol:** Kasallik tufayli o'tirib ruku sajdaga qilsa namoz asnosida tuzalib qolsa namozni boshidan o'qiydimi.

**Javob:** Yo'q, balki tik turib davom etadi.

**Savol:** Namozni ba'zisini imo bilan o'qidi keyin ruku va sajdaga qodir bo'lsa tik turib davom etadimi?

**Javob:** Yo'q namozni boshidan boshqa o'qiydi.

**Savol:** Bexushlik bilan favt qilgan namozlari nima bo'ladi.

**Javob:** Bexushlik bilan besh yoki undan oz namozni yo'qotgan bo'lsa qazosini o'qiydi, agar besh vaqtdan ortiq bo'lsa o'qimaydi.

## MUSOFIRNING NAMOZI

**Savol:** Shariati g'arroda musofir uchun hukm bormi?

**Javob:** Fiqh kitoblarida bayon qilingan hukmlari bor.

**Savol:** Ana shulardan tegishlilarini bayon namozga qiling?

**Javob:** Uch kecha va kunduzlik joyga safar qilmoqlikni xohlasa piyoda yoki tuya bilan o'z shahar yoki qishlog'idan chiqsa to'rt rakatli farz namozlarini ikki rakat o'qiydi.

Ma'nosi peshin, asr, xuftonni ikki rakatdan o'qiydi. Shom, nafl, sunnatlar, qisqa qilinmaydi va vitr ham.

**Savol:** Agar ikki rakat o'rniga to'rt rakat o'qisa savob bo'ladimi?

**Javob:** Ikki rakatdan ortig'i makruhdur. Chunki qasd o'qish ta'kidlikdir.

**Savol:** Makruh bo'lsa ham agar to'rt rakat o'qisa ikki rakatga o'tadimi farzdan?

**Javob:** To'rt rakat o'qisa qa'dai oxirida o'tirsa ikki rakat farzga o'tadi, qolgan ikki rakati nafl bo'ladi.

**Savol:** Qa'dai oxirida tashaxxud miqdoricha o'tirmasa nima bo'ladi?

**Javob:** Bu bilan farzi buziladi, namozni boshqa o'qiydi.

**Savol:** Musofir ba'zi vaqtda namozini to'rt rakat o'qiydimi?

**Javob:** O'z vaqtida o'qilayotgan namozda muqim kishiga iqtido qilsa va yana musofir odam borgan joyida o'n besh kun turishni niyat qilsa ham to'rt rakat o'qiydi.

**Savol:** O'n besh kundan kam turishni niyat qilsachi.

**Javob:** Qasd qiladi, tamom o'qimaydi.

**Savol:** Musofir bir shahar yoki qishloqqa kirdi uni niyatida o'n besh kun turish yo'q, balki erta ketdim yoki indin ketdim deydi hukmi qanday?

**Javob:** To'rt rakatliklarni ikki rakat o'qiydi, agarchi yillar tursa ham.

**Savol:** Musulmon lashkarlari dushman yeriga kirdilar va o'n besh kun turishni niyat qildilar, namozni to'liq o'qiydilarimi?

**Javob:** Namozni qasd o'qiydilar, niyatlari e'tiborsiz.

**Savol:** Musofir to'rt rakatlik namozda muqimlarga imom bo'ldi, namozni qasd qiladimi?

**Javob:** Ha, namozni qasd qiladi, orqadagi muqimlar keyin ikki rakat qo'shib tamom qiladilar.

**Savol:** Musofir imom muqtadiylarga biror nima bildiradimi?

**Javob:** Ha mustahabdur aytmoqligi salomdan so'ng bizlar musofirmiz namozlaringizni tamom o'qinglar deb.

**Savol:** Musofir Makka va Minoda o'n besh kun turishni niyat qilsa u musofirmi yo muqim.

**Javob:** U musofirdur chunki iqomat bir joyda niyat qilinadi.

**Savol:** Musofir o'z shahriga kirdi o'n besh kun turaman deb niyat qiladimi?

**Javob:** Musofir o'z vataniga bir soatga kirsam ham namozini to'la o'qiydi, niyat iqomat shart emas.

**Savol:** Bir odamni vatani aslisi bor edi u yerda tug'ilgan va yashagan. Keyin u yerni tashladi va boshqa joyni vatan qildi, avvalgi vataniga qaytib keldi bir ish bilan namozni qasd qiladimi yoki yo'q?

**Javob:** Masofasi muddati safar bo'lsa qasd qiladi. Chunki payg'ambar alayhissalom Makkai Mukarraman Madinai Muanavvaraga ko'chdilar keyin Makkaga kirganlarida qasr o'qidilar.

**Savol:** Musofir safarda namozni favt qildi keyin vataniga qaytib kirdi xaligi namozni o'qimoqchi yoki muqim o'z vatanida namozni favt qildi, bas safarga chiqdi haligi favt bo'lgan namozni safarda o'qimoqchi ikkalasi qanday qiladi.

**Javob:** Bunda asl qazolar adodek, safarda favt bo'lgan namoz vatanda o'qilsa ikki rakat. Vatanda favt bo'lgan namoz safarda to'rt rakat.

**Savol:** Bu safardagi ruxsat itoatlik va osiy yo kishiga barobarmi?

**Javob:** Bu ruxsatda mutid va osiyga barobar.

**Savol:** Hozirgi kunda avtomobil va tayyoralarda yurishadi hech mashaqqatsiz shunday bo'lsa ham qasr o'qiydilmirmi?

**Javob:** O'z vatanlaridan chiqib muddatli safarga borsalar qasd qiladilar, safar mashakqat o'rniga qoimdir.

**Savol:** Musofir ikki namozni jamlab o'qiydimi peshin bilan asrni, shom bilan xuftonni?

**Javob:** Bunday qilish fe'lan joiz vaqtan joiz emas. Chunki Alloh aytadi «Albatta namoz mo'minlar uchun vaqtli farzdir».

**Savol:** Fe'lan joiz vaqtan joiz emas deganingiz nima?

**Javob:** Fe'lan jamlash peshinni oxiriga surib, asrni tezlab, peshinni oxirgi vaqtida, asrni avvalgi vaqtida, shomni oxiriga surib oxirgi vaqtida o'qib, xuftonni avvalgi vaqtida bu jam fe'landur, fuqaholar urfida «al-jamu'ssuvariyy» deyiladi. Ammo bir namozni boshqa bir namoz vaqtida birini surib yoki tezlab o'qish bizni mazhabda joiz emas. Mana bu jamul vaqtni, fuqaxolar «aljamul haqiqiy» deb ataydilar.

## JUMA NAMOZI

**Savol:** Namozni jumani hukmi nima?

**Javob:** U farzi ayndur: erkak, bolig', oqil, ozod, sog'lom, ko'zi ochiq, muqim kishiga.

**Savol:** O'qish uchun shartlar bormi?

**Javob:** Ha buni quyidagi shartlari bor.

Birinchi: Shahar bo'lishi yoki shaharni katta bo'lishi, qishloqlarda joiz emas.

Ikkinchi: U yerda sulton yashashi yoki sulton buyurgan kishi bo'lishi yoki musulmonlar ittifoq qilib saylagan imom bo'lishi kerak.

Uchinchi: Peshin vaqti bo'lishi peshindan avval yoki peshinni vaqti chiqqandan so'ng mumkin emas.

To'rtinchi: Namozdan ilgari xutba o'qish, subxonalloh deguncha qisqa bo'lsa ham. Bu imom A'zamda, ammo ikki shogirdlari aytdilar: uzoq xutba o'qilishi kerak deb.

Beshinchi: Jamoat eng ozi imom A'zam va imom Muhammad nazdilarida imomdan tashqari uch kishi. Imom Abu Yusuf nazdilarida, imomdan tashqari ikki kishi.

**Savol:** Juma namoziga hozir bo'lmaslik uchun qanday uzrlar bor?

**Javob:** Ular quyidagicha:

1. Musofir muddat safarda bo'lsa.
2. Ayol bo'lishi.
3. Kasal bo'lishi.
4. Ko'r bo'lishi.
5. Qullik.

Shularga juma vojib emas.

**Savol:** Agar shular juma namoziga hozir bo'lsalar odamlar bilan o'qisalar shu vaqtni farzidan ado topadimi?

**Javob:** Shu farz bo'lib ado topadi.

**Savol:** Agar qul, yo kasal, yo musofir, yo ko'r juma namoziga imom bo'lsa, uning orqasida ozod, sog'lom, muqim kishilar bo'lsa, Imomni va muqtadiylarni namozi durusg bo'ladimi?

**Javob:** Ha hammalarini namozlari durust.

**Savol:** UZR bilan juma namozini o'qiyolmagan kishi nima qiladi?

**Javob:** Peshin o'qiydi, har bir jumaga kelmagan kishi peshin o'qiydi. Jumaga bormasligi bilan osiy bo'lsa ham.

**Savol:** Be uzr kishi juma kuni imomdan avval peshin o'qidi shu durustmi?

**Javob:** Bu haromdir.

**Savol:** Shu ishni qilsa peshin vaqti chiqsa o'qigan namozi shu vaqtni farzidan hisob bo'ladi?

**Javob:** Farzdan hisoblanadi.

**Savol:** Peshin o'qigan kishi keyin jumaga yuzlansa imom bilan jumani o'qisa nima bo'ladi?

**Javob:** Jumasi durust, jumaga yuzlanishi bilan o'qigan peshin bekor bo'ladi imom A'zam qovllarida. Ammo ikki shogirdlarini qovlida to imom bilan jumaga kirmaguncha peshin bekor bo'lmaydi.

**Savol:** Uzrlklar, qamoqdagilar juma kuni peshinni jamoat bo'lib o'qiydilmirmi?

**Javob:** Makruhdir jamoat, tanho- tanho o'qiydilar.

**Savol:** Jumada bir rakatdan qolgan kishi nima qiladi?

**Javob:** Imomdan keyin o'zi bir rakat qo'shib tugatadi.

**Savol:** Tashaxxudda yoki sajdai saxvda topsa nima qiladi?

**Javob:** Jumani ado etadi imom Azam va imom Abu Yusufda, ammo imom Muhammad nazlilarida imom bilan ikkichi rakatni yarmidan ko'prog'ini topsa juma bo'ladi, agar imom bilan ikkikchi rakatni yarmidan ozrog'ini topsa shu namozini to'rt rakat deb davom ettiradi.

**Savol:** Jumani azonidan keyin oldi sotdi qanday?

**Javob:** Qachon juma kuni jumaga azon aytilsa Oллоh zikriga shoshilinglar va oldi sotdini to'xtatinglar deganligi uchun.

**Savol:** Imom movizaga chiqqandan so'ng namoz yoki gaplar nima bo'ladi.

**Javob:** Qachon imom chiqsa namoz va gapni to'xtatadilar hatto xutbani tugatguncha, Bu imom A'zamni gaplari. Ammo ikki shogirdlari modomiki xutbani boshlaguncha gaplashsa zarari yo'q debdurlar. Ularni har uchalalarini Alloh rahmat qilsin.

**Savol:** Jumada necha marta azon aytiladi?

**Javob:** Ikki marta.

Birinchi: Oftob qiyomdan og'sa, shu paytda odamlar jumaga yuzlanadilar, ishlarini tashlaydilar zikrga shoshiladilar.

Ikkinchi: Qachon imom minbarga chiqsa va o'tirsa Imomni oldida azon aytiladi, imom

ikkita xutba o'qiydi, imom xutbadan forig' bo'lsa iqomat aytiladi.

**Savol:** Sunnaga muvofiq xutba qanday?

**Javob:** Imom tahorat bilan tik turib ikki xutba o'qiydi va o'rtasida biroz o'tiradi.

**Savol:** Jumada imom qiroatni jaxriy qiladimi?

**Javob:** Ha jaxriy qiroat qiladi.

**Savol:** Uzoqdan o'tirgan kishi xutbani eshitmasa nima bo'ladi?

**Javob:** Uzoqdan o'tirgan ham yaqindek, har bir uzoq yaqindagi kishi eshitsa yo eshitmasa jim quloq solib turishi vojib.

## IKKI IYD NAMOZI

**Savol:** Ikki xayit namozini hukmi nima?

**Javob:** Har bir juma vojib bo'lgan kishiga u vojibdur.

**Savol:** Xayit namozi uchun vaqtni boshlanishi va oxiri qachon?

**Javob:** Avvali vaqti kun nayza bo'yi ko'tarilgandan , boshlab oxiri zavolgacha. Lekin qurbon hayiti namozini tezroq o'qish mustahab, orqasida qurbonlik so'yish borligi uchun Ramazon hayitini kechroq o'qish mustahab.

**Savol:** Ikki xayit kunlari nimalar sunnatdir?

**Javob:** Bu kunlarda misvoq qilish, g'usl, xushbuy narsalar ishlatish eng yaxshi kiyimini kiyish ramazon xayiti bo'lsa bomdoddan so'ng toq xurmo yeyish, yo biror shirin narsa, namozgohga chiqmasdan avval fitr sadaqasini berish, qurbon xayiti bo'lsa iyd namozini o'qiguncha ovqat yemaslik, namozdan so'ng qurbonlik so'ymoqlik va undan yemoqlik.

**Savol:** Ikki namoz kuni yo'lda takbir aytiladimi?

**Javob:** Yo'lda takbirni jaxriy aytiladi, agar qurbon namozi kuni bo'lsa har uchala imomimiz qavllarida. Ammo iyd fitr kunida imom Abu Yusuf va imom Muhammadda aytiladi, imom Abu Hanifada aytilmaydi. Alloh uchalalarini rahmat qilsin.

**Savol:** Namozgohga borishda tayin sunnat bormi?

**Javob:** Iyd kunlari namozgohga borishda mustahab shuki boshqa yo'ldan kelsin. Bir yo'ldan borib shu yo'ldan qaytmasin.

**Savol:** Iyd namozidan ilgari (namozi) nafl o'qiladimi?

**Javob:** Iyddan avval va so'ng nafl o'qilmaydi.

**Savol:** Ikki iyd namozini kayfiyati qanday?

**Javob:** Imom va odamlar shahardan tashqariga chiqadilar. Imom odamlar bilan ikki rakat o'qiydi, avval takbiri taxrima aytadi, keyin sano o'qiydi, keyin uch marta jaxriy takbir aytadi, hamma takbirda qo'llarini ko'taradi, keyin ichida a'uzu bismillah aytadi, keyin surai fotiha o'qiydi va zammi sura o'qiydi jaxron: keyin bu rakatni tamomiga yetkazadi. Ikkinchi rakatga turganda ichida bismilloh aytadi. Surai fotiha va zammi sura qiladi jaxran. Agar ikkinchi rakatni qiroatidan forig' bo'lsa, qo'llarini ko'tarib uch marta jaxriy takbir aytadi. Keyin Ruku uchun takbir aytadi, qo'lni ko'tarmasdan bu rakatni boshqa namozlardek tamomiga yetkazadi. Attaxiyotdan so'ng salovat payg'ambarimizga aytib salom beradi.

**Savol:** Takbiri zavoidlar o'rtasida qo'lini tashlab turadimi?

**Javob:** Takbiri zavoidlar o'rtasida qo'llarini tashlab turadi, magar birinchi rakatda uchinchi takbirdan so'ng qo'llarini bog'lab kindigi ostiga qo'yadi.

**Savol:** Bu iyd namozida Imomni amali, muqtadiylar nima qiladi?

**Javob:** Muqtadiylar har bir ishda ergashadilar, magar a'uzu, bismillah va qiroatii qilmaydilar, jaxriy takbir aytmaydilar, balki ichlarida aytadilar.

**Savol:** Iyd namozlarida xutba bormi?

**Javob:** Ikki iyd namozida ikki xutba sunnatdir. Imom xutba o'qiydi va iyd hukmlarini o'rgatadi, fitr iydida sadaqa'i fitr axkomini, qurbonlik masalalarini, takbiri tashriq masalarini iydi azxoda.

**Savol:** Ikki iydda xutbani hukmi nima?

**Javob:** U sunnatdir va namozdan so'ng o'qiladi.

**Savol:** Muqtadiylarga eshitmoqlik nimadir?

**Javob:** Har bir xutbani eshitmoq vojibdur juma yoki iyd xutbasi bo'lsin..

**Savol:** Bir odam iyd namozidan kech qoldi qazosini o'qiydimi?

**Javob:** Iyddan qolgan kishiga qazo yo'q.

**Savol:** Yangi oy ko'rinmay qolsa, peshindan keyin, qozini oldida oy ko'rilgani ma'lum bo'lsa iydni qachon o'qiydilar?

**Javob:** Ertasiga o'qiydilar.

**Savol:** Biror voqiya sodir bo'lib ikkinchi kuni o'qishdan odamlarni man' etilsa qachon o'qiladi?

**Javob:** Ikkinchi kunidan so'ng o'qilmaydi.

**Savol:** Biror uzr paydo bo'lsa iydi qurbonni birinchi kuni o'qishdan, qachon o'qiladi?

**Javob:** Ikkinchi kuni yoki uchinchi kuni o'qiladi, undan so'ng o'qilmaydi.

**Savol:** Takbiri tashriq nima?

**Javob:** U har bir farz namozdan so'ng aytiladigan ushbu so'zlardir: Allahu akbar, Allahu akbar, la iloha illallohu vAllahu akbar, Allahu akbar, valillahil hamd.

**Savol:** Bu tadbirni qachondan boshlab qachongacha aytiladi?

**Javob:** Arafa kuni bomdoddan boshlab, iyd kunini asrigacha aytiladi imom A'zamni qovllarida, ikki shogirdlarini qovllarida oxirgi vaqti to'rtinchi hayitni oxiri fatvo ana shungadir.

**Savol:** Bu takbirni oshkora aytiladimi yo maxfiy?

**Javob:** Imom va muqtadiylar oshkora aytadilar, magar ayollar ichida aytadi.

**Savol:** Imom bu takbirni unutsa, muqtadiylar aytadimi?

**Javob:** Ha muqtadiylar aytadi.

**Savol:** Bu takbirni hukmi nima?

**Javob:** Besh vaqt farz va juma namozi o'qigan kishiga vojibdir. Salomdan so'ng darhol aytadilar.

## **KUSUF VA ISTISQO NAMOZI**

**Savol:** Oftob tutilganda musulmonlar nimaga buyurilganlar?

**Javob:** Qachon kun tutilsa imom odamlar bilan ikki rakat namoz o'qiydi. Azon va iqomatsiz, Nafl namozlardek, har bir rakatda bir ruku va ikki sajda qiladi, uzun qiroat va Allohga duo qiladi oftob ochilguncha.

**Savol:** Qiroatni jahriy qiladimi yo mahfiy?

**Javob:** Imom A'zamni qovllarida maxfiy va imom Abu Yusuf bilan Muhammad jaxriy qiroat qiladi. Alloh uchala Imomni rahmat qilsin.

**Savol:** Bu namozni odamlar bilan qaysi imom o'qiydi.

**Javob:** Juma namozini o'qiydigan imom o'qiydi.



**Savol:** Jumani imomi kelmasachi?

**Javob:** Odamlar yakka-yakka o'qiydilar.

**Savol:** Ushbu kususuf namozida xutba bormi?

**Javob:** Bunda xutba yo'q.

**Savol:** Oy tutilsa musulmonlar nima qiladilar?

**Javob:** Yakka-yakka namoz o'qiydilar.

**Savol:** Bu ikki kususufda namozdan boshqa amal bormi?

**Javob:** Oysha roziyallohu anho rivoyat qiladilar: Albatta payg'ambar alayhissalom aytdilar: albatta kun bilan oy Allohni hujjatlaridan ikki hujjatdir birovni o'limi yoki hayoti uchun tutilmaydilar, qachon ularni tutilganini ko'rsalaring Allohga duo qilinglar, namoz o'qinglar va sadaqa beringlar. Asmoa roziyallohu anho aytdilar: payg'ambar alayhissalom buyurdilar kun tutilganda qul ozod qilishga.

## ISTISQO NAMOZI

**Savol:** Istisqoni ma'nosi nima?

**Javob:** U odamlar qahatchilikka qolganda yomg'ir so'ramoqlikdir.

**Savol:** Istisqo namozida nima qilinadi?

**Javob:** Bunda namoz o'qish shariy, lekin vojib emas. Agar duo va istig'for bilan kifoyalansalar joiz. Payg'ambar alayhissalom goho istisqo namozi o'qiganlar. Ba'zi paytlar Allohga duo qilganlar minbarlarida turib juma kunida yomg'ir so'rab namoz o'qimaganlar. Shularni barchasi payg'ambarimizdan sodir bo'lgan.

**Savol:** Ba'zi fiqh kitoblarida albatta imom A'zam rahmatullohi alayh aytdilar, istisqoda sunnatga muvofiq namoz yo'q deb buni ma'nosi nima?

**Javob:** Buni ma'nosi istisqoda tayin namoz yo'qdir sunnati muakkada emas, istisqo namozsiz mumkin bo'lmaydigan darajada emas.

**Savol:** Agar imom odamlar bilan istisqo namozini o'qimoqchi bo'lsa qanday qiladi?

**Javob:** Imom odamlar bilan shahardan tashqariga chiqadi piyoda, horlik bilan xudodan qo'rqib boshlarini quyi solib, odamlar bilan imom ikki rakat namozini jahriy o'qiydi, keyin odamlarga qarab ikkita xutba o'qiydi, xutba asnosida ridosini aylantirib oladi, ya'ni pastini tepaga va tepasini pastga qiladi. O'ng tomonini chapga, chapini o'nga aylantirib oladi. Qavm bunday qilmaydi. Xutbadan so'ng qiblaga qaraydi. Duoga mashg'ul bo'ladi, odamlar qiblaga qarab duo qilgan, istig'for aytgan, tavba qilgan xolda bo'ladilar. Loyiq sazovorki zaif, keksa kishilarni, keksa ayollarni, bolalarni xursand qilmoqliklari.

**Savol:** Bu aytganingizdan ham boshqa ish bormi?

**Javob:** Ha namozga chiqishdan avval exson qilsinlar.

## **RAMAZON KECHALARIDA TURMOQLIK**

**Savol:** Ramazon oyida farz va odatdagi sunnatlardan boshqa namoz bormi?

**Javob:** Aytdilar payg'ambar alayhissalom kim ramazonda ishonch bilan, savobni umid qilib ro'za tutsa, ilgari qilgan gunohlari kechiriladi. Kim ramazon kechalarida umid bilan va savob umid qilib tursa uni gunohlarn kechiriladi. Shu xadisdan zohir bo'ldi albatta. Ramazon kechalarida turishlikda ziyodalik bor ekan boshqa oylarda o'qigan namozlarga qaraganda.

**Savol:** Ramazon oyida odamlar kechasi qanday turadilar?

**Javob:** Imom odamlar bilan xuftondan so'ng yigirma rakat namoz o'qiydi, har ikki rakatda salom beradi besh tarvixa bilan tugallaydi.

**Savol:** Besh tarvixani ma'nosi nima?

**Javob:** Har to'rt rakat tarvixadur, shuning uchun tarovix deb ataladi. Har to'rt rakatdan so'ng imom odamlarga dam bermoq uchun to'rt rakat miqdoricha o'tiradi .

**Savol:** Shu namoz ayollarga ham sunnatmi?

**Javob:** Ramazon kechalarida yigirma rakat tarovix namozi erkak va ayollarga sunnati muakkadadur. Erkaklar masjidida jamoat bo'lib o'qiydilar. Ammo xotinlarga uylar yaxshiroq.

**Savol:** Erkaklarga tarovixda jamoatni hukmi nima?

**Javob:** U sunnati kifoyadur. Bir masjid axillari hammasi tark qilsa hamma gunohkor bo'ladi.

**Savol:** Ramazon oyida Vitrni jamoat bilan o'qiladimi?

**Javob:** Imom tarovixdan forig' bo'lgach, odamlar bilan jamoat bo'lib vitr o'qiydi hamma rakatda qiroatni jaxriy qiladi va bu qunutni maxfiy o'qiydi.

**Savol:** Ramazondan boshqa vaqtda ham jamoat bilan vitr o'qiladimi?

**Javob:** Ramazondan tashqari jamoat bilan Vitr o'qilmaydi.

## **XAVF NAMOZI**

**Savol:** Dushman xujum qilsa qattiq havf bo'lsa imom odamlar bilan qanday namoz o'qiydi?

**Javob:** Imom askarlarni ikkiga bo'ladi. Bir toifasi dushman tomonga boradi, bir toifasini orqasiga olib ular bilan bir rakatni to'la o'qiydi. Ikkinchi sajdadan boshini ko'targandan so'ng bular dushman tomonga ketadilar. O'qimagan toifa keladi imom ular bilan bir rakat o'qiydi imom tashaxxud o'qiydi va salom beradi, odamlar salom bermaydilar, vaqtiyki imom salom bersa odamlar dushman tomoniga ketadilar, avvalgi toifa keladi, qiroatsiz qolgan rakatlarini o'qiydilar, tashaxxud o'qiydilar va salom beradilar, dushman tomonga ketadilar, keyin ikkinchi toifa keladi, qolgan rakatlarini qiroat bilan o'qiydilar tashaxxuddan so'ng salom beradilar.

**Savol:** Imom muqim bo'lsa qanday qiladi?

**Javob:** Har qaysi toifa bilan to'rt rakatli farzni ikki rakatdan o'qiydi.

**Savol:** Shom namozi bo'lsa qanday o'qiydi?

**Javob:** Birinchi toifa bilan ikki rakat, ikkinchi toifa bilan bir rakat o'qiydi.

**Savol:** Agar havf kuchayib ketsa shu darajadagi jamoat bilan o'qishga qodir bo'lmasalar, hatto otdan tushishga imkoni bo'lmasa qanday qiladilar?

**Javob:** Otliq tanho-tanho o'qiydilar ruku va sajdani imo bilan qiladilar.

**Savol:** Qiblaga qarashga qodir bo'lmasalarchi?

**Javob:** Imkoni bor tarafga qarab o'qiydilar.

**Savol:** Agar ba'zilar otdan yerga tushgan bo'lsalar qanday o'qiydilar.

**Javob:** Yurmasdan ruku va sajda qiladilar, agar ruku va sajdaga qodir bo'lmasalar ikkalasini imo bilan ado qiladilar.

**Savol:** Agar jang qilishga majbur bo'lsalar va namozda turib jang qilsalar namozlari nima bo'ladi?

**Javob:** Namozda turib jang qilsalar yoki yursalar namozlari buziladi. Chunki u amali kasirdir.

**Savol:** Dushman hujum qilsa namoz o'qishga ruku sajda va imo bilan qodir bo'lmasalar, o'zlari tanho-tanho yoki imomga iqtido qilib nima qiladilar?

**Javob:** Xandaq urushida payg'ambarimiz taxir qilganlaridek namozni taxir qiladilar va qodir bo'lganlarida o'qiydilar.

## KA'BA ICHLARIDAGI NAMOZ

**Savol:** Alloh taolo ka'ba baytul xaramni musulmonlarga qibla qildi, biror kishi ka'bani ichlarida namoz o'qisa namozi joizmi?

**Javob:** Ka'bani ichida o'qilgan farz va nafl joizdur.

**Savol:** Imom ka'bani ichida namoz o'qisa va ba'zi kishilar orqalarini imomga qilib o'qisalar namozlari durustmi?

**Javob:** Ha namozlari durust.

**Savol:** Ulardan ba'zisi yuzini Imomni yuziga qilib o'qisa nima bo'ladi?

**Javob:** Durust, lekin makruhdir.

**Savol:** Bir odam orqasini Imomni yuziga qilsa namozi joizmi?

**Javob:** Namoz joiz emas imomdan o'tib ketgani uchun.

**Savol:** Imom masjidul xaramda ka'bani atrofida namoz o'qisa odamlar atrofida xalqa bo'lsalar namozlari joizmi?

**Javob:** Hammalarini namozlari joizdir.

**Savol:** Bu hukm barchaga barobarmi yoki ba'zi odam mustasnomi?

**Javob:** Bu hukmdan istisno qilinadi bir kishiki imom bilan bir tarafda turib ka'bani devoriga imomdan yaqinroq turgan kishini namozi durust emas. Chunki u imomdan o'tib ketdi. Ammo imomdan boshqa tarafda turib ka'baga yaqinroq bo'lsa uni namozi durust.

**Savol:** Ka'bani ustilarida namoz joizmi?

**Javob:** Ha joiz lekin hurmatsizlik uchun makruh.

## JANOZA HUKMLARI

**Savol:** O'limga yaqin bo'lgan kishini oldida hozir bo'lganlar nima qiladilar?

**Javob:** O'limga hozir bo'lgan kishini o'ng tomoni bilan qiblaga qaratib qo'yiladi va ikki shahodat kalimasini eshittirib aytib turiladi — agar o'lsa jag'ini bog'laydilar, ko'zini sekin yumadilar xotinlarni hukmi ham shunday.

## MAYITNI YUVISH

**Savol:** Odamlar o'lsa qanday yuviladi?

**Javob:** Agar yuvishni xohlasalar yotqizadilar, xushbo'y narsa bilan uch yoki besh marta yotqizilgan so'riga aylantiradi. Ovratiga bir lattani to'siladi, kiyimlari yechiladi og'iz

burnini yuvmasdan tahorat qildiradilar. Boshi va sochini xitmiy bilan yuvadilar keyin chap tomoni bilan yonboshlatadilar va o'ng tomonini ostiga suv o'tguncha yuvadilar. Keyin o'ng tomoni bilan yonboshlatib chap tomonini ostiga suv o'tguncha yuvadilar, keyin yuvgichi o'tkizib o'ziga suyaydi va qornini sekin silaydi, agar biror narsa chiqsa yuvadi. Lekin qayta yuvintirmaydi. Keyin chap tomoni bilan yonboshlatib kofurlik suv quyib yuvadi. Shu bilan uch marta tamom bo'ldi.

**Savol:** Pokizalik uchun suvdan boshqa narsa ham ishlatiladimi?

**Javob:** Sidr va xorz kabi xushbo'y narsalar bilan suvni qaynatiladi, agar sovun iste'mol qilinsa joiz.

**Savol:** Bu narsalar topilmasachi?

**Javob:** Xolis suv bilan yuviladi.

## O'LIKNI KAFANLASH

**Savol:** Erkak va ayolga qanchadan kafan va uni qanday ishlatiladi?

**Javob:** Buni quyida keng bayon qilinadi:

1. Erkak kishiga sunnatga muvofiq kafan, izor, ko'ylak va lifofa kifoya qilgudek kafan, izor va lifofa topilmasa boricha uzr bo'lmaganda bir kiyimni o'zi makruh. Izor boshidan oyoqqacha izma, chuntak va yengsiz. Kafanlash tartibi, kafanlarni toq xushbo'y qilinadi. Lifofani yozib uni ustidan izorni yoziladi keyin mayitni izorni ustiga qo'yiladi. Mayitni yuvilgan suvini artilgandan so'ng, kafanni xo'l qilmasligi uchun boshiga va soqoliga kofurni sajda qiladurgan a'zolariga, peshonasi, burni, ikki kafti, ikki tizzasi va panjalariga. Avval qamisni kiydiriladi, ya'ni qamisni yarmini izorni ustiga yoziladi, ikkinchi yarmini bosh tomonga o'raladi. Keyin izorni mayitga o'raladi chap tomondan, keyin o'ng tomondan, keyin lifofa ham shunday toki chap tomonni tepasida o'ng tomon bo'lsin.

4. Kafanni ezilib ketishidan qo'rqilsa ikki tomonidan biror narsa bilan bog'lab qo'yiladi.

5. Xotin kishini kafani sunnatga muvofiq, dir', izor, ximor lifofa va bir latta bilan ko'kragi tortib qo'yiladi. Dir qomisdur. Kafanni kifoyasi izor lifofa ximordur, yo'qlik vaqtida topilgani. Uzrsiz bo'lganda ikki qavat bo'lishi makruh.

6. Xirqani eni ko'krakdan songacha bo'lishi kerak.

7. Ximor uch gaz bo'lishi kerak.

8. Ayol kishini kafanlash kayfiyati Kafanlarini uch yo besh bor xushbo'y qilinadi. Avval lifofani so'ng uni ustidan izorni yoziladi, keyin mayitni izorga qo'yiladi, dir'ni kiygiziladi, sochini ikki o'rim qilinadi ko'kragini ustiga dir'ni ustidan uni ximorni o'raladi, keyin Xirqani qomisni ustidan bog'lanadi, keyin izorni keyin lifofani o'raladi. Kafanni ikki tarafini tugib qo'yiladi.

**Savol:** Mayitni sochi taraladimn?

**Javob:** Yo'q sochi va soqoli taralmaydi, Tirnoqlari olinmaydi va sochi kesilmaydi.

## O'LIKKA NAMOZ O'QISH

**Savol:** Mayitga qanday namoz o'qiladi?

**Javob:** Unga namoz o'qishni iroda qilsalar imom mayitni ko'kragi barobarida turadi, odamlar orqasida, imom ularni uch safga bo'ladi. Imom va muqtadiylar takbir aytadilar. Alloh taologa sano aytadilar va hamd aytadilar, agar xohlasalar subxonakallohummani oxirigacha o'qiydilar, keyin ikkinchi takbir aytadilar va payg'ambar alayhissalomga salovot aytadilar, keyin uchinchi marta takbir aytib o'likni haqqiga, musulmonlarni haqqiga tirik va o'liklarga, keyin to'rtinchi takbirni aytib salom beradilar.

**Savol:** Janoza namozida yosh bolaga qaysi duo o'qiladi?

**Javob:** Uni haqqiga duo qilganda «Allohummajalhulano» farotanni oxirigacha o'qiydi.

**Savol:** Janozada takbir aytganda qo'llarini ko'taradimi.

**Javob:** Qo'llarini birinchi takbirdan.

**Savol:** Janoza namozini o'qishga shart bormi?

**Javob:** Shart yo'q. Agar bir erkak yoki bir xotin o'qisa ham ado topadi. Ya'ni farzi kifoya ado topadi.

**Savol:** Janozada nima shart va farzlar bor?

**Javob:** Unda shart ikki betahoratlikdan pok bo'lmoq kiyim va joyni pok bo'lishi, yana shart kilindi o'likni pok bo'lmog'i va namozxonlarni oldiga qo'yilmoqligi. Unda ikki narsa farzdur. Qiyom va to'rt takbir. Boshqa ishlar sunnatdir.

**Savol:** Besh vaqt namoz uchun bino qilingan masjidlarda janoza o'qiladimi?

**Javob:** Masjidda janoza makruhdir. Chunki payg'ambar alayhissalom masjidni tashqarisiga qo'ydirar edilar

**Savol:** Janozaga imom bo'lishga kim haqliroq?

**Javob:** Agar hozir bo'lsa sulton kelmasa imom keyin valiy(o'likni egasi).

**Savol:** Valiy yoki sultondan boshqa odam o'qisa valiyga joizmi qaytarib o'qimoqligi?

**Javob:** Ha, Unga joiz.

**Savol:** Valiy o'qigandan so'ng boshqa odam qaytib o'qishi mumkinmi?

**Javob:** Keyin boshqa odam o'qishi joiz emas.

**Savol:** Janoza o'qilmay ko'milsa nima bo'ladi?

**Javob:** Uch kengacha o'qish mumkin so'ng o'qilmaydi.

## **O'LIKNI KO'TARISH VA KO'MISH**

**Savol:** Erkaklar o'likni qanday ko'tarib olib boradilar?

**Javob:** Ko'tarmoqchi bo'lsalar tobutni to'rt sonlarida ushlaydilar, lo'killatmasdan tez olib boradilar. Ko'targuvchi kishi, oldingi o'ng tomonini o'ng yelkasiga qo'yadi, keyin orqangi o'ng tomonni o'ng yelkasiga chap yelkasiga, so'ng oxirgi chap tomonni chap yelkasiga qo'yadi.

**Savol:** Qabristonda odamlar o'tiradilarmi?

**Javob:** Qabristonda o' tirish joiz, lekin janozani yelkadan yerga qo'yilmasdan avval o'tirish makruh.

**Savol:** Qabr qanlay bo'ladi?

**Javob:** Qabrni yarim odam bo'yi yoki ko'krak barobarida qaziladi. Bu a'lo va afzal qabrni lahad qilinadi, yer zax bo'lsa yorma go'r qilinadi(ya'ni shaq).

**Savol:** Qabrga o'likni qanday kirgiziladi?

**Javob:** Qibla tomondan kirgiziladi. Lahadga qo'yguvchi odam shunday deydi, Bismillahi va billahi va alo millati rosulillahi sallollohu alayhi va sallam. O'ng tomoni bilan yuzini qiblagaga moyil qilib qo'yiladi. Yonboshlaganga o'xshatib, kafanni tugundarini yechib qo'yiladi. Laxadni og'ziga hom g'isht teriladi, so'ng tuproq quyiladi.

**Savol:** Qabrni og'ziga pishiq g'isht, yog'och, qamish ishlatilsa nima bo'ladi?

**Javob:** Pishiq g'isht bilan yog'och makruh, qamishni zarari yo'q.

**Savol:** Tuproq qo'yilgandan so'ng qabrni qanday ko'tariladi?

**Javob:** Qabrni tepasi cho'qqi qilib ko'tariladi, tekislab yuborilmaydi, bir qarichdan baland ko'tarilmaydi.

**Savol:** Qabrni usti bo'r va tsement qilinsa hukmi nima?

**Javob:** Bu hammasi gunoh payg'ambarimiz naxi qilganlar.

**Savol:** Bola tug'ilib ovoz qilsa, so'ng o'ldi namozi nima bo'ladi?

**Javob:** Tug'ilib ovoz chiqarsa yoki hayotni boshqa alomati bo'lsa nom qo'yiladi, yuviladi janoza o'qiladi.

**Savol:** Hayot nishonasi bo'lmaschi?

**Javob:** Bir lattaga o'raladi va namoz o'qilmasdan ko'miladi.

## SHAHIDNING HUKMLARI

**Savol:** Ba'zi hukmlarda shahidniki boshqacha bo'ladimi?

**Javob:** Ba'zi ishlarda boshqacha bo'ladi.

**Savol:** O'sha hukmlarni bayon qiling.

**Javob:** Kofirlar o'ldirgan musulmon yoki jang ma'rakasida topilib unda jarohat asari bo'lib shu jarohat bilan o'lgan bo'lsa, yoki musulmonlar nohaq o'ldirgan bo'lsalar va o'ldirish bilan qisos vojib bo'lmagan bo'lsa, kafanlanadi, namoz o'qiladi yuvilmaydi.

**Savol:** Agar shahid bo'lgan junub bo'lsa yuviladimi?

**Javob:** Imom Abu Xanifa qavllarida yuviladi, shogirdlari aytdilar yuvilmaydi. Va shunday ixtilof qilnadi yosh bola shaxid bo'lsa imom A'zam yuviladi dedilar va ikki shogirdlari yuvilmaydi dedilar. Alloh ularni rahmat qilsin.

**Savol:** Bildik shahidni boshqa o'liklar singari yuvilmas ekan ustidagi qonlar yuviladimi, kiyimlari yechiladimi?

**Javob:** Qonlar yuvilmaydi kiyimlar yechilmaydi lekin po'stin, telpak, maxsi va qurollari yechiladi.

**Savol:** Jang maydonida yaralandi, yedi, ichdi va davolandi keyin o'ldi, shahid hukmidami?

**Javob:** Alloh ta'olo nazlida shahid hukmida, shahidni savobini topadi inshoollohu ta'olo, ammo bandalarga tegishli hukmlarda yuvilmaydigan shahid hukmida emas, mana shu yeyish, davolanishni irtisos deyiladi.

**Savol:** Bir kishi yaralandi jang maydonida bir namozni vaqti o'tguncha tirik qoldi, aqli joyida yoki jang maydonidan tirik olib chiqildi hukmi nima?

**Javob:** Bu ham irtisosdan, shuning uchun boshqa o'liklardek yuviladi.

**Savol:** Bir kishini darra urib yoki qasos uchun o'ldirildi hukmi nima?

**Javob:** Yuviladi va namoz o'qiladi.



**Savol:** Podshohga karshi bo'lgani uchun yoki qaroqchiligi uchun o'ldirildi namoz o'qiladimi?

**Javob:** Unga namoz o'qilmaydi.

## KITOBUZ ZAKOT

**Savol:** Zakotni lug'atiy va shar'iy ma'nosi nima?

**Javob:** Zakotni lug'atiy ma'nosi tozalik va o'sish. Shariatda nisob egasi shariat ta'in qilgan bir miqdor molni faqir kishiga xudo uchun undan foyda qilmasdan bermoqligi.

**Savol:** Islomda zakotni hukmi nima?

**Javob:** U Alloh ta'oloni farzlaridan biri. Islomni ruknlaridan biri. Alloh ta'olo o'z kitobida buyurgan (namoz o'qinglar va zakot beringlar). Kim zakotni farzligiga inkor qilsa u kofirdir. Islom millatidan chiqadi.

## ZAKOT KIMGA VOJIB

**Savol:** Kimga zakot vojib bo'ladi?

**Javob:** U musulmon, ozod, balog'atga yetgan, aqli rosa kishiga, agar, moli to'la nisobga yetsa, o'ziniki bo'lsa va pulga ega bo'lganiga bir yil to'lsa.

**Savol:** To'la nisob nima?

**Javob:** Kumushdan 200 tangaga ega bo'lsa, yoki oltindan 20 misqolga ega bo'lsa yoki o'sib turgan puldan oltin yoki kumushni miqdoricha narsaga ega bo'lsa.

**Savol:** Bir kishini moli nisobga yetadi, uni qarzi bor, zakot farz bo'ladimi?

**Javob:** Bunday qaraydi: agar qarzi molini hammasiga teng kelsa unga bermaydi. Agar moli qarzidan ortiq bo'lib ortishi nisobga yetsa o'sha ortig'iga zakot beradi.

**Savol:** Savdodagi molga zakot beradimi?

**Javab:** Ha, Agar tijorat moli ikki nisobdan biriga yetsa, ya'ni kumushdan 200 tanga yoki oltindan 20 misqolga yetsa unda zakot vojib bo'ladi.

**Savol:** U pulga bir yil o'tgan bo'lsin deganingiz nima?

**Javob:** Ma'nosi : Albatta musulmon ozod, balog'aga yetgan, nisob yoki undan ortiq molga qodir bo'lsa farz bo'ladi, u odam molidan zakotini chiqarmoqligi vojib bo'ladi, agar u molga to'la bir yil o'tgan bo'lsa, oy hisobi bilan, kun hisobi e'tibor qilinmaydi.

**Savol:** Nima deysiz, hovli joylari, usti bosh kiyimlari va uy jihozlariga?

**Javob:** Yashab turgan uy joylari, usti bosh kiyimlari, uy anjomlari, miniladigan ulovlari, xizmatkorlar va ishlatiladigan qurol asboblariga zakot vojib emas.

**Savol:** Agar shu narsalarni sotish uchun olgan bo'lsachi, unda zakot vojibmi?

**Javob:** Ha, agar nisobga yetsa zakot vojib.

**Savol:** Zakot oltin yoki kumush bilan vojib bo'ldi, shularni qiymatini bersa bo'ladimi?

**Javob:** Ha. Zakotda qiymatini bermoq joiz.

**Savol:** Bir kishi zakotni niyat qilmay hamma molini sadaqa qilib yubordi, nima bo'ladi?

**Javob:** Bu odamdan zakotni farzligi soqit bo'ladi.

**Savol:** Zakot vojib bo'lgandan so'ng moli halok bo'ladi, molni egasi nima qiladi?

**Javob:** Agar zakot vojib bo'lgandan so'ng moli hammasi halok bo'lsa u odamdan zakot soqit bo'ladi. Molni ba'zisi halok bo'lsa o'shani hisobiga soqit bo'ladi. Bu mol o'zicha halokatga uchrasa, ammo, qasddan halok qilishsa zakot soqit bo'lmaydi.

## OLTIN VA KUMUSHNING ZAKOTI

**Savol:** Qancha miqdor kumushga zakot vojib bo'ladi?

**Javob:** 200 tanga kumushga ega bo'lsa va unga bir yil to'la o'tsa, unga zakot vojib bo'ladi. Molini qirqdan bir qismini, ya'ni, har 200 tangadan 5 tanga chiqaradi.

**Savol:** Agar 200 tangadan oshib ketsa qanday ado qiladi?

**Javob:** Aytdilar imom A'zam 200 tangadan oshig'i 40 tangaga yetguncha ortishiga zakot vojib emas. Agar 200 tangadan oshib 40 tangaga yetsa, yetganiga 1 tanga 5 tanga bilan qo'shilib 6 tanga bo'ladi. Keyin har 40 tangaga 1 tanga bo'laveradi, Imom Abu Yusuf bilan imom Muhammad aytdilar Alloh ularni marhamat qilsin 200 tangadan oshig'i oz bo'lishi yo ko'p qirqdan birini hisoblab beriladi.

**Savol:** Oltindan qancha zakot vojib bo'ladi?

**Javob:** Har vaqtiki oltindan 20 misqolga ega bo'lsa va bir yil to'lsa zakot vojib bo'ladi. Yarim misqolni chiqaradi, bu ham o'ndan birini to'rttdan biridir. Keyin qo'shilgan har to'rt misqolga ikki qirot ko'paygan oltinni to'rt misqoldan oziga zakot berilmaydi. Bu Abu Hanifa rahmatullohi alayh qovllarida ikki shogirdlari aytdilar 20 misqolga yarim misqol zakot beriladi. Qancha oshsa hisoblab zakotni ado qilinadi.

**Savol:** Agar oltin yoki kumushdan taqinchok yoki idish yasalsa zakot beriladimi?

**Javob:** Oltin va kumushdan zakot vojib bo'ladi, ulardan , har ikkitasidan quyulgan

narsalarga u taqinchoq bo'lishi yoki idish. Bunda ishlatilgan yoki g'o'la oltin kumush barobar.

**Savol:** Agar oltin yoki kumushda biror aralashmasi bo'lsa hukmi nima?

**Javob:** Agar kumush tangaga g'olib kumush bo'lsa u kumushni xukmida, agar tangani g'olibi g'ashi bo'lsa u boshqa buyumlar qatori. Aralash bo'lgan oltin ham kumush kabi.

**Savol:** Bir odamni oltin kumushi yo'q, lekin hukumat joriy qilgan bank qog'ozlari bor, zakot vojibmi?

**Javob:** Ha unga zakot vojib, qiymati ikki nisobdan biriga yetsa, yani, oltin va kumushni nisobiga, chunki u rivojlantirib turgan naqdlarga o'xshaydi. Har bir narsani u bilan sotib olishi va savdogarlik qilishi mumkin. Va hukumat o'sha qog'ozni keltiruvchi kishiga bankda to'laydi naqd pul bilan, shunday naqdli qog'ozlar uni o'rnida yurib turar edi.

## BUYUMLAR ZAKOTI

**Savol:** Tijorat buyumlariga zakot qanday?

**Javob:** Tijorat mollarida zakot vojibdur. Agar oltin yoki kumush hisobi bilan nisobga yetsa, nisobga yetgan molni qiymatini oltin yoki kumush bilan o'lchanadi. Buni o'lchashda faqir va miskinlarga foydaliroq tomoni olinadi. Bu Imom Abu Hanifa rahmatullohi alayh nazlilarida imom Abu Yusuf aytdilar nimaga olgan bo'lsa o'sha bilan o'lchanadi, agar kumushga sotib olgan bo'lsa kumush bilan, agar oltinga sotib olgan bo'lsa, oltin bilan o'lchanadi. Oltin va kumushdan boshqa narsaga sotib olgan bo'lsa, shaharga g'olib bo'lib yurib turgan naqd bilan hisob qilinadi, imom Muhammad rahmatullohi alayh aytdilar hamma holda shahardagi g'olib naqd bilan o'lchanadi.

## IKKI NAQD VA TIJORAT MOLLARINI ZAKOTI QANDAY BO'LADI

**Savol:** Molni zakotini qanday beradi?

**Javob:** Alloh ta'olo farz qilgan miqdoricha ado qiladi. U o'ndan birini to'rttdan biridir. Niyat qiladi molni zakotini ajrata olganda, zakotni sarf qilish loyiq bo'lgan kishiga.

**Savol:** Farz bo'lgan miqdorni ajratishga yaqin bo'lgan niyat nima?

**Javob:** Qachon yilni oxirida molini hisob qilsa, basmoldan farz bo'lgan miqdorini ajratadi va niyat qiladi qachonki shu zakotga loyiq odamni topsa unga ishlatadi. Mana shu berayotganda ham e'tibor qilingan niyatdir. Qachon bir faqir yoki miskin kelsa ajratilgan moldan unga beradi. Shu bilan zakot ado topadi, loyiq odamga berayotganda niyat qilmasa ham.

**Savol:** Nisobga qadar odam yil mobaynida foyda ko'rdi shunga ham zakot beradimi?

**Javob:** yil asnosida foyda ko'rsa, u foydasi qaysi moldan bo'lsa o'z jinsiga qo'shadi va u bilan zakotni beradi.

**Savol:** Yil to'lmasdan ilgari shoshilib zakot berish mumkinmi?

**Javob:** Nisobni egasi yil o'tmasdan zakotni ado qilsa bu joiz va zakoti hisobga o'tadi.

**Savol:** Nisobga molik odam zakotini yilni oxirida ado qildi, lekin kelgusi yil asnosida moli halok bo'ldi, unga zakot vojibmi?

**Javob:** yil to'lmasdan turib nisobga yetsa zakot vojib bo'ladi. Nisob yilni ikki tarafiga to'la bo'lsa buni o'rtasidagi nuqson zakotni tushirmaydi.

**Savol:** Bir odamni bir qancha moli bor u bilan savdo qiladi, lekin nisobga yetmaydi, shu bilan birga oltin yoki kumush ham bor, zakot vojib bo'ladimi?

**Javob:** Molni qiymatini oltin yoki kumushga qo'shadi, agar nisobga yetsa zakot beradi.

**Savol:** Bir kishini oltini bor 20 misqoldan ozroq va kumushi 200 tangadan ozroq unga vojib bo'ladimi?

**Javob:** Ha, oltinni kumushga qo'shadi qiymati bilan hatto nisob komil bo'ladi va zakotni ado qiladi. Bu Abu Hanifadadur rahmatullohi alayh. Ikki shogirdlari aytdilar: Alloh bularni rahmat qilsin. Oltinni kumushga qiymati bilan qo'shilmaydi, balki o'z bo'lagiga qo'shiladi.

**Savol:** Bir misol keltiring, xilofni natijasi bilinsin.

**Javob:** Bir odamni 100 tanga kumushi bor, 5 misqol oltini bor, qiymati 100 tanga imom A'zamda zakot vojib bo'ldi, ikkala imomda esa vojib bo'lmaydi. Chunki imom A'zamda qiymat bo'yicha nisob yetdi, juzlari bo'yicha ikki imomda yetmadi. Bir odamda 100 tanga va 10 misqol oltin bor, oltin 100 tangaga teng hamma imomlar nazlida zakot vojib. Chunki nisob har ikki tomondan mukammal bo'ldi.

## HAYVONLARGA BERILADIGAN ZAKOT

**Savol:** Oltin, kumush va tijorat mollaridan boshqa narsaga ham zakot vojib bo'ladimi?

**Javob:** O'tlovchi hayvonlar uchun ham zakot beriladi.

**Savol:** O'tlovchilar nima?

**Javob:** Ular to'rt oyoqli hayvonlar sahrolarda boqiladi. Tuya, qo'y, molga o'xshash. Ularga zakot vojib bo'lishi uchun yilning yarmidan ko'proq qismida dalalarda yaylovlarda o'tlash bilan kifoyalaniishi shart. Agar yilniig yarmi yoki ko'proq vaqtida egasi ovqatlantiradigan bo'lsa zakot vojib emas.

**Savol:** Bu jinslarga nima vojib?

**Javob:** Bularga zakot turlicha miqdorda vojib bo'ladi.

**Savol:** Uyda ishlatib, yuk tashib, boqilgan hayvonlar nima deysiz?

**Javob:** Bularga zakot berilmaydi.

## TUYANING ZAKOTI

**Savol:** Tuyaga beriladigan zakot qanday?

**Javob:** Beshtadan kam tuyaga zakot yo'q, agar beshtaga yetsa, dalada o'tlasa, bir yil o'tsa to'qqiztaga yetguncha bitta qo'y beriladi. O'ntaga yetsa 2 qo'y beriladi. 14 taga yetguncha, 15 taga yetsa 19 bo'lguncha 3 ta qo'y. Agar 20 ga yetsa 4 ta, 24 ta bo'lguncha, agar 25 taga yetsa 1 dona ikkinchi yoshga qadam qo'ygan tuyani bolasi beriladi, 35 ta bo'lguncha, 36 taga yetsa 1 dona uchinchi yilni ko'rgan tuyani bolasi beriladi. 45 taga yetguncha. Agar 46 taga yetsa 1 dona 4 yoshni ko'rgan tuyani beriladi. 60 taga borguncha. Qachon 61 taga yetsa 1 dona 5 yoshni ko'rgan tuya beriladi. 90 ta bo'lguncha, qachon 91 taga yetsa 2 ta 4 yasharli tuya beriladi. 120 ta bo'lguncha. Undan so'ng boshdan hisob qilinadi. Beshtasiga 1 dona qo'y, 16 tasiga 2 ta qo'y, 15 tasiga 3 ta yo'q, 20 taga 4 ta qo'y, 25 tasiga 1 ta 2 yoshli tuyani bolasi, 150 ta bo'lganda 3 ta 4 yoshli tuya keyin yana boshdan hisob qilinadi. Beshtaga 1 dona qo'y, 10 taga 2 ta qo'y, 15 taga 3 ta qo'y, 20 taga 4 ta qo'y, 25 taga 1 ta 2 yashar bo'taloq, 36 taga 1 ta 3 yoshli tuya, qachon 196 ga yetsa 4 ta 4 yoshli tuya 200 ga yetguncha. Keyin doim boshdan boshlanadi. Ham chunoniyki 50 dan keyin, 150 dan keyinga o'xshash.

**Savol:** Buxt va arab navli tuyalarni zakotda farqi bormi?

**Javob:** Farqi yo'q.

## MOLNING ZAKOTI

**Savol:** Molni zakotini bayon qiling?

**Javob:** O'ttiztadan kamga zakot yo'q. Agar 30 taga yetsa, yaylovda o'tlasa, bir yil o'tsa, ikki yoshli 1 dona buzoq beriladi. 40 taga yetganda 1 dona 3 yoshli buzoq, agar 40 tadan oshib 60 taga borguncha yuqoridagi kabi vojib bo'ladi. Bu imom A'zam rahmatullohi alayhda 1 dona ziyoda bo'lganiga 1 ta 3 yoshli buzoq o'ndan birini to'rttdan biri, ikkita ziyoda bo'lganiga 3 yoshli buzoqni o'ndan birini yarmi 3 ta ziyoda bo'lsa 3 yoshli buzoqni o'ndan birini 4 dan 3 qismini puli beridadi. Imom Abu Yusuf bilan imom Muhammad aytdilar 60 taga borguncha ziyodasiga hech narsa vojib emas. 60 taga yetganda esa 2 ta 2 yoshli buzoq beriladi. Agar 70 taga yetsa 1 dona 2 yoshli va bir dona 3 yoshli buzoq, 80 taga yetganda 2 ta uch yoshli, 90 taga yetganda 3 dona ikki yoshli, 100 taga yetganda 2 dona ikki yoshli va bir dona uch yoshli buzoq beriladi. Mana shunday farq har o'ntada 2 yoshlikdan 3 yoshligacha o'zgarib boradi.

**Savol:** Zakotda gov mush sigirni hukmi qanday?

**Javob:** Mol bilan govmushni hukmi bir.

## QO'YNING ZAKOTI

**Savol:** Qo'yni zakoti qanday aytib bering?

**Javob:** Qirqdan oz qo'yga zakot yo'q, qachon qirqta bo'lsa yaylovda ovqatlansa, bir yil to'lsa 120 ta bo'lguncha bir dona qo'y beriladi. 121 bo'lsa 2 ta qo'y 200 ta bo'lguncha 201 bo'lsa 3 ta qo'y, agar 400 ga yetsa 4 ta qo'y, keyin har 100 taga bitta qo'y beriladi.

**Savol:** Zakotda qo'y bilan echkini farqi bormi?

**Javob:** har ikkisini hukmi bir.

## OTNING ZAKOTI

**Savol:** Otga zakot beriladimi?

**Javob:** Agar ot yaylovda o'tlasa erkak urg'ochi aralash bo'lib bir yil o'tgan bo'lsa, egasi xohlasa har otga bir tillo, xohlasa otni baho qiladi va har 200 tangaga besh tanga beradi. Erkak otlar o'zi bo'lsa imom A'zamda zakot yo'q.

**Savol:** Otni zakotida xilof bormi?

**Javob:** Imom Abu Yusuf bilan imom Muhammad imom A'zamga xilof qildilar. Aytidilar ikki shogirdlari otga zakot yo'q deb.

**Savol:** Xachir bilan eshakka zakot bormi?

**Javob:** Bu ikkisiga hech narsa yo'q, ammo sotish niyatida bo'lsa boshqa tijorat mollariga vojib bo'lgani kabi zakot beriladi.

## TURLI MASALALAR

**Savol:** Imom Abu Hanifa rahmatullohi alayh tuya va molni bolalari zakoti haqida nima deydilar?

**Javob:** U kishi tuyani onasidan ajragan bolasi, qo'yni sutidan chiqqan bolasi va molni sutdan chiqqan bolalariga zakot yo'q deb aytadilar. Va imom Muhammad ham shunday deydilar. Magar kattalari bilan aralash bo'lsa zakot beriladi. Imom Abu Yusuf aytidilar, shulardan bitta zakot beriladi.

**Savol:** Zakot oluvchi zakotni to'lash uchun bersa hayvonlar ichida zakotga loyig'i topilmasa qanday qiladi?

**Javob:** Pastrog'ini oladi va qo'shimcha pul oladi yoki yaxshirog'ini oladi va o'rtachaga tenglashtirib pul qaytib beradi.

**Savol:** Zakotchi pastini oladimi yoki yaxshisini tanlab oladimi?

**Javob:** Yaxshisini ham olmaydi yomonini ham balki o'rtachasini oladi.

## FOYDA

Tuyani zakotida erkak tuya masalan ikki yashar mumkin emas magar urg'ochi tuyani bahosi bilan mumkin. Mol bilan qo'yda vojib bo'lgan narh bilan urg'ochi yoki erkakni berish mumkin.

**Savol:** Nisob boqiy tursa, nisobdan ziyodasi nobud bo'lsa mavjud bo'lgan nisobga zakot vojibmi, boqiy qolganiga yoki halok bo'lganiga moldan chiqarib yuboriladimi?

**Javob:** Aslida imom Abu Hanifa bilan Abu Yusuf qavllarida zakot nisobga farz, ziyodaga emas. Agar ziyodasi halok bo'lsa nisob boqiy bo'lsa, Hamma vojib boqiy turadi har ikkala imom qavllarida. Imom Muhammad bilan imom Zufar vojib bo'lgan zakot halok bo'lganini hisobicha zakotdan soqit bo'ladi.

**Savol:** Xilofni natijasi ravshan bo'lmadi bu qiska gap bilan kengaytirib bering?

**Javob:** Bunga bir misol aytamiz diqqat qiling dilingiz va fikringiz bilan to'la diqqat qiling. Bir odamni 9 ta tuyasi bor, bir yil o'tdi keyin undan 4 tasi halok bo'ldi. Qolganiga 1 ta qo'y ham chunonchi 5 tadan oshmagan holdagi kabi, halok bo'lganini ziyodaga chiqarib yuboriladi. Zakot vojib bo'lmas edi unga to 10 taga yetmaguncha. Bu imom Abu Hanifa bilan imom Abu Yusuf rahmatullohi alayh qovllarida. Imom Muhammad va imom Zufar rahmatullohi alayhimo nazdilarida, bunga vojib bo'ldi bir qo'yni 8 dan 9 hissasi ado qilmoqlik. Har ikkala imom taqsim qildilar vojib bo'lgan zakotni 9 ta tuyaga, halok bo'lganini sarf qildilar hamma molga vojibni tushirdilar hammasidan halok bo'lganin hisobicha.

Ikkinchi misol: Bir odamni 80 ta qo'yi bor edi. Bir yil o'tgandan so'ng 40 tasi nobud bo'ldi. Bu odamga bir qo'y vojib imom Abu Hanifa va imom Abu Yusuf qavllarida. Alloh bularni rahmat qilsun. Imom Muhammad bilan imom Zufarda esa yarimta qo'y. Agar 60 ta halok bo'lsa, shayxayn nazllarida yarimta qo'y va keyingi ikkitalarini qavllida bir qo'yni to'rttdan biri vojib bo'ladi.

## EKIN VA MEVALAR ZAKOTI

**Savol:** Ekin va mevalarga ham zakot bormi?

**Javob:** Ha ularga zakot bor. Hosilni o'ndan birini yoki yigirmadan birini chiqaradi. Sug'orilgan suvni ixtilofiga qarab.

**Savol:** Bunda nisob bormi?

**Javob:** Imom Abu Hanifada nisob yo'q, har bir narsa uni yer chiqargan bo'lsa oz yoki ko'p zakot vojib bo'ladi. Magar o'tin, qamish va xashakka zakot yo'q. U kishini qovllarida. Va imom Muhammad bilan imom Abu Yusuf aytdilar yerdan chiqqan narsaga zakot vojib bo'lmaydi, magar uni mevasi boqiy turadigan bo'lsa va uni miqdori besh vasaqqa yetsa. Ko'k narsa poliz mahsuloti uchun 6u ikki imomda zakot yo'q.

**Savol:** Vasaq nima?

**Javob:** U madina ahlini o'lchovi, u 60 so'ni o'ziga sig'diradi.

**Savol:** Ushr yoki uni yarmi vojib bo'lishi qanday?

**Javob:** Oqin suv yoki yomg'ir suvi bilan sug'orilgan unga o'ndan bir charxpalak katta chelak va xo'kiz bilan quduqdan suv olib sug'orilsa ushrni yarmi vojib bo'ladi, ikki qavlda.

**Savol:** Agar hosil o'lchovi bilan o'lchanmaydigan bo'lsa, za'faron va paxtaga o'xshash zakot vojib bo'lishida ikki Imomni gaplari qanday?

**Javob:** Aytdilar imom Abu Yusuf agar o'sha paxtani qiymati besh vasaq mevani past narxiga teng kelsa ushr vojib. Aytdilar imom Muhammad yerdan chiqqan hosil besh manga yetsa o'z navidan o'lchanadigan oliy narh bilan, ushr vojib bo'ladi. Bas paxtada e'tibor qilindi, besh ko'tarishi va za'faronda besh batmonni.

**Savol:** Asalga ushr vojibmi?

**Javob:** Agar asalni ushr yerdan olinsa imom Abu Hanifa nazlilarida ushr vojib bo'ladi, xoh ko'p bo'lsin, xoh oz. Imom Abu Yusuf aytdilar hech narsa vojib bo'lmaydi to o'n chelakka yetmaguncha. Imom Muhammad aytdilar ushr vojib besh faraqqa yetsa.

**Savol:** Faraqni miqdori qancha?

**Javob:** Iroqiy hisob bilan 36 ratldur.

**Savol:** Xaroj olinadigan yerdan chiqqan hosilga ushr vojibmi?

**Javob:** Ushr vojib zmas. Xaroj kifoya qiladi.

**Savol:** Ushr berishda qilingan harajatlarni chiqarib keyin hisob qilinadimi, ishchi haqi, mollarni boqish kabi?

**Javob:** Harajatlar chiqarib yuborilmaydi, balki barcha hosilni, o'ndan biri yoki yigirmadan biri beriladi.

## ZAKOT BERILADIGAN JOYLAR

**Savol:** Zakotni beriladigan joylarini bayon qiling?



**Javob:** Alloh ta'olo zakotni beriladigan o'rinlarini o'zining kitobi asosida bayon qilgan.

Aytdi: (Albatta sadaqotlar faqirlarniki, miskinlarniki, zakot hizmatchilarniki, muallafatulqulub qullarniki, qarzdorlarniki, Alloh yo'lida yurganlarniki va musofirlarniki).

Shu sakkiz sinf:

1. Faqir
2. Miskin
3. Zakotchilar
4. Muallafatul qulub
5. Qul
6. Qarzdor
7. Xudo yo'lida
8. Musofir

**Savol:** Faqir kimdur?

**Javob:** U bir odam moli bor nisobga yetmaydi.

**Savol:** Miskin kim?

**Javob:** Uning hech nimasi yo'q.

**Savol:** Zakotchilar kim?

**Javob:** Podsholik tomonidan musulmonlarni zakotini yig'ishtirib kelish uchun ta'yin qilingan kishilar. Ular bu ish uchun vaqt sarf qiladilar. Podsholik ularni bu hizmatlariga yarasha to'plangan moldan haq beradi.

**Savol:** Qullarni ma'nosi nima?

**Javob:** Ozod bo'lish uchun harakat qilayotgan qullar (mukotablar) ularga shu puldan yordam beriladi.

**Savol:** Qarzdor kim?

**Javob:** O'z zimmasidagi qarzni uzishga qodir bo'lmaganlar.

**Savol:** Xudo yo'lida ma'nosi nima?

**Javob:** Ular g'azot qiluvchilar. Xudo yo'lida urush uchun chiqib, jamoalaridan ajrab nafaqaga muhtoj bo'lganlar.

**Savol:** Musofir kim?

**Javob:** U safardagi odam o'zi bilan moli yo'k; garchi o'z shahrida boy bo'lsa ham.

**Savol:** Muallafatul qulublar kim?

**Javob:** Ular shunday odamlarki payg'ambar alayhis salom ularga zakotni molidan berar edilar. Ularni qalblarini islomga moyil qilib dinga kirgizmog'lik uchun. Ular ba'zi qabilalarni boshliqlari bo'lishgan. Ular musulmon bo'lsa qavmlarini ham musulmon bo'lishi umid qilingan. Qachonki Alloh ta'olo islomni aziz qildi va ulardan ahli islomni behojat qildi, ularga sadoqat berish to'xtadi. Zakotni ularga sarf qilinmaydi. Payg'ambarimizni asrlaridan so'ng bu ish to'xtadi.

**Savol:** Yetti sinf qoldi ularga zakot berish joiz. Zakot berguvchi odam shu yetti sinfni hammasiga bo'lib beradimi yoki ba'zisiga bersa ham ado topadimi?

**Javob:** Zakot berguvchi uchun joizdur, bir sinfga bitta yoki ko'proqqa yoki ikki sinfga yoki oshug'roqqa berishi mumkin.

**Savol:** Faqir yoki miskin kofirga bersa bo'ladimi?

**Javob:** Islom millatidan tashqari kishiga zakotni berish joiz emas, u zimmiy bo'lsin yo boshqa.

**Savol:** Zakot molidan o'likka kafan olsa yo masjid madrasa qursa yo ko'prik solsa bo'ladimi yoki odamlar uchun yo'l qursa joizmi?

**Javob:** Bu ishlar zakot molidan mumkin emas. Agar zakotni shularga sarf qilinsa zakot bergan odamlar ikkinchi marta ado qilishlari kerak bo'ladi. Bunda asl zakotni topmog'i uchun, zakotni olishga haqli kishi qo'li bilan olishi kerak. O'likni kafanlash, masjid qurish bu ishga kirmaydi.

**Savol:** Zakot molini madrasani mutavallisiga bersa hukmi nima?

**Javob:** Madrasani boshlig'iga bersa va talabalardan kambag'allariga sarf qilishga vakil qilsa jo'iz, lekin mutavalli qo'li bilan olishi shart hamma talabaga ovqat uchun, madrasa binosi uchun, mudarrislar uchun yoki oylik qilib berilmaydi.

**Savol:** Zakot moliga qul sotib olib ozod qilsa zakot hisob bo'ladimi?

**Javob:** yo'q:

**Savol:** Zakot beruvchi odam o'zini kambag'al qarindoshlariga bersa bo'ladimi?

**Javob:** Qarindoshlar ikki qism bo'ladi. Bir qismi zakot berguvchi bilan tug'ish yaqinlig'i bor, ota ona, katta ota, katta ona farzandlar va nevaralarga o'xshash va bir qismi tug'ilish yo'q, Aka-uka, opa-singil, amma, amaki, tog'alar va xolalar ularni farzandlariga o'xshash. Birinchi qism qarindoshlarga berish joiz emas, agar bersa zakotini o'z o'g'liga yoki o'g'lini o'g'liga, erkak bo'lsin yo ayol har qancha pastga ketsin yo bersa otasiga yo onasiga yo katta otasiga yo akasiga zakot ado topmaydi. Ammo ikkinchi qism ularga zakotni bersa joiz. Ularga zakot berishda zakotni berish ajri va silai rahmni ajri bo'ladi.

**Savol:** Agar ularga bu zakot deb aytilsa qabul qilmaydilar ularga berishni yo'li qanday?

**Javob:** Buni zakot deb aytishni hojati yo'q. Balki siz molingizni zakotini bermagan bo'lsangiz va ularga hadya deb bildirsangiz kifoya! Shu shart bilanki ular zakot olishga loyiq bo'lsalar yuqorida bayon qilingan sinflarga ko'ra Hoshim avlodi bo'lmasliklari shart.

**Savol:** Zakotni er xotinga yoki xotin erga bersa ado topadimi?

**Javob:** Bu bilan zakot ado topmaydi. Imom Abu Hanifa rahmatullohi alayhni nazillarida, ammo ikki shogirdlari nazlida xotini eriga zakot bersa o'rniga o'tadi.

**Savol:** Zakot boy kishiga yo boy kishini bolasiga bersa hukmi nima?

**Javob:** Zakotni nisobga qodir boyga berib bo'lmaydi. Qanday turdagi molga ega bo'lmasin boyni o'g'liga ham berilmaydi agar u sag'ir bo'lsa boyni o'g'li kabir bo'lib kambag'al bo'lsa berishi mumkin.

**Savol:** Kambag'al va miskinlardan zakot olishi mumkin bo'lmagani ham bormi?

**Javob:** Ha, Bani Hoshimga berish mumkin emas kambag'al miskin bo'lsalar ham. Ular Alini avlodlari, Abbasni avlodlari, Ja'farni avlodlari Uqayilni ahllari va Xoris binni Abdulmuttalibni ahdu avlodlari, Alloh bulardan rozi bo'lsin.

**Savol:** Agar hojatli bo'lsalar qanday yordam qilinadi?

**Javob:** Ularga zakot moli va boshqa sadaqotlardan tashqari yo'l bilan ehson qilnadi.

**Savol:** Bir odam zakotni bir odamga berdi gumonida zakotga haqli deb, keyin bilindiki u boy kishi ekan yo hoshimiy ekan, yo kofir, yo qorong'ida faqir deb berdi keyin bilindi u o'zini otasi yo o'g'li ekan zakot hisobga o'tadimi?

**Javob:** Zakot hisobga o'tadi. Imom A'zamda, ikkinchi marta zakot bermayli. Imomi Muhammad ham shunday deganlar. Imom Abu Yusufdan shu suratlarni hammasida qaytib beradi

**Savol:** Zakotga haqli deb bir odamga berdi so'ng bilindi u o'zini o'g'li yo mukotabi ekan bu haqda uch imomimiz nima deydilar?

**Javob:** Har uchala imomimiz ittifoq qilib aytadilar bu zakotdan hisob bo'lmaydi.

**Savol:** Bir kishi sog'lom ishga yaroqli shunga zakot bersa bo'ladimi?

**Javob:** Ha bo'ladi.

**Savol:** Zakot berguvchi odam sadaqasini o'zi yashab turgan shahardan boshqa shaharga olib borsa bo'ladimi?

**Javob:** Aslida zakot har qavmni ichida tarqatish kerak, boshqa shaharga chiqarmaslik

lozim, Agar shunday qilinsa makruh bo'ladi. Magar o'zini qarindoshlari boshqa shaharda bo'lsa joiz. Yoki boshqa shahardagilar muhtojroq bo'lsalar durust bo'ladi.

## **FITR SADAQASI**

**Savol:** Sadaqai fitrni hukmi nima?

**Javob:** U vojibdur har bir musulmon ozod kishi agar qaysi bir turli moldan nisobga qodir bo'lsa, o'tirgan joyi, kiyimi, uy paloslari, oti va yaroqlaridan oshiqcha bo'lsa.

**Savol:** Sadaqai fitrni kimlar uchun beriladi?

**Javob:** O'zi uchun yosh bolalari uchun, hizmatidagi quli uchun, agarchi kofir bo'lsa ham.

**Savol:** Zakot berguvchi yosh bolasiqa bolani molidan chiqaradimi yoki o'z molidanmi?

**Javob:** Agar bolani moli bo'lsa shu moldan, moli bo'lmasa o'z molidan chiqaradi.

**Savol:** Xotini va katta bolalari uchun berish vojibmi?

**Javob:** Yo'q. Xotini va katta farzandlari uchun berish vojib emas, agarchi qaramog'ida bo'lsalar ham. Sotish uchun olgan qullar uchun vojib bo'lmaganga o'xshash.

**Savol:** Bir qul ikki kishining o'rtasida sheriklik, qaysi biri sadaqai fitrni bu qul uchun ajratadi?

**Javob:** Har ikkisiga ham vojib bo'lmaydi.

**Savol:** Sadaqai fitr qachon vojib bo'ladi?

**Javob:** Fitr hayiti kuni subh sodiqdan boshlab paytdan ilgari vafot etgan kishiga berilmaydi.

Shunga o'xshash subhdan keyin tug'ilgan kishi uchun va shundan so'ng musulmon bo'lgan kishi uchun ham berilmaydi va o'shalarga vojib ham bo'lmaydi.

**Savol:** Sadaqai fitrni ado qilishni mustahab vaqti bormi?

**Javob:** Fitr namozi uchun namozga chiqmasdan turib sadaqasini chiqarish mustahabdur.

**Savol:** Fitr sadaqasini vaqtidan avval bersa hukmi nima?

**Javob:** Bu joizdur.

**Savol:** Fitr kunidan kech qoldirilsa nima bo'ladi?

**Javob:** Bu odamdan soqit bo'lmaydi. Berish vojib.

**Savol:** Fitr sadaqasini kimlarga beriladi?

**Javob:** Faqir va miskinlarga, biror mol bilan nisobga qodir bo'lmagan odamga.

**Savol:** Sadaqai fitrni chiqarishdan nima foyda?

**Javob:** Imom Abu Dovud Abdulloh mas'uddan rivoyat qiladilar. Rasululloh sallallohu alayhi vassalam farz qildilar fitr sadaqasini ramazon ro'zasini behudalik va gunohlardan tozalash uchun va kambag'allarga taom qilish uchun.

**Savol:** Fitr sadaqasini miqdori qancha?

**Javob:** Sadaqa fitr uchun yarim so' bug'doy yoki bir so' xurmo, yo mayiz, yo arpa beriladi.

**Savol:** Yuqorida aytilgan narsalardan boshqa tanga pul, guruch, tariqdan masalan ado qilinsa xukmi nima bo'ladi?

**Javob:** Bu qiymat bilan ado etiladigan masala agar bug'doy, xurmo, mayiz arpa va boshqa narsalar bilan qimmatiga teng qilib berilsa hisobga o'tadi.

**Savol:** So'ni miqdori qancha?

**Javob:** Imom Abu Hanifa va imom Muhammadda iroqiy sakkiz ratlga teng. Imom Abu Yusufda besh ratl va bir ratlni uchdan biriga teng.

Hozirgi kunda Xanafiy olimlari nazarlarida yarim so' 2 kiloni tashkil etadi. Bug'doy hisobi bilan bir so' sakkiz ratlni tashkil etadi.

## **DINI ISLOMDA RO'ZANING HUKMI NIMA?**

**Javob:** Ramazon ro'zasi har bir musulmon, balog'atga yetgan er va ayolga farz qilingandur. Alloh taolo aytdi (Ey iymon keltirgan bandalar farz qilindi sizlar uchun ro'za tutish sizlardan avvalgi ummatlarga farz qilinganga o'xshagan shoyadki Allohdan qo'rqsalaring sanoqli kunlarda). Ramazondan boshqa ro'zalar nafldur. Boshqa ibodatlarga savob bo'lgani kabi nafli ro'zalarga ham ajr beriladi. Magar nazr qilgan ro'zasini nazriga vafo vojibdur.

**Savol:** Lug'atda va shariatda ro'za (savm)ni ma'nosi nima va uni boshlanishi va oxiri qachongacha?

**Javob:** Savmni lug'atdagi ma'nosi o'zini bir narsadan to'xtatmoq, shariatda o'zini to'xtatmoq yeyish va ichishdan, jimo'dan, subhi sodiqdan kun botgungacha ro'za tutaman degan niyat bilan.

**Savol:** Ramazonda biror kishiga ro'za tutmaslikka ruxsat beriladimi?

**Javob:** Ha agar muddati safarda musofir bo'lsa, kasal bo'lsa, ro'za tutsa kasali ziyoda

bo'ladigan bo'lsa ularga ramazonda ro'za tutmasalar joiz, keyin qazosini tutadilar, lekin musofirga ro'za tutish afzaldur, agar ro'zador qiynalmasa.

**Savol:** Musofir safarda ro'za tutmasa yoki kasal odam kasallikda tutmasa va ular shu holda o'lsalar safarda yoki kasallikda ularga hech narsa vojib bo'ladimi?

**Javob:** Ularga hech narsa vojib bo'lmaydi.

**Savol:** Kasal tuzalsa yoki musofir joyga kelsa biror narsa vojibmi?

**Javob:** Ularga qazo tutmog'i vojib bo'ladi. Kasalga kasal bo'lgan kungacha musofirga safarda yurgan muddatgacha. .

**Savol:** Musofirdan boshqa kishiga ham ramazonda ro'za tutmasligi mumkinmi?

**Javob:** Homilador yoki emizikli bolasi bor ayol o'ziga, yoki bolasiga halokat ehtimoli bo'lsa ro'za tutmasliklari joiz va keyinchalik favt bo'lgan ro'zani tutib beradilar.

**Savol:** Ramazonda ro'za tutmasligi vojib bo'lgan kishilar ham bormi?

**Javob:** Ha hayz va nifosdagi ayollar ro'za tutmaydilar, balki ularga ro'za tutish joiz emas, chunki hayz va nifos ro'zaga ziddir.

**Savol:** Bu ikkovi ramazondan so'ng qazosini tutadilarmi?

**Javob:** Ha ularga favt bo'lgan ro'zalarini tutmoq vojib.

**Savol:** Odamlar ichida qazo vojib bo'lmasdan, ro'zani tark qilgani uchun fidya vojib bo'ladigan kishilar ham bormi?

**Javob:** Shayxi foniylar ramazonda ro'za tutmasdan evaziga fidya beradilar.

**Savol:** Shayxi Foniy kim?

**Javob:** U ramazonga va boshqa vaqtda ro'za tutishga qodir bo'lmagan kishi, umrini oxirigacha ham qazo tuta olmaydigan odam.

**Savol:** Fidyada nima?

**Javob:** Har bir kunga bir miskinni to'ydirmoq fidyadur kafforotlarda to'ydirgandek.

**Savol:** Bir odam ro'zani tark qildi safar yoki kasal sababli. Qazosini tutishga vaqt ham topdi lek tutmadi va ajali yetib o'ldi. Nima qiladi?

**Javob:** Istig'for aytadi va Allohga tavba qiladi. Va vasiyat qiladi har kuni qazosi uchun bitta miskinni o'z molidan to'ydirishni valisiga vasiyat qiladi. Bir kuniga yarim so' bug'doy yoki bir so' arpa va yo xurmo.

**Savol:** Yosh bola balog'atga yetsa yoki kofir musulmon bo'lsa ramazon kunlarida nima qiladi?

**Javob:** Kunini qolgan qismida ro'zani buzadigan narsalardan o'zini ushlaydi va kechgacha ro'za tutadi.

**Savol:** Keyinchi shu kuni ro'zasini qazosini tutadimi?

**Javob:** Bu kunni qazosini tutish vojib emas.

**Savol:** Ramazonda tutqanoq bo'lgan kishi nima qiladi?

**Javob:** Ramazonni kunduzida tutnanok, bo'lgan kishi shu kuni ro'zasini niyat qilgan edi shuning uchun bu kunni qazosi lozim emas. Ammo keyingi kunlarda yana to'tqanoq (bexush) bo'lsa qazosini tutadi.

**Savol:** Ramazonni ba'zi kunlarida jinni tuzalsa nima qiladi?

**Javob:** O'tgan kunlarini qazosini tutadi va qolgan kunlarini ham tutadi.

**Savol:** Musofir vataniga kelsa ramazon kunida ro'zani niyat qilmagan yoki xayzdagi ayol pok bo'ldi nima qiladi?

**Javob:** Kunning qolgan qismida ro'za buzadigan uchta narsadan ehtiyot qilib ramazonni hurmatlarini saqlaydi.

## **RAMAZON NIMA BILAN SOBIT BO'LADI**

**Savol:** Ramazonda ro'za tutish qachon vojib bo'ladi va ramazon nima bilan sobit bo'ladi.

**Javob:** Aytdilar payg'ambar alayh salom: ro'za tutinglar yangi oyni ko'rib va og'izlaringni ochib ramazonni tugatinglar shavvol oyini kurib. Agar xavo berk bulib ramazonni yangi oylarini ko'rilmasa sha'bonn o'ttiz kun qilib to'ldiringlar. Odamlarga vojibdir. Sha'bonni yigirma to'qqizinchi kuni yangi oyni surishtirmoqliklari agar yangi oyni ko'rsalar ertasiga ro'za tutadilar, agar havo berk bo'lib oy ko'rinmasa sha'bonni o'ttiz kun to'la qilib so'ng ro'za tutadilar.

**Savol:** Havoda bulut bo'lsa bir odam yangi oyni ko'rdim deb yigirma to'qqizinchi kuni guvohlik bersa uni guvohligi qabul qilinadimi?

**Javob:** Uning guvoxligi qabul qilinadi ramazonni yangi oyining ko'rishlikda u adolatli musulmon bo'lsa erkak bo'lsin yoki ayol yoki ozod bo'lsin, yo qul.

**Savol:** Havo ochiq bo'lsa bir yoki ikki kishi 29 shabon kuniga yangi oyni ko'rdik deb guvohlik bersalar nima qilinadi?

**Javob:** Shu suratda guvohliklarinn qabul qilinmaydi hatto ko'pchilik ko'rib aniqlik bo'lmaguncha.

**Savol:** Bu ramazonni sobit bo'lishi uchundir. Shavvol oyining sobit bo'lishi qanday?

**Javob:** Agar osmonda bulut bo'lsa, podsho va qozi fitr hiloli haqida guvohlikni qabul qilmaydi. Toki ikki erkak yoki bir erkak ikki xotin ko'rdik demaguncha agar havo ochiq bo'lsa katta jamoat bo'lib ko'rib, ularni aniq xabarlarini bilinsa qabul qilinadi.

**Savol:** Bir odam ramazon yoki shavvolni yangi oyini ko'rsa guvohligini imom qabul qilmasa nima qiladi?

**Javob:** Agar shu ish ramazonda bo'lsa ko'rgan kishi o'zi ro'za tutadi, agar iydni oyini ko'rdim desa odamlar bilan ro'za tutadi ko'rganiga amal qilinmaydi.

## NIYATNING SHARTLIGI

**Savol:** Ro'zani o'rgatishda niyat bilan dedingiz, niyatni ma'nosi nima. Kengaytirib bering?

**Javob:** Niyat dil bilan bog'lanishdir. Men ro'za tutaman xudo uchun falon ro'zani deb, keyin ro'za bir necha qism. bo'ladi.

1. Farz ro'za u ramazondir;
2. Ta'iin nazr ro'zasi;
3. Mutloq nazr ro'zasi;
4. Ramazon ro'zasini qazosi;
5. Buzilgan nafl ro'zani qazosi
6. Kafforot ro'zalari;

Nafl ro'zani, ramazon ro'zasini muayyan nazr ro'zasi va nafl ro'zalarini joizdir kechasidagi niyat bilan tutsa. Lekin kechasida niyat shart emas agar niyat qilmasa hatto tong o'tsa kunni yarmigacha ham niyat qilsa kifoya. Ammo ramazonni qazosi, o'zi buzgan edi, bu ro'zalarni tutish kechasini niyat qilmasdin mumkin emas.

**Savol:** Mut'a qiluvchi bilan qiron qiluvchilar, ro'za tutsalar qurbonlikka qodir bo'lmasalar, kechasida niyat qilish mumkinmi?

**Javob:** Kechasida niyat qilmoq shartdur. Boshqa kafforotlarga o'xshash. Gapingizdan bilindiki nafl ro'zani buzilsa qazo vojib bo'lur ekan.

**Savol:** Uning sharxi va izohini xohlaymiz.

**Javob:** Uning sharxi. Nafl ro'za tutguchi o'z nafsiga xo'jayin ishni boshlashdan oldin. Qachon boshlasa tamomiga yetkazish vojib. Agar buzsa boshlangan ishini qazosi vojib. Agar u ish ro'za bo'lsa yo namoz xaj bo'lsin yo umra. Bu faslda ro'zani buzadigan va qazo vojib bo'lishi faqat yoki qazo kafforot har ikkisi vojib bo'lishi.

**Savol:** Ro'zani buzuvchilarni aytib bering?

**Javob:** Kimki xotinini o'psa yo biror yerini ushlasa yoki xotini farjidan boshqa yerga ovratini ishqatsa va ma'niy tushsa, yo mayda toshlarni yutsa, danak yutsa yo huqna qilsa yo burindan dori quysa yo qulog'iga dori quysa yoki qorin og'rig'iga dori qilsa u



qoringa yetsa yoki suyuq dorini qasd qilsa va u qoringa yetsa yoki dimog'iga yetdi, yoki saharlikda tong otgani yo'q deb gumon qildi va ovqat yedi, tong otgan edi yoki iftor qildi kun botgan deb keyin bildi kun botmogan ekan shu ishlarni hammasida ro'za buziladi va vojib bo'ladi qazo, kafforot vojib emas.

**Savol:** Er kishi zakarini uchiga dori tomizsa ro'zasi buziladimi?

**Javob:** Imom A'zamda va Imom Muhammadda ro'zasi buzilmaydi. Ammo imom Abu Yusufda buziladi. Alloh ularni raxmat qilsin.

**Savol:** Beixtiyor yoki zo'rlab qussa ro'za buziladimi?

**Javob:** Qusuq o'zicha kelsa ro'za buzilmaydi. Qasddan zo'rlab og'iz to'lgundek qussa bir kun qazo qiladi.

**Savol:** Kafforot va qazo ikkalasi qachon vojib bo'ladi.

**Javob:** Qasddan ikki yo'lni biriga yaqinlik etsa yo biror narsa yesa yo ichsa qazo bo'ladigan yo davo bo'ladigan narsani ro'zasi buziladi va qazo, kafforot har ikkisi vojib bo'ladi.

**Savol:** Kafforot nima?

**Javob:** U qul ozod qilmoklikdir. Qodir bo'lmasa ikki oy uzluksiz ro'za tutmoqlik oraga ramazonni aralastirmasdan va ro'za tutish man etilgan kunlardan tashqari. U kunlarni yaqinda lishooloh bilasiz, agar Unga ham qodir bo'lmasa Oltmishta miskinni to'ydiradi.

**Savol:** Ramazondan boshqa ro'zani buzsa ham kafforot bormi?

**Javob:** Boshqa ro'zani buzsa kafforot yo'q. Agarki ramazonni qazosi bo'lsa ham.

## **RO'ZANI BUZMAYDIGAN NARSALAR**

**Savol:** Ro'za tutguvchiga paydo bo'ladigan ayrim ro'zani buzmaydigan narsalarni aytib bering?

**Javob:** Agar esida yo'q yesa, yo ichsa, jimo' qilsa ro'zasi buzilmaydi. Va uxlasa ixtilom bo'lsa yo xotiniga qarasa mani nozir bo'lsa, yo badanini yog'lasa, yo qon oldirsa, yo surma quysa, yo xotini o'psa mani kelmasa shu suratlarda ro'za buzilmaydi.

## **RO'ZADOR UCHUN MAKRUH NARSALAR**

**Savol:** Ro'zada makrux ishlar nima?

**Javob:** Xotinini o'pmoqlik makruxdir, agar o'ziga ishonch bo'lmasa. Agar xotirjam bo'lsa zarari yo'q va og'zi bilan biror narsani tatmoqlik, saqich chaynamoq, misvok boshqa narsa bilan og'iz tozalash cho'tka va unga o'xshash Ayollar uchun oilasiga biror narsa

chaynab berish makruxdir. Agar boshqa iloji bo'lsa, ammo boshqa iloji bo'lmasa makrux emas.

## QAZOLAR HAQIDA

**Savol:** Ramazonni qazosini tutishlikda uzluksiz tutish shartmi?

**Javob:** Shart emas. Agar xoxlasa oralatib va xoxlasa uzluksiz tutadi.

**Savol:** Ramazonni qazosini orqaga sursa va keyingi ramazon kelsa nima qiladi?

**Javob:** Avval hozir bo'lgan ramazonni tutadi ramazondan so'ng avvalgi ro'zani ,qazosini tutadi bunga fidya lozim emas.

**Savol:** Bir kishi vafot etdi ustida ramazonni qazosi bor o'z molidan fidya berishni vasiyat qildi. Valisi nima qiladi?

**Javob:** Bu vasiyat o'likni molini uchdan biriga o'tadi agar mayt qazo ro'zasi uchun fidyaga vasiyat qilsa valisi har kun uchun bir miskin to'ydiradi, yarim so' bug'doy yo bir so' arpa yo bir so' xurmo.

## NAFL RO'ZASI

**Savol:** Ramazondan tashqari ham shariatda ro'za bormi?

**Javob:** Ramazon ro'zasi farz undan tashqari ro'za nafldir. Agar tutsa inshooloh savob bo'ladi.

**Savol:** Ba'zi kunlarda nafl ro'zadan naxi qilinganmi?

**Javob:** Bir yilda 5 (besh) kunda nafl ro'za qaytarilgandir.

1. Iyd ramazon kunida;
2. Iyd qurbon kunida (3, 4, 5) haytdan keyingi 3 kun. Bu tashrix kunlaridir;

**Savol:** Ba'zi nafl ro'za ba'zidan afzalmi?

**Javob:** Hadislarda ba'zi nafl ro'zani fazli bayon qilingan. Oisha roziyallohu anho rivoyat qildilar. Rasulluloh alayhi salom dushanba va payshanba kunlari ro'za tutar edilar. Abu Xurayra Alloh rozi bo'lsin aytdilar: aytdilar payg'ambarimiz. Amallar dushanba va payshanba kunlari ro'para qilinadi., Men yaxshi ko'rdim, amallarini ro'para qilmog'ini men ro'zalik xolimda va rivoyat qildilar. Abu Xurayira Alloh rozi bo'lsin bu zotdan payg'ambarimiz vatanda ham safarda ham oyni oq kunlarida og'zilarini ochmas edilar ya'ni o'n uchinchi o'n to'rtinchi kunlarida va o'n beshinchi kunlarida. Abu Qatoda Alloh rozi bo'lsin bu zotdan rivoyat qildilar. Albatta rasullulloh aytdilar Arafa (haj) kunidagi ro'zani o'ylaymanki Allohdan savobini umid qilamanki, o'zidan avvalgi va o'zidan keyingi yillarni gunohlariga kafforot qilsa. Ashiro kunini ro'zasini Allohdan savobini umid

qilamanki o'zidan avvalgi gunohlariga kafforot qilsa. Abu Ayub Al Ajoriy rozi bo'lsni Alloh bu zotdan albatta payg'ambar alayhis salom aytdilar: Kim ramazon ro'zasini tutsa, shavvoldan olti kun tutsa butun zamonda ro'za tutgan bo'ladi.

## E'TIKOF

**Savol:** E'tikof va uning xukmi nima?

**Javob:** E'tikof niyat bilan masjidda to'xtamoqlikdir ramazonni keyingi o'n kunligida u sunnati kifoyadur. Agar mahalla ahlidan bir kishi e'tikof o'tirsa hammadan soqitdir. Agar hech kim o'tirmasa hamma tarki sunnat qilgan bo'ladi.

**Savol:** Undan boshqa shariatda e'tikof bormi?

**Javob:** Undan boshqa e'tikof bor. Mustahab va vojib. Oz muddati bir soat. Qachon masjidga kirsam e'tikofni niyat qiladi va e'tikof o'tirgan bo'lgan bo'ladi, masjiddan chiqquncha.

**Savol:** Qachon e'tikof vojib bo'ladi?

**Javob:** Kimki nazr qilsa e'tikofni unga vojib bo'ladi e'tikof o'tirmoq, o'ziga e'tikofni vojib etgan miqdoricha.

**Savol:** Bir necha kunlarini vojib qildi va nazr qildi shu kunlarini kechasi ham kiradimi?

**Javob:** Ha. kechalari bilan vojib bo'ladi va uzluksiz deb agarchi usluksiz deb nazr qilmasa ham.

**Savol:** Nazr qilingan e'tikofda ro'za ham vojibmi?

**Javob:** E'tikofda ro'za bilan vojib.

**Savol:** E'tikof o'tirguvchilarga nima xarom?

**Javob:** Unga jimo va uni chaqiruvchilari, o'pish va ushlab kabi. Agar tunda jimo qilsa yo kunduzi esida yo'q yoki qasddan, yo xotinini biror yerini ushlab, yoki o'pib ma'niy kelsa e'tikofi buziladi qazosi vojib.

**Savol:** E'tikof o'tirguvchi masjiddan chiqadimi?

**Javob:** Masjiddan chiqmaydi magar inson hojati uchun chiqadi. G'oit va siyishga bir soat. Beuzr chiqsa, e'tikofi Abu Xaniyfa raxmatullohni nazlilarida buziladi. Abu Yusuf va Imom Muhammad rahmatullohi alayhimo nazlilarida yarim kundan oshmasa buzilmaydi.

**Savol:** Jum'a o'qilmaydigan masjidda e'tikof o'tirsa jum'a kuni bo'lsa jum'ani qanday ado qiladi?

**Javob:** Jum'a masjidiga boradi jum'adan so'ng o'z masjidiga qaytib keladi.

**Savol:** E'tikof o'tirguvchiga nimalar joiz?

**Javob:** Unga masjidida yemoq, ichmoq, uxlashga ruxsat beriladi. Va buyumni hozir qilmasdan sotishi olishi mumkin.

**Savol:** E'tikof o'tirganlarni ko'ramiz gaplashmaydilar va gumon qiladilar gaplashish e'tikofga zid deb. Fuqaxolarimiz nima deydilar?

**Javob:** Gaplashish e'tikofga zid emas, magar gaplashsalar yaxshi gapni gapirish kerak. Yomon gap hamma holda man' qilingan. Indamasdan o'tirish e'tikofini bir bo'lagi deyish makruh.

## KITOBUL BAY'

**Savol:** Bay' nimadur?

**Javob:** U molni molga almashtirmoqlikdir ikki tomonni roziligi bilan.

**Savol:** Bay' qanday bog'lanadi?

**Javob:** Bay' oldi-sotdi vojib qilish va qabul qilish bilan bog'lanadi. Agar so'zlar o'tgan zamon fe'li bilan bo'lsa, bittasi aytur sotdim, ikkinchisi aytdi oldim deb.

**Savol:** Agar bittasi Bay'ni ijob qilsa ikkinchi tomonga lozim bo'ladimi?

**Javob:** Bir tomonni gapi bilan ikkinchi tomonga vojib bo'lmaydi, balki ijob hosil bo'lsa qabul ham ikkisi bo'lsa agar bir tomon Bay'ni ijob qilsa ikkinchisi ihtiyorlik, agar xohlasa shu majlisda qabul qiladi, agar xohlasa rad etadi, agar qabul qilsa ikki tomonga oldi sotdi lozim bo'ladi. Bu vaqtda ikkisi ihtiyorlik emas.

**Savol:** Nimaga bir majlisda qabul qilsa deb qo'shib qo'ydingiz?

**Javob:** Chunki ahd qiluvchilarni bittasi Bay'ni vojib qilsa keyin u majlisdan turib ketsa yo unisi qabul qildim deyishlan avval Bay'ni vojibliigi bekor bo'ldi.

**Savol:** Agar Bay' tamom bo'lsa sotib oluvchi uchun biror yo'l bilan ihtiyorlik bo'ladimi?

**Javob:** Ha, agar buyumda biror ayb borligi bilinib qolsa ya'ni sotib olgan moldan, agar xohlasa qaytarib beradi, xohlasa oladi shunga o'xshash oluvchi ihtiyorlik bo'ladi. Olish yoki olmaslikda agar ko'rmasdan baho qilgan bo'lsa.

**Savol:** Nasiya bo'lgan Bay' joizmi?

**Javob:** Naqt pulga va nasiyaga Bay' joiz, agar nasiyani muddati aniq bo'lsa.

**Savol:** Bir odam matoni sotdi, u narsaga ishora qildi, uni miqdorini ochiq qilmadi na kilosini na o'lchovini, yoki ikki kishi bir narsani bir narsaga sotdilar uni ikkovini miqdorini

ochiq qilmasdan har ikkovlari buyumlariga ishora qilib ko'rsatdilar shu ikki sur'atda Bay' joizmi?

**Javob:** Har ikki sur'atda Bay' joiz. Chunki evaziga ishora qilingan narsa pulda yoki sotilgan narsadan Bay' joiz bo'lishida miqdorini ta'rifiga muhtoj bo'lmaydi. Chunki ishora qilishlik tanitishni eng katta sababi.

**Savol:** Qachonki narhni mutloq aytilsa qadrini ochiq aytilmasa yo sifatini, bu Bay'ni hukmi nima?

**Javob:** Pulni mutloq aytilsa, masalan aytsa, sotib oldim sendan kumushga yo oltinga yo tillo tangaga yo bir necha tangaga yo bug'doyda, qadri va sifati ochiq aytilmasa, Bay' joiz emas. Bay'ni durust bo'lmog'i uchun miqdorini aytilmog'i shart. Shunday demoqlik bilanki, mana shuncha tangaga oldim masalan, sifatini aytmoqligi kerak. Misrniki Shomniki, yo yaxshi yoki yomon deb.

**Savol:** Pulni mutloq qo'yilsa, pulni sifatini aytmasa, masalan aytsa: o'n tangaga sotdim deb, shaharda bir necha xil tanga ishlayotgan bo'lsa, moldan tashqari, bu sur'atda Bay' joizmi, agar olguvchi qabul qilsa?

**Javob:** Bu suratda Bay' joiz, odamlar shaharda ko'proq ishlayotgan tangani tayin qilinadi.

**Savol:** Qadri turlicha bo'lgan tangadan mutloq baho qo'yildi, shu sur'atda Bay' joiz deb hukm qilinadimi?

**Javob:** Molga taqqos qilinganda tangalar turlicha qiymatga ega bo'lsa, bas Bay' fossiddir. Magar tangani bir turini ochiq aytilsa va miqdorini tayin qilinsa durust.

**Savol:** Taomni o'lchab yoki o'lchovsiz sotish mumkinmi?

**Javob:** Bunday sotmoqlik joiz. Tangalarga oltin tangalarga chaqa pullarga va donlarga, magar taomni jinsi bir bo'lsa, o'lchovsiz sotish mumkin emas, sudxo'rlik ehtimoli uchun.

**Savol:** Bir kishi ikkinchi bir kishiga aytdi: mana shu idish to'lasicha bug'doyni shunchaga sotdim deb, Oluvchi qabul qildi, vaholanki, u odam bu idishdagi bug'doyni qadrini bilmaydi, Bay' durustmi?

**Javob:** Xuddi o'sha idishni to'lasicha bo'lsa durust. Agarchi u idishga qancha sig'ishini bilmasa ham.

**Savol:** Agar aniq bir toshni vazniga sotsa, u toshni miqdorini bilmaydi hukmi nima?

**Javob:** Bu ham joizdur.

**Savol:** Bir odam bir to'p ovqatni sotdi, har bir g'alviri bir tanga shu Bay' joizmi?

**Javob:** Shu sur'atda Bay' joiz bo'ladi bitta g'alvirda boshqa g'alvirni haqida Bay' botil, magar hamma g'alvirda deb atalsa joiz. Bu Abu Hanifa rahmatulloh alayh qavillarida.

Ikki shogirdlarini qavillarida har holda joiz. Hamma g'alvirni aytilsin yo aytilmasin.

**Savol:** Bir to'p qo'yni sotdi va aytdi har bir qo'y bir tanga deb Abu Hanifa Rahmatulloh alayh nima deydilar?

**Javob:** U kishini qavllarida bu Bay' hammasida fosildur. Ikki shogirdlari aytdilar. Alloh ulardan rozi bo'lsin bu Bay' hammasida joiz.

**Savol:** Abu Hanifa Rahmatulloh alayh nima dedilar bir odam haqidaki. Bir to'p gazlamani sotdim, har gazi bir tanga, umumiy gazi qanchaligini aytmadi?

**Javob:** Bu Bay'ni bir gazi va hammasini savdosi bekor.

**Savol:** Nima deysiz, bir odam bir to'p taomni sotdi, bu yuz g'alvir deb, yuz tangaga sotib oluvchi o'lchasa yuz g'alvir emas balki oz ekan?

**Javob:** Oluvchi ihtiyorlik, xohlasa borini o'sha bahoda oladi, xohlasa Bay'ni buzadi.

**Savol:** Agar u yuz g'alvirdan ko'p chiqsa nima qiladi?

**Javob:** Ortig'i sotuvchiniki bo'ladi.

**Savol:** Bir odam o'n gaz gazlamani o'n tangaga oldi yoki yuz gaz yerni, yuz tangaga oldi. Keyin gazlama yoki yer aytganidan kamroq chiqdi, bu Bay'ni hukmi nima?

**Javob:** Oluvchida ihtiyor xohlasa pulni hammasiga oladi xohlamasa tark etadi.

**Savol:** Agar sotuvchi aytgandan ko'proq chiqsa nima qiladi?

**Javob:** Kelishgan narh bilan sotilgan narsa oluvchinikidir, sotuvchida ihtiyor yo'q. Yerni hukmi ham xuddi shunday.

**Savol:** Sotuvchi aytsa: shu narsani senga sotdim yuz gaz, yuz tangaga har gazi bir tanga, oluvchi keyin ko'rsa oz yoki ko'proq ekan nima deysiz?

**Javob:** Agar kam chiqsa ihtiyorlikdir xohlasa shu narhda matoni chiqqancha. Xohlamasa olmaydi, agar ortiq bo'lsa, u ihtiyorlikdir. Oladi hammasini bir gazini, bir tangadan xohlasa Bay'ni buzadi.

**Savol:** Sotuvchi aytdi sendan sotib oldim shu tugunni unda 10 gaz yuz tangaga har bir gazi o'n tanga, keyin undan oz yoki ko'p topildi nima bo'ladi?

**Javob:** Agar oz chiqsa Bay' joiz boricha o'sha bahoda, agar ortiq bo'lsa Bay' durust emas.

**Savol:** Hovlini sotdi, hovlidan boshqa narsa aytilmadi, hovlidan boshqa narsalar Bay'ga kiradimi?

**Javob:** Hovli deyishlik bilan uning sahni, binolari, qulf kalitlari kiradi. Agarchi aytilmasa

ham.

**Savol:** Nima deysiz bir yerni sotildi unda xurmolar, daraxtlar bor?

**Javob:** Aytilsa yo aytilmasa ham xurmo va daraxtlar yerga kiradi.

**Savol:** Sotilgan yerda ekin bo'lsa va uni Bay'da aytilmagan bo'lsa hukmi nima?

**Javob:** Yerga kirmaydi ekin, magar Bay'da aytilsa hisobga kiradi.

**Savol:** Hurmo yoki bir daraxtni sotdi, uning ustida mevasi bor meva kimga tegishli?

**Javob:** Meva sotuvchiniki, magar oluvchi shart qilsa, aytilsa sotuvchiga, mevalaringni ol, daraxtni oluvchiga ber deb.

**Savol:** Bir odam daraxt ustidagi mevani sotib oldi, u pishmagan joizmi?

**Javob:** Daraxtdagi mevani sotib olish mumkin, u pishgan bo'lsin yoki xom, oluvchiga vojib mevani darhol terib olmoqligi.

**Savol:** Pishguncha daraxt ustida turishni shart qilinsachi nima bo'ladi?

**Javob:** Unda Bay' fosid bo'ladi.

**Savol:** Daraxtdagi mevani sotdi, ma'lum bir miqdorni istisno qildi shu Bay' joizmi?

**Javob:** Joiz emas.

**Savol:** Bug'doyni boshog'ida turib, poliz ekinlarini palagida turib sotishi mumkinmi?

**Javob:** Bu joiz, agar bir jinsini boshqa jinsiga sotilsa, ammo jinsini o'z jinsiga sotilsa bu joiz emas, sudxo'rlik ehtimoli uchun.

**Savol:** Tortib yoki o'lchab sotiladigan narsani sotdi. Lekin u ko'p, tortuvchi yo o'lchovchiga muhtoj bo'ladigan darajada, o'lchovini haqqini kim beradi?

**Javob:** Sotuvchi to'laydi.

**Savol:** Oltin tanga yoki oddiy tangalarga bir narsani sotib oladi, oluvchi naqdga muhtoj bir kishi kiraga naqd pul berdi bu kira kimga vojib?

**Javob:** Bu kirani ham sotuvchi to'laydi.

**Savol:** Oltinlar va tangalar ko'p, uni tortishga muhtoj bo'lindi, bir kishi tortib berdi, buni kirasi kimga tushadi?

**Javob:** Sotib oluvchiga tushadi?

**Savol:** Sotilgan narsani avval berish kerakmi yoki oluvchi avval berishi kerakmi?

**Javob:** Bunda tafsil bor. Agar buyumni pulga sotgan bo'lsa sotuvchiga aytiladi: avval buyumni ber deb, agar bersa oluvchiga aytiladi: pulni ber deb, agar buyumini buyumga sotgan bo'lsa, yoki pulni pulga sotgan bo'lsa ikkisiga aytiladi barobar beringlar deb.

## SHARTNI IHTIYOR QILISH

**Savol:** Sotuvchi va oluvchi shartni ihtiyor qilishni hukmi nima?

**Javob:** Shartni ihtiyor qilish har ikkisi uchun joiz.

**Savol:** Bunda chegara bormi?

**Javob:** Ihtiyorni muddati uch kun va undan oz bo'lishi mumkin. Bu Abu Hanifa rahmatullohi alayhda bundan ortiq joiz emas. Imom Abu Yusuf va Imom Muhammadni nazdilarida uch kun va undan ziyoda mumkin, kishi tayin muddat qo'ysa va sohibi unga rozi bo'lsa.

**Savol:** Ikki kishi oldi sotdi qildilar, sotuvchi ihtiyorni o'ziga qo'ydi, oluvchi buyumni ushladi. Oluvchini qo'lida sotiladigan buyum nobud bo'ldi ihtiyor qilgan muddat ichida, hukmi nima?

**Javob:** Bunda asl sotuvchini ihtiyorlik bo'lishi, sotilgan narsani sotuvchini mulki bo'lishdan man' etilmaydi: qachon oluvchi buyumni ushlasa, u sotuvchini mulki bo'lgan narsani ushladi, uning qo'lida nobud bo'lsa, yoki ovga tayinlan tan muddat ichida nobud bo'lgan narsani to'laydi, uni barobariga o'xshashi yo'q bo'lsa, qiymatini to'laydi.

**Savol:** Agar ihtiyorni oluvchi kishi o'ziga olsa sotilgan narsa sotuvchini mulkidan chiqishni man etdimi?

**Javob:** Sotib oluvchini ihtiyorlik bo'lishi, sotilgan narsani sotuvchini mulkidan chiqishni man' etmaydi, magar oluvchi u molga xo'jayin bo'la olmaydi, imom Abu Hanifada va ikki shogirdlari aytdilar u xo'jayin bo'ladi, har uchalovlarini Alloh rahmat qilsin..

**Savol:** Sotilgan narsa oluvchini qo'lidan halok bo'ldi, ihtiyorini sotuvchi o'ziga qilgan edi, buni to'lovi kimni zimmasiga tushadi?

**Javob:** Oluvchini zimmasiga tushadi: halokatni narh bilan qilinadi, ya'ni halok bo'lgan narsani qiymatini to'laydi.

**Savol:** Oluvchining qo'lida mol aybli bo'ldi, ihtiyor unda edi nimaga hukm qilinadi?

**Javob:** Agar ayb tuzalmaydigan bo'lsa, qulni qo'li kesib tashlaganga o'xshash u halok bo'lgandek halokat pul bilan o'lchanadi. Sotib olgan bahoni to'laydi. Ammo ayb vaqtinchalik bo'lsa ham qul kasal bo'lganga o'xshash. Muddat ichida u ihtiyorlik, agar muddat tugasa kasal tuzalmasa Bay' vojib, qaytarish uzrli bo'lgani uchun.



**Savol:** Ihtiyorlik bo'lishni foydasi ihtiyorli kishiga nimadan iborat?

**Javob:** Unga foydasi ihtiyorni muddati ichida Bay'ni buzishga haqqi bor, va muddat ichida Bay'ni amalga oshirishlikka ham haqli.

**Savol:** Ihtiyorni sohibiga lozimmi Bay'ni buzishga yo amalga oshirish sohibini oldida?

**Javob:** Ihtiyorlik kishi (masalan oluvchi) sohibini (sotuvchini) oldida Bay'ni amalga keltirish joiz. Agar Bay'ni buzsa sohibi hozir bo'lishi kerak.

**Savol:** Qulini nonpaz yoki yozuvchi deb sotdi, sotib oluvchi keyin bilsa uni teskarisi chiqdi nima qiladi?

**Javob:** Olguvchi ihtiyorlik xohlasa qulni hammasiga oladi xohlasa Bay'ni buzib qulni qaytaradi.

**Savol:** Oldi -sotdi qiluvchilarni biri ihtiyorlik edi ihtiyorlik bo'lgan kishi Bay'ni tamomiga yetkazmasdan ihtiyor muddatini ichida vafot etdi, ihtiyor o'tadimi?

**Javob:** Bu suratda uni ihtiyori botil bo'ldi. Vorislarga o'tmaydi. Bay'ni ishi tamomiga yetdi (ya'ni sotilgan narsa sotilganicha).

## KO'RISHLIK IHTIYORI

**Savol:** Bir odam bir molni sotib oldi, uni ko'rmagan, shu Bay' joizmi?

**Javob:** Bu suratda Bay' joiz. Lekin olguvchi ko'rganda ihtiyorlik, xohlasa oladi xohlamasa qaytaradi.

**Savol:** Mana shu ihtiyorga vaqt bormi?

**Javob:** Unda vaqt yuq. U odamdan ihtiyorni soqit qilmaydi toki Bay'ni buzguvchi narsa topilmaguncha, Bay'ni buzuvchi narsa, u rozilikni ifoda qilguvchi narsadir.

**Savol:** Nima deysiz bir odamni haqida, ko'rmagan narsani sotishda ihtiyori bormi?

**Javob:** Unda ihtiyori yo'q.

**Savol:** Sotib oluvchi odam tugunni ko'rdi yoki o'rog'liq to'nni ustidan ko'rdi yoki cho'rini yuziga qaradi yoki hayvonni yuziga qaradi kafil bo'ldi,shu ko'rishlik e'tiborlikmi ihtiyorni bekor qilishda?

**Javob:** Shu ko'rishlik mo'tabardur, shu ko'rishdan so'ng yana ko'rishga ihtiyor berilmaydi.

**Savol:** Hovlini sahnini ko'rdi, uylarni ko'rmadi shu ko'rishlikni e'tibor qilinadimi?

**Javob:** Shu ko'rishligi e'tibor qilinadi, shu sur'atda ihtiyor berilmaydi. Matnlarni

sohiblarini aytishlariga qaraganda bu shunga binoanki Kufani hovlilari bir biridan farqsizdir. Fatvo imom Zufar rahmatullohi alayh gaplaridir. U kishi aytdilar uylarni ichini ko'rish lozim, chunki uylar har hil bo'ladi.

**Savol:** Ko'r sotsa yoki sotib olsa hukmi nima?

**Javob:** Sotishi va olishi joiz, agar sotib oladigan bo'lsa ko'rish ihtiyori beriladi.

**Savol:** Uning ko'zi ko'rmaydi qanday ko'radi?

**Javob:** Agar sotiladigan narsa silab ko'riladigan bo'lsa qo'li bilan silab ko'radi. Hidlash bilan bo'lsa hidlab ko'radi, tatib ko'rish bilan bilinsa tatib ko'radi, shular ko'rishni o'rniga o'tadi.

**Savol:** Ko'rmaydigan kishi yer sotib olmoqchi bo'ldi qanday biladi?

**Javob:** Yerni sotib olishda unga sifatlash kifoya, chunki unga yerni tanitishda bundan boshqa yo'l yo'q, agar unga tariflansa va olishga rozi bo'lsa, xohlasa olishlik undan soqit, ya'ni rozi bo'lgandan so'ng olish lozim.

**Savol:** Bir odam birovni mulkini beijozat sotdi nima bo'ladi?

**Javob:** Bu suratda xo'jayin ihtiyorlikdir. Xohlasa Bay'ni buzadi xohlasa yurgizadi. Va izojat berish xo'jayinni haqi, agar sotilgan narsa va sotuvchi, oluvchi o'z holida turgan bo'lsa.

**Savol:** Bir odam Bay'da ikki to'n oldi bittasini ko'rgan edi. Keyin ikkinchisini ko'rdi, har ikkisini qaytarish mumkinmi?

**Javob:** Ha joizdir.

**Savol:** Bir narsani ko'rdi bir muddatdan so'ng sotib oldi ko'rishlikka ihtiyor beriladimi?

**Javob:** Agar shu narsa u ko'rgan sifatda boqiy turgan bo'lsa ko'rishga ihtiyor berilmaydi, agar o'zgargan bo'lsa ihtiyorlik.

**Savol:** Sotib oluvchi o'ldi, unga ko'rib olish ihtiyori berilgan edi, o'lgandan so'ng ihtiyori nima bo'ladi?

**Javob:** Bay' tomomiga yetdi ko'rish ihtiyori bekor bo'ldi, ko'rish ihtiyori merosxo'rlarga berilmaydi.

## AYBLIK NARSANING IHTIYORI

**Savol:** Bir odam bir narsani sotib oldi, so'ng bir aybini ko'rdi. O'sha ayb sotuvchini qo'lida ekanida bor ekan, shu narsani qaytarib bersa joizmi?

**Javob:** Agar oluvchi uni Bay' vaqtida yoki qo'lga olgan paytda bilmagan bo'lsa, sotuvchi

ham aytmagan bo'lsa u ihtiyorlikdir xohlasa o'sha pulga oladi, xohlasa qaytarib beradi.

**Savol:** Sotuvchi o'sha narsani olib aybga yarasha puldan qaytarib olsa bo'lmaydimi?

**Javob:** Unday qilolmaydi.

**Savol:** Shu masalalarda qaysi ayblar e'tibor qilinadi?

**Javob:** Savdogarlar nazarida molni narhini pastlagalagan har bir narsa aybdir.

**Savol:** Sotib oluvchi qaytarib berishga sabab bo'ladigan ba'zi ayblarni bayon qilib bering?

**Javob:** Qochqoqlik, to'shakka siyib qo'yishlik, o'g'irlik, balog'atga yetmagan qullarda aybdir. Balog'atga yetgandan so'ng bu ayb emas. Og'zidagi sassiqlik, qo'litiq sassiqlik cho'rilar uchun aybdir. Qullar uchun emas. Magar qullarda kasallik bilan bo'lsa aybdir. Zinokorlik va haromidan tug'ilish cho'rilarda ayb, qullarda zmas.

**Savol:** Molni olgan kishini oldida bir ayb paydo bo'ldi, keyin sotgan odamni qo'lida turgan har bir ayb ko'rindi. Shu holda nima qilinadi?

**Javob:** Molni aybga yarasha puldan qaytaradi, molni qaytarib bermaydi. Magar sotuvchi olgan kishi qo'lida paydo bo'lgan ayb bilan olishga rozi bo'lsa qaytarish mumkin.

**Savol:** Kiyimlikni oldi, bichdi, tikdi yoki bo'yadi yoki talqon sotib oldi va yog' bilan aralashtirdi. Keyin sotuvchilik qo'lida turganda bir aybi borligini bildi nima qiladi?

**Javob:** Molni aybga yarasha puldan qaytaradi, lekin sotuvchi molni olmaydi.

**Savol:** Nima deysiz bir odam qulni sotib oldi va ozod qildi yoki qul vafot etdi. So'ng sotuvchini qo'lida ekanida uni aybi borligi ma'lum bo'ldi.

**Javob:** Aybi miqdoricha puldan qaytaradi. Lekin qulni qaytarmaydi. Chunki qaytarishga o'rin qolmaydi.

**Savol:** Sotib oluvchi qulni o'ldirib qo'ydi, yo sotilgan narsa taom ekan yeb qo'ydi, keyin bilindi sotilgan narsa egasini qo'lida aybli ekan puldan qaytariladimi?

**Javob:** Imbm Abu Hanifa rahmatullohi alayhni nazllarida hech narsa qaytarmaydi, ikki shogirdlari aytdilar aybiga yarasha puldan qaytaradi.

**Savol:** Qulni sotdi, bir kishi oldi va boshqaga sotdi, keyin bir aybi bilan sotuvchiga qaytarildi. U ham sotuvchiga qaytarishi mumkinmi?

**Javob:** Agar ikkinchi sotuvchi olsa u birinchi oluvchi edi qozining hukmi bilan. U ham avvalgi sotuvchiga qaytarishi mumkin. Agar qozidan tashqari qabul qilangan bo'lsa qaytarib olmaydi.

**Savol:** Bir odam qul sotib oldi sotuvchi aytdi: man buni hamma ayblaridan tashqariman deb, keyin oluvchi uni aybiga ogoh bo'ldi, aybli molni qaytarish joizmi?

**Javob:** Oluvchi molni qaytarib berishga haqqi yo'q, agarchi sotuvchi ayblarini hammasini sanab aytganda ham (masalan: yolg'onchi emas, buzuq emas, dangasa emas

Tanbeh: Ma'tolarni aybini berkitish va biror narsa aralashtirish haromdir.

## **FOSID, BOTIL VA MAKRUH BAY'LAR**

**Savol:** Sahih va fosid Bay'larni turlarini bayon qilib bering?

**Javob:** Bay'lar to'rt qism bo'ladi.

1. Sahih Bay', u asli bilan va sifati bilan sha'riy Bay'dir. U hukmni ifoda qiladi mone'lardan holi bo'lsa.
2. Botil Bay'. U mutloq shar'iy bo'lmagan Bay'dir. U hukmni ifoda qilmaydi, qanday bo'lmasin.
3. Fosid Bay': U shar'iy Bay'dir aslida sifatida emas, u hukmni ifoda etadi.

Qachonki olguvchi qo'lga ushlab bilan. Goho fuqaholar beparvolik bilan fosid va botilni mutloq ishlatadilar.

Mavkuf Bay': Chunonchi birovni mulkini sotsa, hukmini ifoda etadi, to'xtab turish bilan, agar xo'jayin ijozat bersa Bay' durust, ijozat bermasa Bay' botil.

## **BAY' BOTILNI MISOLLARI VA HUKMI**

**Savol:** Bay' botilni suratini qisqa bayon qilib bering?

**Javob:** Qachonki sotilayotgan yoki berilayotgan narsani biri yoki har ikkisi harom bo'lsa yoki egasiz bo'lsa bayo' botildir.

**Savol:** Bay' botilni ba'zi misollarini aytib bering?

**Javob:** yo'q narsa va mol bo'lmagan narsani Bay'i botildir, so'yilganda chiqqan qon, o'zi o'lgan narsani go'shti, ozod odam, tuyani qornidagi bolasi, qastdan bismilloh aytmay so'yilgan narsani go'shti, o'zi o'lgan narsani terisini oshlamasdan oldin sotish, bismilloh bilan so'yilgan narsani harom o'lganga qo'shib sotish, insonni junlarini sotish, u ulug' bo'lgani uchun to'ng'izni junlarini sotish, u kasofati bo'lgani uchun, odamni ahlatini tuproqqa qorishtirmay sotish, o'z mulkida bo'lmagan narsani sotish, magar salam yo'li bilan bo'lsa, (salamni yaqinda bilasiz insha allohu ta'olo). Ovlanmagan baliqni sotish, osmondagi qushni sotish, yelindagi sutni sotish, Sadafni qornidagi durni sotish qo'yni ustidagi junni sotish, aroq va to'ng'iz sotish, Qulni ozod kishiga qo'shib sotish,

yaylovdagi o'rilmagan xashakni sotish barchasi Bay' botildir.

**Savol:** Xo'jayin ummivaladni sotsa yoki mukotabni sotsa hukmi nima?

**Javob:** Bularni hammasi Bay'i botildir.

**Savol:** Bir ovchi tuzoq qo'ydi ovlash uchun va boshqa kishiga aytdi, shu safar tuzoqqa qancha narsa tushsa hammasi senga shunchaga sotdim deb hukmi nima?

**Javob:** Bularni hammasi Bay'i botildir. Chunki savdolashgan vaqtdagi narsa u paytda uni mulki emas.

**Savol:** Qul va mudabbarlarni to'pladi, yoki o'z quli bilan boshqasini qulini jamlab bir vaqtda sotdi nima deysiz?

**Javob:** O'z mulki bo'lgan qullari haqida Bay' o'z hissasicha narh bilan joiz, mudabbarni va o'z mulki bo'lmagani haqida Bay' botil.

**Savol:** Botil Bay'ni hukmi nima?

**Javob:** Uning hukmi Bay' baholanmaydi u hisob emas, oluvchi qo'lida olgan bo'lsa, uni mulki hisoblanmaydi.

## **BAY'I FOSIDNI MISOLLARI VA HUKMI**

**Savol:** Bay'i fosidni ba'zi misollarini aytib bering?

**Javob:** Bay' muzobana fosiddir, u xurmo daraxti ustidagi xo'l xurmoni daraxtdan uzilgan quruq xurmoga o'lchab sotish, mulomasa Bay'i fosid, ya'ni ikki kishi bir birini to'nini silab ko'rish bilan oldi sotdiga hisob qiladi, o'ylamasdan ko'rish baho qilish yo'q. Bir-birini to'nini ushlab oldi sotdi degan so'z, bu qorong'ida qilinadigan odat Munobaza Bay'i, bu ikki kishi masalan to'nni bir-biriga tashlaydi, bir-birini to'niga qaramaydi, tashlashligi sotgani, u uchalasi Bay' johiliyat bo'lib har uchalasi Bay'i fosiddir. Ilqoul Hajar Bay'i: Bir necha to'nni ustiga mayda toshlarni otish, bunda ko'rish ihtiyori bo'lmaydi, to'nni ustiga tosh tushgani Bay' o'rniga hisob qilingan. Bu ham fosiddir, cho'ri yoki hayvonni sotib bolasini Bay'dan tashqari qilganga o'xshash yoki gazlamadan bir gazni, yoki taomdan bir bo'lagini ko'rib olish yoki ikki kiyimdan birini olib qolishga o'xshash Bay'lar fosiddir.

**Savol:** Shartlar bilan Bay' buziladimi?

**Javob:** Buziladi bog'lanish taqozo qilmaydigan. halqqa yoqmaydigan, sotuvchi yoki oluvchini biriga foyda bo'ladigan, odatda joriy bo'lmagan, shariatda ko'rsatilmagan shartlar bilan Bay' buziladi.

**Savol:** Bay'ni buzadigan ba'zi shartlarni aytib bering?

**Javob:** Qulni ozod qilish sharti bilan sotsa yoki mudabbar qilish yoki mukotab qilish sharti bilan sotsa sotuvchi Bay'dan so'ng bir oy ishlatishni shart qilsa, yoki cho'rini sotib,

olguvchiga cho'rini bola tug'dirishni shart qilsa , hovlini sotib (Bay'dan so'ng sotuvchi ta'yin bir muddat foydalanishni shart qilsa, yoki bir quduqni sotib bir oygacha o'zim foydalanaman desa, olguvchiga pul qarz berishni shart qilsa, yo Bay'dan so'ng biror narsa hadya qilasan desa bu shartlar Bay'ni buzadi.

**Savol:** Nima deysiz bir odam kiyimlik sotib oldi, sotuvchi bichadi va ko'ylak tikib beradi, yoki kamzul tikib beradi yoki kovush sotib oldi, sotuvchi unga naxol qoqib beradi yoki bog'ich o'rnatib beradi?

**Javob:** Bu sur'atda Bay' fosiddir.

**Savol:** Ikki kishi oldi sotdi qildilar, olguvchi odam pulni navro'zga berishga muddat qo'ydi yoki falon jum'aga, sotuvchi qabul qildi, Yoki ikkisi muddatni nasorolar ro'zasiga yoki yaxudiylar og'iz ochishiga ta'yin qildilar bu Bay'ni hukmi nima?

**Javob:** Shu muddatlarni ikkalasi bo'lmasa Bay' fosiddir.

**Savol:** Bay'i joizmi agar pul berish muddatini dexqonlar ekinni o'rganda yoki yanchganda, yoki uzumni uzganda, yoki hojilar kelganda berishlikka tayin qilinsa?

**Javob:** Bay' fosiddir: chunki muddati aniq emas.

**Savol:** Yuqoridagi muddatni tayin qilib u vaqt bo'dmasdai soqit qilsalar Bay' joizlikka aylanadimi?

**Javob:** Joizlikka aylanadi.

**Savol:** Itni yoki qoplonni va boshqa yirtqich hayvonlarni Bay' joizmi?

**Javob:** Ha joiz.

**Savol:** Ipakqurtini yo asal arini Bay'i joizmi?

**Javob:** Pilla qurtini Bay'i joiz emas magar pillasi bilan, asal arisi ham shunday magar uyalari bilan joiz.

**Savol:** Bay'i fosidni hukmi nima?

**Javob:** Bay'i fosidni qilsalar, baraka topdi va birida mol va birida pul bor, olguvchi sotuvchini buyrug'i bilan molni ushladi, olguvchi molga ega bo'ldi va qiymati uni bo'yniga, lekin har ikkisiga vojib shariat hurmatlaridan bu Bay'ni buzmoqliklari.

**Savol:** Bu Bay'ni buzishlari zarur edi, lekin buzmadilar, olguvchi molni boshqaga sotib yubordi, shu Bay' durustmi?

**Javob:** Ha durust.

**Savol:** Sotib olguvchi odam olgan narsani Bay'i fosid bilan sotib yubordi va unga ancha foyda qoldi, bu foydani hukmi nima?

**Javob:** Bu foyda unga yaxshi bo'lmaydi, uni sadaqa qilmog'i vojib.

## TURLI MASALALAR

**Savol:** Kim oshdi savdosi qanday?

**Javob:** Kim oshdi savdosini zarari yo'q. Chunki payg'ambar alayhissalom bir idishni bir palosni shunday sotganlar.

**Savol:** Sotuvchiga lozimmi kim oshdi savdosida oxirgi narhgacha kutmoqligi?

**Javob:** Yo'q lozim emas, u ihtiyorlik, uni zo'rlanmaydi.

**Savol:** Zimmiy kofirlar islom yerlarida yashaydi u Bay'da ularga vojibmi sahih va fosidga rioya qilishliklari?

**Javob:** Ular bu ishda musulmonlardek, magar to'ng'iz va aroqda xossatan, chunki ularni aroqdagi Bay'lari, musulmonlarni siqib olgan narsadagi Bay'larga o'xshaydi to'ng'iz haqidagi Bay'lari musulmonlarni qo'y oldi-sotdilariga o'xshaydi.

## MAKRUH BAY'LAR

Alloh ta'olo aytdi: Ey imon keltirgan kishilar. Har vaqtiki juma kunida juma namoziga azon aytilsa Allohni zikriga shoshilinglar, oldi-sotdini to'xtatinglar deb juma a'zoni vaqtida va undan so'ng Bay' man' etilgandir. Hatto juma namozidan forig' bo'lguncha, Payg'ambar allayhissalom qaytardilar. Najotdan, ya'ni o'zi olmaydigan odam bir narsani narhini bahosidan ortiqqa xaridor bo'ladi toki boshqa bilmagan odam uni ortiq narhga olish uchun va biron baho qilib turgan narsani hanuz u kishi gashlab ketmay turib ustiga narhini oshirib olish va hanuz shahar bozoriga yetib kelmagan molni shahardan tashqarida to'sib Bay' qilish, shaharliklar atrofda kelganlar uchun sotib berishlari makruh Bay'dur.

## FOYDA

Bir odamni ikkita yosh quli bo'lsa ikkalasi bir-biriga yaqin mahram qarindosh bo'lsa, Bay'da ikkisini ajratib boshqa-boshqa odamga sotish joiz emas. Shunga o'xshash biri katta biri kichik yaqin qarindoshlarni ham ajratib sotish makruh, garchi Bay' joiz bo'lsa ham, agar har ikkisi katta yoshda bo'lsa zarari yo'q.

## O'RTADAGI BAY'NI BUZISH

**Savol:** Iqola nimadir, shariati g'arroda uni hukmi nima?

**Javob:** U sotuvchi va oluvchini o'rtasida tugallangan Bay'ni ikki tomonni roziligi bilan

avvalgi kelishilgan bahoda bekor qilishdir va bu shariatda joizdir.

**Savol:** Ikkisidan biri narhni ko'tarib yoki pastlagib iqola qilishni shart qilsa nima bo'ladi?

**Javob:** Bu shart botildir, avvalgi narh bilan buziladi.

**Savol:** Iqola Bay'ni buzishmi yoki yangi Bay'mi?

**Javob:** Ikkalasini haqida Bay'ni buzish, ikkalasidan boshqani haqida yangi Bay'dir. Imom Abu Hanifa qovillarida.

**Savol:** Sotilgan pul yoki narsa halokatga uchragan bo'lsa iqola nima?

**Javob:** Pulni halok bo'lishi iqolani man etmaydi, ammo molni halok bo'lishi iqolani buzadi.

**Savol:** Sotilgan molni ba'zisi nobud bo'ldi qolgan qismida iqola nima bo'ladi?

**Javob:** Boqiy qismida iqola durust.

## FOYDA

Sotuvchi yo oluvchi Bay'dan so'ng pushaymon bo'ldi va birodarlaridan Bay'ni buzishni iltimos qildi. Birodariga lozim shulki Bay'ni iqola qilsin, unga ajri ko'pdir.

## MUROBAXA VA TAVLIYA

**Savol:** Murobaxa va tavliyani fuqoholar urfida tavsiri qanday?

**Javob:** Murobaha - avvalgi Bay' avvalgi narh bilan o'zi ega bo'lgan narsani qo'shimcha foyda bilan ko'chirmoq. Tavliya - avvalgi Bay' avvalgi narh bilan o'zi ega bo'lgan narsani qo'shimcha foydasiz ko'chirmoq.

**Savol:** Murobaxa va tavliyaga shart bormi?

**Javob:** Murobaxa va tavliya joiz emas hatto unga tarozu yoki o'lchov bilan biror evaz barpo qilinmaguncha.

**Savol:** Bir kishi kiyim sotib oldi, uni yuvdi va kirini ketkazdi yoki bo'yadi, shu suratda uni qiymati oshdi yoki sotib oldi va uyiga ko'tarib bordi, yukchiga haqini yoki kiyimni atrofini ipak yoki boshqa narsa bilan jilo berdi, bunda Murobaxa qanday bo'ladi?

**Javob:** Bu sur'atda murobaxa joiz, lekin shunchaga oldim deb xizmatini qo'shib aytmaydi, balki menga shunchaga tushdi deydi.

**Savol:** Bir odam buyumini murobaxa bilan sotdi, oluvchi uni rost deb ishondi keyin bildi u xiyonat qilgan ekan uni hukmi nima?



**Javob:** Agar oluvchi murobaxada xiyonatni bilsa. Imom Abu Hanifada mazkur Bay' baho bilan xohlasa oladi xohlamasa qaytaradi.

**Savol:** Agar tavliyada hiyonat sezilsa uni hukmi nima?

**Javob:** Rost deb gumon qilingan narhni ortig'ini tushiriladi.

**Savol:** Bu ishda imom Abu Hanifa va ikki sohiblari o'rtalarida ixtilof bormi?

**Javob:** Ha, ular uchun o'rtada xilof bor, imom Abu Yusuf aytdilar, bu murobaha va tavliyani har ikkisida Bay'ni buzishga ihtiyor yo'q, imom Muhammad aytdilar har ikki sur'atda puldan kamaytirilmaydi, lekin olish olmasi ihtiyorlik.

## TURLI MASALALAR

**Savol:** Bir kishi bir narsani oldi, qo'lga ushlamasdan boshqaga sotishi mumkinmi?

**Javob:** Agar ko'tarib olib ketish mumkin bo'lgan, joyini o'zgartirish mumkin bo'lgan narsani olgan bo'lsa qo'lga olmasdan turib sotishi mumkin emas, ammo qo'lga olib ko'tarib ketishi mumkin bo'lmagan narsa bo'lsa, bu yerdir, oluvchi qo'lga olmasdan turib sotishi mumkin bu imom A'zam bilan imom Abu Yusuf qovillarida, imom Muhammad aytdilar, yerni ham rosa qo'lga keltirmasdan turib sotish mumkin emas.

**Savol:** Sotib oluvchiga lozimmi o'lchab yoki tortib sotiladigan narsani olgandan so'ng qayta tortishi yoki o'lchashi?

**Javob:** Agar o'lchanadigan narsani o'lchab tortiladigan narsani tortib olishi shart qilib olgan bo'lsa uni sotishi yoki undan yemoqligi haromdir hatto qaytarib o'lchamaguncha yoki qayta o'lchab ko'rmaguncha.

**Savol:** Bir kishi buyumni sotdi, pulni qo'lga olgani yo'q shu pulni tasarruf qilishi mumkinmi?

**Javob:** Ha, bu joiz.

**Savol:** Bay' tugagandan so'ng sotuvchi molni ko'paytirib bersa yoki oluvchi pulni ko'proq qilib bersa mumkinmi?

**Javob:** Oluvchiga mumkin pulni ko'proq qilib bersa yoki sotuvchi molidan qo'shib bersa.

**Savol:** Sotuvchi narhni pasaytirib bersachi?

**Javob:** Bu ham joiz.

**Savol:** Agar oluvchi pulni ziyoda qilsa yoki sotuvchi molni ziyoda qilib bersa, sotuvchi narhni paslatsa, shularga haqlimi?

**Javob:** Shu ishlarni hammasida haqli.

**Savol:** Hozirgi baho narh bilan sotdi, so'ng ma'lum muddatga surildi, hukmi nima?

**Javob:** Muddat qo'yish bilan muddatlikka aylandi, shunga o'xshash, hamma muomalalarda muddatlikka aylandi. Egasini muddat qo'yish bilan, magar qarzni muddati joiz emas.

## SUDXO'RLIK BOBI

**Savol:** Sudxo'rlik (ribo) lug'at va shariatda nima?

**Javob:** U lug'atda mutloq ziyoda qilishdir. Ammo shariat g'arroda u ikki qismga bo'linadi.

1. Savdodagi sudxo'rlik.

2. Qarzdagi sudxo'rlik.

Har ikkisi haromdir, albatta qattiq va'id olguvchiga va beruvchiga tayin qilingandir.

**Savol:** Qarzni sudxo'rliqi nima?

**Javob:** Birovga tanga yoki oltin qarz berib, qarz olguvchiga shart qiladi, olgan puldan ortiqroq qilib qaytarishni.

**Savol:** Savdodagi sudxo'rlik nima?

**Javob:** U o'lchab yoki tortib sotiladigan narsani o'sha narsani o'z jinsidan ortiqqa berish yoki o'lchab yo tortib sotiladigan narsani o'z jinsiga yoki boshqa narsaga nasiya berish.

**Savol:** Bu to'g'rida payg'ambarimizdan hujjat bormi?

**Javob:** Rivoyat qiladilar. Abu Sayyid Xudriy roziyallohu, anhu aytdilar, u kishi: Aytdilar payg'ambarimiz sallohu alayha vassallam: Sotinglar oltinni — oltinga, kumushni — kumushga, bug'doyni — bug'doyga, arpani — arpaga, xurmoni — xurmoga, tuzni — tuzga, tengma teng, qo'ldan- qo'lga kim ziyoda qilsa, yoki ziyoda talab qilsa bas u sudxo'rlik qildi, olguvchi va berguvchi bu ishda barobardir. Ubboda binni Somit roziyallahu anhu rivoyat qildilar: aytdilar payg'ambar alayhissalom, oltinga - oltinni sotinglar, kumushga - kumushni, bug'doyga - bug'doyni, arpaga - arpani, xurmoni - xurmoga, tuzga - tuzni, tengma - teng o'xshashi bilan qo'ldan qo'lga, agar bu turlar har xil bo'lsa qo'ldan qo'lga xohlagan narhga sotinglar. Pang'ambarimiz bu olti narsani gapirdilar va buyurdilar, bu narsalarni ba'zisini ba'zisiga sotmaslikka magar tengma-teng qo'ldan-qo'lga, o'xshash-o'xshashiga va bayon qildilar, nima ziyoda bo'lsa u ribo deb. Qaysi tarafdin bo'lmasin va aytdilar olguvchi beruvchi bu ishda barobar deb. Va shu bilan birga ruhsat berdilar bu narsalar bir-biriga o'xshamasa jinsidan qo'ldan-qo'lga bo'lsa xohlagan narsaga sotishga shu narsalarni aytilishdan hukm chiqardilar, imom Abu Hanifa rahmatullohi alayh albatta sudxo'rlikni haqiqati u o'lchashdir. Jinsi bilan yo

tortishdir. Chunki bu narsalar yo o'lchab, yo tortib muomala qilinadi. Qachonki o'lchagan narsa sotilsa o'z jinsiga agar shu narsalardan boshqa bo'lsa, o'xshash o'xshashiga Bay' joiz. Agar bir tomondan ortiq bo'lsa joiz emas. Ikki jins bir-biriga o'xshasa ortiqchasi joiz emas haromdir. Agar ikki sifat topilmasa ya'ni jinsi bir bo'lishi va uni tortiladigan, o'lchanadigan bo'lmasa, ziyoda bo'lishi joiz va nasiya haromdir. Agar ikki sifat topilsa ya'ni o'lchanadigan va tortiladigan bo'lib jinsi bir bo'lsa ortiq yo kam va nasiya haromdir. Ikki sifatdan biri topilsa ziyodalik joiz nasiya harom.

**Savol:** Yaxshi bug'doy bir tomondan, past bug'doy ikkinchi tomondan ortiq olib yaxshisidan kamroq berishi mumkinmi?

**Javob:** Jinsi bir bo'lgani uchun bu suratda ortiqlik durust emas. Hamma tortiladigan va o'lchanadigan narsalarni hukmi shu.

**Savol:** Jinlarda tortiladigan yoki o'lchanadigan ekanini qanday taniladi?

**Javob:** Har bir narsa payg'ambarimiz hujjat qildilar, unda ortiqcha olishni haromligiga o'lchash bilan u abadiy o'lchanadigan narsadir. Agar chandiki odamlar u narsani o'lchab muomala qilishni odatdan chiqarsalar ham, bug'doy, arpa, xurmo, tuzga o'xshash va har bir narsani payg'ambarimiz hujjat qilgan bo'lsalar unda tortib muomala qilishda ziyodalikka haromligiga u narsa abadiy tortib ishlatiladigan narsadir. Agarta odamlar uni tortib ishlatishni tark etsalar ham oltin, kumushga o'xshash. Nima narsani payg'ambarimiz hujjat qilgan bo'lsalar odamlarni odatlariga qaradilar. Agar bir narsaga binoan oldi-sotdi qilsalar urfni e'tibor qilinadi. Agar bir narsani tortib sotsalar u tortiladigan narsa, agar odat qilsalar o'lchab sotishni u o'lchanadigan narsadir. Agar sanab sotishga, odat qilsalar u sanaladigan narsadir.

**Savol:** Qo'lga ushlashni hukmi nima?

**Javob:** Pul jinsi bilan Bay' tomomiga yetsa tilla kumush bilan shu majlisda evazlarini ushlash mu'tabardir. Buni Bay' saraf deydilar. Puldan boshqa narsalarda sudxo'rlik bo'ladigan bo'lsa, tayin qilishni e'tibor qilinadi. Ushlash shart emas.

**Savol:** Bug'doyni unga yoki talqonga yoki talqonni unga Bay' joizmi?

**Javob:** Bu Bay' ortiqchasi bilan ham tengma-teng ham joiz emas.

**Savol:** Go'shtni hayvonga, sotish imom Abu Hanifada joizmi?

**Javob:** Bu joizdir.

**Savol:** Bunda ikki shogirdlari nima deydilar?

**Javob:** Imom Abu Yusuf bu masalada ustozlari bilan birgalar. Ammo imom Muhammad aytdilar bu Bay' joiz emas, hatto go'sht hayvondan ko'p bo'lmaguncha. Go'shtga - go'sht teng bo'ladi, ortig'i chiqitga teng bo'ladi.

**Savol:** Abu Hanifa nima deydilar, xo'l xurmoni quruq xurmoga, uzumni mayizga tengma teng sotishga?

**Javob:** Bu ikki Bay' joizdir. Abu Hanifa rahmattullohu alayh nazlilarida ikki jins bitta. Ikki shogirdlari bo'lmaydi deydilar.

**Savol:** Zaytun mevasini zaytun yog'iga sotilsa yoki kunjutni sotilsa uni yanchilganiga u Bay' joizmi?

**Javob:** Bu Bay' joiz emas. Toki zaytunni mevasi uni yog'idan, kunjutni yanchilganidan kunjut ko'p bo'lmaguncha yog'i-yog'iga teng bo'lib chiqindisi xolis bo'lib qoladi.

**Savol:** Ba'zisi ba'zisiga aralashgan go'shtni ortiqqa sotsa bo'ladimi?

**Javob:** Joiz bo'ladi.

**Savol:** Agar tuya, mol, qo'y sutlarini ba'zisiga ortig'i bilan sotsa bo'ladimi?

**Javob:** Ha bo'ladi.

**Savol:** Past xurmoni sirkasini sotdi uzum sirkasiga ziyodasi bilan joizmi?

**Javob:** Bu ham joiz.

**Savol:** Nima deysiz bug'doy uni nonini sotdi, bug'doyga yoki unga?

**Javob:** Bu joizdir.

**Savol:** Bir kishi quliga savdo qilishga ruhsat berdi, keyin bir narsa oldi, muomala qilib ribo bilan nima bo'ladi?

**Javob:** Xo'jayin bilan quli o'rtasida sudxo'rlik bo'lmaydi bu muomala joiz. Chunki qul va uni qo'lidagi pul hamma narsa xo'jayinnikidir.

**Savol:** Musulmon kishi harbiy kofir bilan kofiristonda sudxo'rlik bilan muomala qildi nima bo'ladi?

**Javob:** Kofiriston mamlakatida musulmon va kofir o'rtasida sudxo'rlik yo'qdir, shuning uchun joiz.

## **BAY'I SARAF**

**Savol:** Bay'i saraf nima?

**Javob:** Qachonki ikki tarafni har qaysi pul jinsidan bo'lsa ya'ni oltin yoki kumush fuqoholar urfida bu Bay'i sarafdur.

**Savol:** Kumushni-kumushga yoki oltinni-oltinga savdosi qanday?

**Javob:** Bu joiz emas magar tengma-teng naqdma-naqd bo'lsa joiz. Sudxo'rlik bobida

aytilgandek.

**Savol:** Agar oltin ikki xil bo'lsa tozalikda va quyushda yoki kumush shunday farq qilsa, shu oltinni oltinga kumushni kumushga ziyodaga Bay'i joizmi?

**Javob:** Joiz emas chunki tozaligi va quyulishi shunday sifatki uni Bay'i sarafda e'tibori yo'q.

**Savol:** Nima deysiz bir odamni haqqida oltinni kumushga, yoki kumushni oltinga sotsa?

**Javob:** Jins turli bo'lsa ortiqqa sotish joiz va Bay' qilingan paytda uni qo'lga ushlab vojib.

**Savol:** Bay'i sarafda pulni qo'lga olmasdan turib tasarruf qilish mumkinmi?

**Javob:** Joiz emas.

**Savol:** Bir kishi sotdi oltinni kumushga taxminiy, hukmi nima?

**Javob:** Jinslari turli bo'lgani uchun u joiz va tenglikni shart qilinmagani uchun lekin har ikki evazni qo'lga olish lozim ajralmasdan turib.

**Savol:** Ziynatlangan qilichni yuz tanga kumushga sotdi. Ziynati ellik tanga edi. Kumush bilan, narhdan ellik tanga berdi. Qolganini qarz qildi, shu Bay'ni hukmi nima?

**Javob:** Bu Bay' joizdir, qo'lga olingan pul kumushdan evaz buni aytilmasa ham qolgani har ikkisini roziligi bilan muddatga qoladi.

**Savol:** Agar aytsa: ol mana bu ellik tangani uni bahosidan hukmi nima?

**Javob:** Bu ham joiz.

**Savol:** Agar ajralsalar qo'llariga olmasdan unga nima deysiz?

**Javob:** Bay' botil bo'ldi qilichni va ziynati haqida, agar ziynat qilichdan olinishi qilichga zarar yetishi bilan bo'lsa, agar ajratilishi mumkin bo'lsa, qilichni Bay' joiz. Ziynatniki no joiz.

**Savol:** Kumush idishni sotdi kumushga yoki oltinga keyin ajralishdi. Pulni ba'zisini olgan edi. Shu Bay'ni hukmi nima?

**Javob:** Pulni olmagan qismidan Bay' botil olgan qismida Bay' sahih idish o'rtasida sheriklik.

**Savol:** Idishni ba'zisiga haqli bo'lsa, ba'zisini pulini bergan bo'lsa olguvchi nima qiladi?

**Javob:** Olguvchi ihtiyorlik, xohlasa qolgan qismini ham pulga oladi xohlasa Bay'ni rad etadi.

**Savol:** Bir bo'lak oltinni sotdi ba'zisiga o'zi haqli shu sur'atda ihtiyorlik bo'lishi mumkinmi?

**Javob:** Bu sur'atda ihtiyorlik bo'lmaydi balki qolgan hissani sotib oladi.

**Savol:** Ikki tanga va bir oltinga sotdi ikki oltin va bir tangani, hukmi nima?

**Javob:** Bu joiz, har ikki jinsini badal qiladi boshqa jinsdan.

**Savol:** O'n bir tangani sotdi. O'n bir tangayu bir tillaga bu qanday?

**Javob:** Bu ham joiz, o'n tanga, o'n tillo bir tanga bir tillo.

**Savol:** Ikki toza tanga va bir aralash tangani sotdi. Bir toza va ikki aralash tangaga bu qanday?

**Javob:** Bu Bay' ham joizdir.

**Savol:** Kumush tangalar yoki oltin tangalar ularda g'ash aralashgan shularni o'z jinsiga ortig'i bilan sotish qanday?

**Javob:** Agar tangaga g'olib kumush bo'lsa u kumush hukmida, oltin tangaga oltin g'olib bo'lsa u oltin hukmida, bularni ortiqligi e'tibor qilishda toza oltin yoki kumushda ziyodalikni haromligini e'tibor qilgandek e'tibor qilinadi. Agar har ikkisida g'ash g'olib bo'lsa ular oltin kumushdan hisob qilinmaydi. Balki matolar hukmiga kiradi. Agar ularni o'z jinsi bilan ortig'iga sotilsa joizdur. Bay' jinsi o'z xilofiga sarf qilmoqlik bilan.

**Savol:** Bir odam aralash oltin yoki tangaga bir matoni sotib oldi, keyin u narsa kasod bo'ldi. Odamlar u narsa bilan muomilani tark etdilar, sotuvchi pulni qo'lga olmasdan turib, hukmi nima bo'ldi?

**Javob:** Imom Abu Hanifada Bay' botil bo'ldi. Imom Abu Yusuf aytdilar sotib olguvchiga savdo qilingan kunni bahosi qaytariladi. Alloh har uchovlaridan rozi bo'lsin.

**Savol:** Chaqa pullarga tayin qilmasdan Bay' joizmi?

**Javob:** Ishlab turgan chaqa pullarga ham tayin qilmasdan Bay' joiz. Ammo kasod bo'lganda tayin qilmasdan Bay' joiz emas.

**Savol:** Yurib turgan chaqaga bir narsa sotdi so'ng u kasod bo'ldi sotuvchi pulni qo'lga olmasdan turib hukmi nima?

**Javob:** Bu Bay' imom Abu Hanifada botildir. Bunday ixtiloflar yuqorida g'ash tanga va g'ash tilloga ixtilofga o'xshaydi.

**Savol:** Bir narsani sotib oldi u chaqa hisobida bu joizmi?

**Javob:** Bu joiz, yarim tanga chaqa hisobida beradi.

**Savol:** Sarrofga bir tanga berdi, menga yarim tangaga chaqa ber, yarmiga yarim tanga magar bir don miqdori kam dedi bu Bay'ni hukmi nima?

**Javob:** Imom Abu Hanifada bu Bay' hammasi fosiddir. Ikki shogirdlari aytdilar, chaqalar haqida joiz, boshqalar haqida botildir. Alloh bularni rahmat qilsin.

**Savol:** Agar aytsa menga bir yarim tangaga chaqa va yarim tanga bir don miqdori kam bu qanday?

**Javob:** Bu joizdir.

**Savol:** Agar aytsa, menga bir kichik tanga ber uni vazni yarim tangaga bir don miqdori kam, qolganiga chaqa ber bu Bay' joizmi?

**Javob:** Bu suratda ham Bay' joiz. Yarim tangaga bir don miqdori kam, kichik tanga barobariga bo'ladi qolgani chaqalar barobariga bo'ladi.

## **BAY'I SALAM**

**Savol:** Bay'larda qo'lga olish shart qilinmagan Bay' ham bormi?

**Javob:** Ha u Bay'i salamdir, u tayin narsani qarzga sotmoqlik bu joizdir. Shundayki olguvchi buyumni qo'lga olmaydi. Magar ma'lum muddatdan so'ng oladi.

**Savol:** Bayon qiling bir aniq qoidani u ravshan qiladi, Bay' salamni joiz va nojoiz suratlarini?

**Javob:** Har bir narsani sifatini va miqdorini topish va bilish mumkin bo'lsa u narsada Bay'i salam joiz. Har narsani sifatini va miqdorini bilish va aniqlash mumkin bo'lmasa unda Bay' salam joiz emas.

**Savol:** Salam joiz bo'lgan jinslarni bayon qiling?

**Javob:** O'lchanadigan, tortiladigan, metr lab o'lchanadigan donalab sotiladigan narsalarni bir-biridan farq qilmasa, yong'oq va tuxumga o'xshash narsalarda salam joizdir. Hayvonlarda undan chiqqan narsalarda, terilarda sanoq bilan, o'tinlarda bog'ini hisoblab va ko'k o'tlarda bog'ini sanab sotish mumkin emas magar bog'lar teng bo'lsa uni sanab bog'ini baho qilish mumkin.

**Savol:** Bu Bay'lar saxih bo'lishi uchun shartlar bormi?

**Javob:** Bu Bay'larni saxih bo'lishi uchun imom A'zamda yetti shart bordir. Bay' vaqtida zikr qilinadi. Ular tubandagilar:

1. Ma'lum jins bo'lishi.

2. Ma'lum nav bo'lishi.

3. Sifati ma'lum bo'lishi.
4. Miqdori ma'lum bo'lishi.
5. Molni asl miqdorini topish agar Bay' uni miqdoriga tegishli bo'lsa, masalan o'lchovda bir chelagini tortiladi, bir kilosini, sanovda bir donasini Bay' qilmoqlik.
6. Olinadigan joyni aniq aytish, agar uni yuklash harajatlari bo'lsa.
7. Saxih bo'lmaydi. Magar aniq muddat bilan aniq bo'lmog'i shart.

**Savol:** Shu masalada imom A'zam bilan ikki shogirdlari o'rtalarida xilof bormi?

**Javob:** Ha, ba'zi shartlarda ikkilari xazrat Abu Hanifaga xilof qilganlar, Alloh har uchovlarini rahmat qilsin. Aytidilar mol aniq bo'lsa uni aslini aytishga hojat yo'qdir, va topshiriladigan joyni ham aytish zarur emas, sotilgan joyda topshiriladi.

**Savol:** Kiyimlarda salam joizmi?

**Javob:** Agar uzunligi, ya'ni, qalinligi, yupqaligi, sifati, jinsi, turi aytilsa joiz.

**Savol:** Salam gavharlarda, munchoqlarda joizmi?

**Javob:** Joiz emas.

**Savol:** Nima deysiz xom g'isht va pishiq g'ishtni salamida?

**Javob:** Qalini ma'lum bo'lsa joiz.

**Savol:** Sotuvchi buyumni topshiradi muddat yetganda, pulni qachon oladi?

**Javob:** Sotuvchi oladi pulni Bay' qilingan majlisda oluvchi bilan ajralmasdan turib, salam faqat shu yo'l bilan joiz.

**Savol:** Salam bilan oldi - sotdi qildilar, keyin sotuvchi xohladi molni ishlatib turishni yoki oluvchi pulni ishlatishni, hukmi nima?

**Javob:** Qo'lga olmasdan turib har ikkisiga ham joiz emas. Va ana shu haqda qo'lga olmasdan turib sherikli va egadorlik mumkin emas.

**Savol:** Shu Bay'ni saxih bo'lishi uchun yana biror shart bormi?

**Javob:** Ha faqoholar aytidilar yuqoridagi shartlardan tashqari yana bir shartni u, albatta sotilgan narsa qo'lda mavjud bo'lsin Bay' vaqtidan to muddat vaqtigacha.

**Savol:** Topshirdi bir kishi o'zini o'lchovi bilan yoki o'zini gaz-metri bilan shu joizmi?

**Javob:** Joiz emas.



**Savol:** Salam qildi bir taomni o'z xaltasida yoki salam qildi xurmoni mevasini daraxtida shu joizmi?

**Javob:** Bu ham joiz emas.